

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
NAMANGAN MUHANDISLIK-TEXNOLOGIYA INSTITUTI

"TEXNOLOGIK JARAYONLARNI AVTOMATLASHTIRISH VA
BOSHQARISH VA INFORMATSION TEXNOLOGIYALAR" KAFEDRASI

"MEXATRONIKA" FANIDAN

O'QUV-USLUBIY MAJMUA

Bilim sohasi:	300000	– Ishlab chiqarish texnik soha
Ta'lim sohasi:	310000	– Muhandislik ishi
Ta'lim yo'nalishi:	5311000	– Texnologik jarayonlar va ishlab chiqarishni avtomatlashtirish va boshqarish (paxta, to'qimachilik va yengil sanoat)

Ushbu o'quv-uslubiy majmua O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 20____ yil _____dagi _____-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan "Mexatronika" fani dasturi asosida ishlab chiqildi.

Tuzuvchi:

Qodirov D.T. – NamMTI, “TJABIT” kafedrası dotsenti.

Taqrizchilar:

G.Gulyamov – NamMQI, «Fizika» kafedrası professori, fizika-matematika fanlari doktori
H.Abdullayev – NamMTI, «Texnologik jarayonlarni avtomatlashtirish va boshqarish va informatsion texnologiyalar» kafedrası dotsenti, fizika-matematika fanlari nomzodi

Fanning o'quv-uslubiy majmuasi "Texnologik jarayonlarni avtomatlashtirish va boshqarish va informatsion texnologiyalar" kafedrasining 2021 yil _____ №____ - sonli yig'ilisida muhokamadan o'tgan va fakultet kengashida muhokama qilish uchun tavsiya etilgan.

Kafedra mudiri:_____ f.-m.f.d. U.I.Erkaboyev

Fanning o'quv-uslubiy majmuasi "Avtomatika va energetika" fakul'teti o'quv-uslubiy kengashining 2021 yil _____ №____-sonli yig'ilishida muhokamadan o'tgan va institut o'quv-uslubiy kengashida muhokama qilish uchun tavsiya etilgan.

Fakultet kengashi raisi: _____ dots. A.A.Mamaxonov

NamMTI o'quv-uslubiy kengashida ishlatishga tavsiya etildi.

«_____»_____2021 yil Bayonnoma № _____

Mundarija

I-Bob. O'quv materiallari.....	
1.1. Ma`ruza mavzulari (Tayanch konspekti).....	
1.2. Amaliy mashg'ulotlari mavzulari.....	
1.2. Tajriba mashg'ulotlari mavzulari	
II-Bob. Mustaqil ta'lim mashg'ulotlari.....	
III-Bob. Glossariy.....	
Ilovalar.....	
a) Fan dasturi.....	
b) Ishchi fan dasturi.....	
c) Tarqatma materiallar.....	
d) Testlar.....	
e) Baholash mezonlarini qo'llash bo'yicha uslubiy ko'rsatmalar.....	
f) Foydalanilgan adabiyotlar.....	

O'QUV MATERIALLARI

1. «Mexatronika» faniga kirish. Elektromexannk sistemalarning elementlari. «Mexatronika» fanining maqsad va vazifalari, elektromexannk sistemalar

Maqsad: talabalarga “Mexatronika” fanining maqsad va vazifalari, ishlab chiqarishdagi o'rni to'g'risida etarli darajada bilimlarini o'rgatish, ko'nikmalarini shakllantirish.

Reja:

1. Mexatronika fanining maqsadi va vazifalari.
2. Mexatronika tizimining asosiy tushunchalari.
3. Mexatronikaning mashinasozlikda tutgan o'rni.
4. Xulosa.


1. Fanni o'qitishdan maqsad, mexanika va elektronika qo'llaniladigan barcha tizim parametrlarini tanlash va tahlil qila olish ko'nikmasini olish, kompyuter dasturlarini qo'llagan holda avtomobildagi mexatronik tizimlarni boshqarish va ularni xisoblash bilimlarini shakllantirish.

Ushbu fanni yana bir maqsadlaridan avtomobildagi mexatronik tizimlarning tarkibiy qismlari va ularni boshqarish, kompyuter dasturlari orqali ularni tahlil qilishni o'rganish va ushbu orqali magistrantlarning ratsional ijodiy mehnatlarini rivojlantirish hamda ularning o'ylash qobiliyatlarini optimallashtirish bo'limlarini o'z ichiga oladi.


Fanni o'rganish vazifasi talabalarga quyidagilarni o'rgatish:

- avtomobildagi mexatronik tizimlarning xususiyatlari ko'rsatkichlarni hisob asosida aniqlash va ularni boshqarish usullari;
- avtomobildagi mexatronik tizimlarning qo'llash usullarini tanlash;

2. Mexatronika so'zi bu «mexa»- mexanika va «tronika» – elektronika so'zlaridan olingan. **Mexatronika** bu - mexanika va elektronika sohalarini o'z ichiga qamragan bo'lib, mexanik va elektr tizimlarni sensorlar va harakat beruvchilar orqali boshqarishni o'rganuvchi fandır. Bundan tashqari mexatronik tizimlarni ham o'rganadi (1.1., 1.2-rasmlarga qarang).



1.1-rasm. Mexatronik tizim



1.2-rasm. Mexatronik tizimni ishlash jarayoni

3. Mexatronika fanida asosan quyidagi yo'nalishlar chuqur o'rganiladi.

- Mexanika (xarakat beruvchilar)
- Elektronika (elektr tizimlar)
- Boshqarish (kontrol, yuqorida aytilgan tizimlarni boshqarish)
- Injenerlik kompyuter dasturlari (MatLab, LabVIEW)


Mexatronika so'zi birinchi marta 1960 yilda Yaponiyada qo'llanilgan, keyinchalik 1969 yildan boshlab Mexanika va Elektronika fanlarining davomi va fan sifatida Yaponiyada tanishtirilgan. Bu tushincha hozirgi kunda Evropa va Amerikada keng miqyosda qo'llanilmoqda. 1990 yillarda mexatronika fani asosida ishlab chiqarishda juda katta yutuqlarga erishila boshlangandan so'ng, bu fan boshqa mamlakatlarda ham asosiy injenerlik fanlaridan biri bo'lib hisoblana boshladi. Xozirgi kunda esa bu fan quyidagi uchta fanning birlashmasi hisoblanadi. (1.3-rasm)



1.3-rasm.

Jumladan, avtomobillarda ishlash tizimini ko'rib chiqaylik.

Elektr va mexanik tizimlarning kompyuter bilan birlashtira olish imkoniyati mexatronikada yaratilishi bilan bu ikki injenerlik sohalari orasidagi chegaralar buzildi. Natijada mexatronika ikki sohani qamragan har qanday sohada qo'llanila boshlandi. Faqatgina elektronika yoki mexanikani o'rganish injenerlikda etarli bo'lmay qoldi. Mexatronika to'liq fan sifatida rivojlangandan keyin avtomobilsozlikda ko'zga ko'rinarli yutuqlarga erishila boshladi. Masalan, mexatronikaning yaqqol natijasi sifatida 1970 yillarning oxirida yaratilib hozirgi kungacha avtomobillarda qo'llanilib kelinayotgan ABS tormoz tizimini ko'rsatish mumkin.



1.4-rasm.

Bunda, g'ildiraklardagi sensorlar, tormoz vaqtida tushadigan bosim xaqidagi ma'lumotni boshqarish (control module) qutisiga uzatish orqali, modulyator (modulator unit) yordamida ularni boshqaradi. Bunda g'ildiraklar bilan qoplama orasidagi emirilish kamaytirilishga erishiladi.

Xulosa. Talabalar mexatronika fani maqsadi, vazifalarini, asosiy tuzilmasini, ishlab chiqarishdagi o'rini etarli darajada bilib oladilar.

O'z-o'zini tekshirish uchun savollar:

1. Mexatronika qaysi soha yo'nalishlarini o'z ichiga oladi?
2. Mexatronika tushunchasi haqida ma'lumot bering.
3. Mexatronika paxta, to'qimachilik va engil sanoatda qanday rol o'ynaydi?
4. Mexanika Mexatronikada qanday o'rin tutadi?
5. Komp'yuter dasturlari nima uchun qo'llaniladi?

2. Elektromagnit kuch. Elektromagnit kuchlar va ularni Avtomatlashtirish va boshqaruvda ishlatiladigan elektromexanik sistemalar to'g'risida umumiy ma'lumotlar.

Maqsad: Talabalarga mexatronik tizimlarda qo'llaniladigan elektr zanjirlar sxemalarini, nazariy asoslarini o'rganishdan iborat.

Reja:

1. Elektr zanjir va uning elementlari haqida ma'lumot.
2. Zevinin va Norton teoremlari.
3. Krigxofning birinchi va ikkinchi qonunlari.
4. Xulosa.

1. Elektr zanjir deb – manbaa, qarshilik, kondensator, g'altakdan va boshqa komponentlardan tashkil topgan yopiq tizimga aytiladi. Elektr zanjirda manbadan kelayotgan elektr energiya, elektr elementlari orqali mexanik energiyaga aylantirilib beriladi. Umuman olib

qaraganda mexatronik tizimlar va o'lchash tizimlari ma'lum ma'noda elektr komponentlardan tashkil topgan. SHu sababli, elektr zanjirlar va ularni elementlari chuqur o'rganiladi.

Elektr toki deb - elektronlarning tartibli harakatiga aytiladi. Elektronlarni harakatga keltiruvchi fizik kattalikga **elektr energiya** deyiladi. Elektronlardan tashkil topgan elektr maydonning potentsiali esa **kuchlanish (elektr kuchi)** deb ataladi.

Elektr tok kuchi $I(t)=dQ/dt$


Agar zanjirdagi kuchlanish va tok kuchi o'zgarmas(konstanta) bo'lsa, u holda **o'zgarmas tok** deb yuritiladi. Aksincha, agar tok kuchi va kuchlanish vaqt birligida o'zgaruvchi bo'lsa va sinusoidal bo'yicha o'zgarsa **o'zgaruvchan tok** deb yuritiladi.

Elektr zanjirlarni tuzishda asosan ikki xil ulash usulidan foydalaniladi. **Parallel** va **ketma-ket** ulash usullari mavjud bo'lib, har xil elementlar uchun turlicha hisoblanadi. (2.1, 2.2-rasmlarga qarang)

Qarshiliklar uchun:

Ketma-ket ulash $R_{um}=R_1+R_2$

2.1- rasm.




2.2-rasm.

Parallel ulash $R_{um}=1/R_1+1/R_2$

2. Zevinin teoremasi - har qanday murakkablikdagi elektr zanjirni (passiv elementlardan tashkil topgan) bitta ekvivalent kuchlanish manbasiga va bitta yuklangan qarshilikga ketma-ket ulangan qarshilikdan iborat ekvivalent zanjirga almashtirsa bo'ladi.


Bunda, manbalar ketma - ket yoki parallel ulangan, qarshiliklar ham xuddi shunday tartibda ulangan bo'lishi mumkin.

Misol: zanjirning berilishi quyidagicha




2.3-rasm.

1 chi qadam, bitta yuklangan qarshilik tanlab uni elektr zanjirdan ajratishdan iborat bo'ladi.



2.4-rasm.


Keyingi qadam zanjirdagi ochiq qolgan qarshilik o'rnini sim bilan ulab, ushbu simga tushadigan va qarshiliklarga tushadigan kuchlanishni topamiz.



2.5-rasm.


E zevinin = 11.2 V

Zevinin qarshiligini topish uchun esa bu zanjirdan 1 chi va 3chi qarshiliklar, 2chi qarshilik zanjirdan uzulgan holatda p a r a l l e l bo'lishini tushunish etarlidir.



2.6-rasm.

CHunki, sim bilan ulangan holatda 1chi va 3chi qarshiliklar orasida tugun hosil bo'ladi. Zanjirning oxirgi holati quyidagicha namoyon bo'ladi.




2.7-rasm.

Demak, Zevinin ekvivalent zanjiri berilgan zanjirni soddalashtiribgina qolmasdan uni foydalanishga xam qulaylik yaratadi.

Norton teoremasi - har qanday murakkablikdagi elektr zanjirni (passiv elementlardan tashkil topgan) bitta ekvivalent tok manbasiga va bitta yuklangan qarshilikga parallel ulangan qarshilikdan iborat ekvivalent zanjirga almashtirsa bo'ladi.


Misol:



2.8-rasm.

Zanjir ko'rinishi quyidagicha bo'ladi.


Norton qarshiligi esa Zevinin qarshiligi bilan bir xil usulda topiladi.



2.9-rasm.

3. Zanjirlarning umumiy kuchlanishi yoki tok kuchini hisoblash uchun Om qonuni formulasi etarli emas, chunki bu murakkab zanjirlar aralash holda ulangan. Krigxovning qonunlari esa bu zanjirlarni hisoblashda muxim hisoblanadi. Zanjirning qanday murakkab bo'lishiga qaramasdan, zanjirda tranzistor, diod, operatsion kuchaytirgichlar va mikroprotsektorlar bo'lsa xam Krigxov qonunlari orqali hisoblasa bo'ladi. Quyida biz Krigxovning 2 ta qonunini o'rganamiz.

Krigxovning 1 chi qonuni - yopiq elektr zanjirdagi kuchlanishlarning algebrik yig'indisi 0 ga teng.




2.10-rasm. Kirgxfonning 1 chi qonuniga sxema

Krigxovning 2 chi qonuni - yopiq elektr zanjirdagi tok kuchlarning algebrik yig'indisi 0 ga teng.

$$\sum_{k=1}^n I_i = 0$$

$$i_1 + i_2 + i_3 + i_4 + i_5 + i_6$$



2.11-rasm. Krichkovning 2 chi qonuniga mos sxema.

Krichkovning 2 ta qonunida ham eng muhimi bu tok yo'nalishini topib olishdir. Agar tokning yo'nalishi ma'lum bo'lmasa, u holda zanjirning xisobi noto'g'ri chiqishi mumkin.

Xulosa: Talabalar elektr zanjirlarini sxemalarini taxlil qilishi, hisoblash usullarini, nazariy asoslarini bilib oladilar, tegishli malaka va ko'nikmaga ega bo'ladilar.


O'z-o'zini tekshirish uchun savollar:


1. Elektr zanjiri deganda nimani tushunasiz?
2. Elektr toki, kuchlanish, qarshilik tushunchalariga ta'rif bering.
3. Zevininni teoremasini tushuntirib bering.
4. Krichkovning birinchi teoremasini tushuntiring.
5. Krichkovning ikkinchi teoremasini tushuntiring.

3. Ishlab chiqarishda elektromexanika. Ishlab chiqarishda elektromexanika sohasidagi respublikamizdagi ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar natijalari, hududiy muammolar va fan, texnika va texnologiya yutuqlari.

Maqsad: Talabalarida murakkab mexatronik tizimlarda elektromexanika elementlarini qo'llash, ularni mazmuni, ishlash prinsiplari bo'yicha tegishli bilimlar o'rnatiladi, ularda yetarli malaka ko'nikmalarni shakllantirish asosiy maqsad hisoblanadi.

1. Har qanday metalda juda ko'p sonli elektronlar mavjud. Ular elektr toki bilan uyg'otilgan metal ichida tok tashuvchilarga ya'ni o'tkazgichlarga aylanadi. Elektronlari qattiq bog'langan materiallarga izolyatorlar deyiladi. Izolyator va metal hususiyatlariga ega bo'lgan materiallarga semikonduktorlar deyiladi. Diodlar aynan semikonduktorlardan tashkil topgan bo'ladi. **Diod** deb - elektr tokini bir tomonlama o'tkazib, kuchlanish tushishini oldini oluvchi aktiv elementga aytiladi. Diodlarning ishlash prinsipi ulardagi o'tkazgichlarga bog'langan ya'ni elektron va teshiklarning bir-biriga tortishishiga bog'langan.






3.1-rasm.

Diodning vazifasi – toklarni boshqarishda ularning bir tomonlama oqishini ta'minlash. Dioddan tok o'ta boshlagandan so'ng undagi teshiklar anod, elektronlar esa katod vazifasini bajara boshlaydi. Undan o'tayotgan tok quyidagi formula bo'yicha aniqlanadi;

$$I = I_0(e^{\frac{qV_D}{kT}} - 1)$$

Io-qaytma tok

2. Birinchi tranzistorlar 1947 yil Vilyam SHokley va Jon Barden lar tomonidan kashf qilingan bo'lib, 1948 yili rasman e'lon qilingan. **Tranzistor** deb - elektron va teshiklardan tashkil topgan, elektron-teshikli yoki teshik-elektronli tok o'tkazish prinsipiga asoslangan aktiv elementga aytiladi. Tranzistorlarning o'zi ham 3 ta komponentdan tashkil topgan. Bular baza, kollektor va emitter. 4-rasm




3.2-rasm.

Tranzistorning vazifasi - Bazaga kichkina tok berish orqali undagi elektronlar(teshiklar)ni uyg'otish va ular orqali kollektor va emitterdagi teshiklar(elektronlar)ni harakatini ya'ni ulardan oqib o'tayotgan tokni boshqarishdan iborat.



3.3-rasm.


3. Diodlar tarkibi va konduktorlariga qarab 2 turga bo'linadi ya'ni p-n va n-p. Diodning ikkita uchi anod va katod deb belgilanadi. Tok har doim katoddan anod tomon oqadi. Lekin ishlab chiqarilishi va qo'llanish sohalariga qarab bir nechta turlarga bo'linadi. YA'ni, katta kuchlanishlarga mo'ljallangan diod, kichkina signallar uchun diod, yorug'lik chiqaradigan diodlar va raqamli segmentlarga asoslangan diodlar.




3.4-rasm.

Amaliy tomondan quyidagilarni belgilash muximdir:

- 1) protobord yordamida qarshilik, diod va manbalarni ulab tranzistorga xamda qarshilikka tushadigan kuchlanishni aniqlash.



2) BC546, BC547 turdagi tranzistorlardan foydalangan xolda berilgan jadvalni to'ldiring.



3.6-rasm.

2.1. Har bir zanjirdagi kalit ochiq va yopiq xolati uchun qarshiliklarga tushadigan kuchlanishlar tester yordamida o'lchanadi va jadvalga yoziladi;

2.2. Om qonunidan foydalanib har bir zanjirdagi baza va kollektordan oqadigan tok kuchlarini aniqlang (I_b , I_c);

2.3. Zanjir yopiq bo'lgan xolat uchun tester yordamida U_{ce} ni aniqlang (eng yaxshi tranzistor uchun bu qiymat nolga yaqinlashishi kerak).

	Zanjir a)		Zanjir b)	
kalit	ochiq	yopiq	ochiq	yopiq
yoritkich(LED)				
U_{220} , V				
U_{10k} , V				
I_b , mA				
I_c , mA				
U_{ce} , V				

Xulosa: Talabalar elektr zanjirlarda himoya vazifasini o'tovchi diod va tranzistorlarni tuzilishi, ishlash prinsiplari, qo'llanilish sohalari bo'yicha tegishli bilim va malakalariga ega bo'ladilar.

O'z-o'zini tekshirish uchun savollar:

1. Diod va tranzistor qanday vazifani bajaradi?
2. Diod nima, misol keltiring.
3. Tranzistor nima, misol keltiring.
4. Diod va tranzistor qaerda ishlatiladi?
5. Qanday diod turlarini bilasiz.
6. Har bir zanjirdagi kalit ochiq va yopiq holati uchun qarshiliklarga tushadigan kuchlanishlar qaysi o'lchov asbobi yordamida o'lchanadi?
7. Zanjirdagi baza va kollektordan oqadigan tok kuchlari qaysi qonundan foydalanib topiladi?
8. Kalit ochiq paytida yoritgich yonadimi? Yopiq paytidachi? Nima uchun?

4. O'zgarmas tok ijro dvigatellari. O'zgarmas tok ijro dvigatellari. Konstruksiyasi va ishlash prinsipi. Afzallik va kamchiliklari. Ishlatilish sohalari.

Reja:


- 1.O'zgarmas tok mashinalari. Ularning turlari.
- 2.O'zgarmas tok mashinalarini ishga tushirish, reverslash, tozmozlash.
- 3.O'zgarmas tok mashinalari. Generator rejimda ishlashi

“Elektr mashinalari va elektromexanik tizimlar” fani – umum kasbiy fanlardan biridir. Ushbu fan texnologik jarayonlar va ishlab chiqarishning samaradorligini oshirish, mahsulot sifatini yuqori darajaga ko'tarish, xarajatlarni kamaytirish, mehnat sharoitlarini yaxshilash, ishlab chiqarishda xavfsizlik texnikasini ta'minlash, atrof-muhitni muhofaza qilish va boshqa dolzarb muammolarni hal qilishda muhim ahamiyatga ega bo'lib, talabalarga o'z ixtisoslarini nazariy jihatdan chuqur egallashlariga yordam beradi.

Texnologik jarayonlarni avtomatlashtirish - texnika taraqqiyotining asosiy yo'nalishlaridan biri bo'lib, ilmiy tadqiqotlarga tobora kengroq kirib borib, fan va texnikani rivojlantirish uchun yangi imkoniyatlar ochib beradi, shuningdek, inson boshqarishga qodir bo'lmagan yangi, yuqori intensiv jarayonlarni amalga oshirish, tabiatda malum bo'lmagan yangi, samarali materiallarni yaratish imkonini beradi. Bu fanning asoslarini o'zlashtirish hozirgi vaqtda turli sohalarda ishlayotgan mutaxassislarni samarali faoliyatlari uchun zamin bo'ladi.

Texnologik jarayonlarni avtomatlashtirish - uzluksiz rivojlanuvchi tizim bo'lib, u ishlab chiqarishning o'ziga xos xususiyatlari va fan-texnikaning ko'pchilik sohalari bilan uzviy bog'langandir. Ishlab chiqarishni avtomatlashtirishda yuqori samaradorlikka erishishning bevosita sharti - asosiy va yordamchi ishlab chiqarish jarayonlarini mexanizatsiyalash hisoblanadi. Avtomatlashtirishni rivojlantirish jarayoniga quyidagi ko'p sonli qonuniy va tasodifiy omillar ta'sir ko'rsatadi: texnologiya va qurilmaning holati hamda avtomatlashtirishga tayyorgarligi, xomashyo, yarimtayyor mahsulotlar va energetik resurslarning sifati hamda barqarorligi, xodimlarning malakasi, ishchi va mutaxassislar faoliyatini tashkil etish va hokazo.

O'zgarmas tok mashinalari generator va dvigatel` sifatida ishlatiladi. O'zgarmas tok mashinasi ham asoean qo'zg'almas qism — etztor va aylanuvchi qiemi yakor` (rotor) dan tuzilgan (14.1-rasm, *a*). Stator korpusi ichida ayon qutbli magpit (yoki o'zak) lar o'rnatiladi. Qutb o'zaklariga o'ralgan chulg'am q o' z g ' a t i s h ch V l-gami deyiladi. Qo'zg'atish chulg'ami mashinaning asosiy magnig maydonini hosil qilish va uni rostlyash uchun xizmat qiladi. Yakornmng po'lat o'zagi pazlarniga yakor` chulg'ami o'rnatiladi.



1-rasm. O'zgarmas tok dvigateli


Eng oddiy o'zg'armas tok generatorining tuzilishi 14.1-rasmda ko'rsatilgan. Unda magnit qutblari orasida joylashgai, erkin aylanadigan, po'lat silindrga bir o'ram mis' sim (yakor`) o'rnatilgan. Yakor` o'ramininguchlari ikkita yarim halqaga ulangan. Yarim halqalarda ikkita qo'zg'almas cho'tkalar (A va V) sir-panadi. Yarim halqalar o'ram simi bilan birga aylanadi. Ana shu yarim halqalar o'zgarmas tok mashinasining k o l l e k t o r i deyiladi. Real mashinalarda kollektor bir-biridan izolyaiiya-langan juda ko'p mis plastinkalardan iborat. Silindr aylzn-tirilsa, yakor` simlarida, zlektromagnit induksiyasi qonuni asosida, EYuK hosil bo'ladp. Bunda simlar ikki xil magnit qutblari tagidan o'tgani uchun, ularlagi EYuK

ning yo'nalishi o'zgaradi. Lekin cho'tkalarga ulangan tashqi zanjirdan o'zgaras tok o'tadi. A cho'gka musbat, V cho'tka manfiy qutbga ega bo'ladi. Yakor' 180° ga burilganda o'ram simlarida EYuK ning yo'nalishi o'zgaradi, lekin cho'tkalar qutbi, shuningdek, tashqi zanjirle tok yo'nalishi o'zgarmaydi. Chunki, uram simlarida EYuK ning yo'nalishi o'zgarganda cho'tkalar sirpanadigan yarim xizlqalar almashadi. Demak, kollektor o'zgaruvchan tokni (EYuK ni) uning yo'nalishini o'zgartirmasdan fakat qiymatini o'zgartiradigan tsikka aylantiruvchi mexanik to'g'rilzgich ekan.

Endi real o'zgaras tok mashinasining ishlashi bilan tani-shamiz. Mashina generator sifatida ishlashi uchun uning yakori qandaydir birlamchi dvigatel' yordamida aylanti-rilishi lozim. Yakor' simlari magnit maydonida aylanganda qiymati $e = VI$ bilan aniqlanadigan EYuK hosil bo'ladi.

Demak, yakor' chulg'ymida hosil bo'ladigan EYuK ning qiymati

O'ZGARMAS TOK DVIGATELI



1. Yakor
2. Qutb o'zagi
3. Qutb o'rami
4. Stator
5. Ventilyator
6. Shotka
7. Kollektor

2-rasm O'zgaras tok dvigateli umumiy tuzilishi.

qutb o'zagi bilan yakor' orasidagi havo oralig'idagi magnit induksiya qonuniyati bilan aniqlanar ekan. Mashina ishlaganda yakor' chulg'amida o'zgaruvchan EYuK hosil buladi. Sinusoida qonuni bo'yicha o'zgaradigan EYuK olish uchun havo oralig'ida magnit induksiya shu qonun bo'yicha tarqalishiga erishish lozim. Buning uchun magnit qutblari uchiga, ya'ni qutb boshmoqlariga ma'lum shakl beriladi: qutblar markazida havo oralig'i kichikroq, chegarlarida esa kattaroq bo'ladi. Umuman, magnit kuch chiziqlari qutb boshmoqlaridan chiqib yakor' sirtiga tik yo'naladi. Bunda magnit induksiya qutblar markazida $V = -V_g$ va chetida, ya'ni OO' neytral chiziqda $V = 0$ bo'ladi. Yakor' chulg'ami simlari qutblar markazida bo'l-ganda ularda EYuK maksimal qiymatga erishadi, neytral chiziq-da bo'lganda nolga teng bo'ladi.

Yakor' chulg'ami simlarida hosil bo'ladigan EYuK ning yo'nalishi sim qaysi qutb tagidan o'tayotganiga bog'liq. Bir xil magnit qutblari tagidan o'tayotgan chulg'am simlarida EYuK ning yo'nalishi bir xil bo'ladi. Ikki qutbli o'zgaras tok mashinasining elektromagnit sxemasi 14.2- rasm, da ko'rsatilgan.

Mashinada har bir magnit qutbi tagidan o'tayotgan simlar soni bir xilda qoladi. Yakor' chulg'amida hosil bo'ladigan EYuK sirpanadigan kontaktlar orqali tashqi zanjirga beriladi. Aylantiruvchi kollektor plastinkalari va qo'zg'almas cho'tkalar sirpanadigan kontakt hosil qiladi. Yakor' chulg'ami simmetrik va berk zanjirli qilib tayyorlanadi. Agar cho'tkalar geometrik neytralda o'rnatilsa (tashqi nagruzka ulanmaganda), ular orasida 0 kuchlanish hosil bo'ladi. Bu kuchlanish yakor' chulg'ami-ning har bir yarmida hosil bo'ladigan EYuK ga teng. Agar cho'tkalardan chiqarilgan simlarga (klemmalarga)


iste'molchi ulansa, yakor' chulg'amidan o'zgaras tok o'tadi, u yo'nalishi bo'yicha EYuK yo'nalishida bo'ladi. Yakor' chulg'amida bu tok chulg'amning parallel shoxobchalaridan ikkiga bo'linib (g_a toklari) o'tadi. Uzgarmas tok mashinasida kollektorning har bir qo'shni juft plastinkalariga yakor' chulg'amining bir bo'lagi (seksiyasi) ula-nadi. Chulg'am bo'lagi bir yoki bir necha o'ramdan iborat bo'lishi mumkin. Mashina generator sifatida ishlaganda kollektor va uning sirtida sirpanadigan cho'tkalar mexanik to'g'rilagich vazifasini o'taydi.

Mashina dvigatel' sifatida ishlaganda uning yakor' va qo'z-g'atish chulg'amlari o'zgaras tok manbaiga ulanadi. Qo'z-g'atish chulg'ami toki mashinaning asosiy magnit maydonini hosil qi-ladi. Yakor' chulg'ami tokining magnit maydonini asosiy magnit maydon bilan o'zaro ta'siri natijasida yakor' chulg'ami simla-riga elektromagnit kuchlar ta'sir etadi va bu kuchlar aylanti-ruvchi moment hosil qiladi. Shu asosda dvigatel' elektr ener-giyasini mexanik energiyaga aylantirib beradi. Bunda kollek-tor va cho'tkalar chastota o'zgartirgich sifatida ishlaydi va o'zgaras tok manbaini o'zgaruvchan tok hosil bo'ladigan yakor' chulg'ami bilan bog'laydi. Umuman, yakor' chulg'ami bilan tashqi zanjirni o'zaro bog'lovchi kollektor va cho'tkalarining bo'lishi o'zgaras tok mashinalariga tegishlidir.

O'zgaras tok mashinasining tuzilishi Stator. Mashinaning statori korpusdan (staninadan) (14.2-rasm) va uning ich tomoniga o'rnatilgan asosiy va qo'shimcha magnit qutblaridan tuzilgan. Magnit qutblarida qo'z-g'atish chul-g'amlari bo'ladi. Korpusning yon tomonlarida podshipnik shchit-lari mahkamlanadi. Mashina ishlaganda korpus materiali orqali magnit oqni o'tadp. Demak, korpus mashina magnit zanjirining bir qismi hisoblanadi. Shuning uchun ma-shina korpusi magnit kirituvchanligi katta bo'lgan maxsus po'-latdan tayyorlanadi. Kichik va o'rtacha quvvatli mashinalarda po'-latdan yaxlit qilib quyib, katga quvvatli mashinalarda bir necha bo'laklardan yng'ib tayyorlanadi. Mashinaning asosi stani-ia bilap yaxlit (quyma) holda tayyorlanadi yoki unga payvandla-naai. Staninaning ust tomonida ko'tarish uchun maxsus halqasi bo'ladi. Asosiy magnit qutblar. Asosiy magnitqutblarstani-na ichiga boltlar bilan mahkamlanadi. Qutblarning po'lat o'zagi(4) elektrotexnika po'lagidan maxsus shaklda shtamp lab (3) tayyorlapadi. Qutb boshmog'i magnit maydonining tekis tarqalishi uchupxizmat qiladi. Uyurma toklarni kamaytirish maqsadnld asosiy qutblarning pulat o'zagn 0,5—2 mm qalinlikdagi nlastinkalardan yig'iladi, so'ngra nresslab, shpil'kalar bilap tortib mahkamlanadi. Asosiy magnit qutblariga qo'z-g'atish chulgamlari (2) o'rnatiladi.

Q o ' s h i m c h a q u t b l a r . Qo'shimcha qutblar stator ichida asosiy qutblar orasiga o'rnatiladi. Ko'shimcha qutblar quvvati 1 kVt dan katta bo'lgan mashinalarda kommutasiyani yaxshilash, ya'ni cho'tkalardan uchqun chiqishini kamaytirish maqsadida o'rnatiladi. Qo'shimcha qutb po'lat o'zak 4 va chulg'am 2dan nbo-rat. Qo'shimcha qutblar chulgami yako.r' chulg'ami bilan ketma-ket ulanadi; shunpng uchun chulg'am simining ko'ndalang kesim yuzasi mashnnaning nomynal tokiga mo'ljallangan bo'ladi. Qo'shimcha qut.6 o'zagi ayrim yunqa plastinkalardan yig'ib yoki quyib yaxlit qilib tayyorlanadi. Qo'shimcha qutbde magiit induksiyasi kichkina bo'ladi, unda uyurma toklar deyarli hosil bo'lmaydi.

Shunday qilib, dvigatel' ishlaganda tarmoqdan elektr ener-giyasi olib uni mexanik energiyaga aylantirib beradi. Dvigatel' ishlaganda yakor' chulg'ami magnit maydonida aylanadi. Demak, yakor' chulg'amida yo'nalishi „o'ng qo'l" qoidasi bilan aniqlana-digan EYuK hosil bo'ladi. Bu EYuK o'zgaras tok generatorining yakori chulg'amida hosil bo'ladigan EYuK dan farq qilmaydi. O'z-garmas tok dvigatelida bu EYuK yakor' toki I_a ga teskari yo'-naladi va uni t e s k a r i EYuK deyiladi.



3-rasm Eng oddiy o'zgaras tok generatorining prinsipial sxemasi.

Bunda N va S qutblarning magnit maydonida silindr shaklidagi po'lat o'zakka o'rnatilgan bir o'ramdan iborat o'tkazgich soat milining yo'nalishiga teskari tomonga n chastota bilan aylantiriladi. O'tkazgichning uchlari valga o'rnatilib, izolyasiyalangan ikkita halkaga tutashtiriladi va demak, halkalar ham o'tkazgich

bilan bir xil chastotada aylanadi. Halqalar ustiga qo'zg'almas cho'tkalar o'rnatilgan bo'lib, ularga tashqi yuklama ulanadi. Bunday generatorning shimoliy qutbi ostidagi o'tkazgichda hosil bo'lgan e. yu. k. yo'nalishi b dan a ga, janubiydagisida d dan c tomon bo'ladi. Demak, e. yu. k. dan hosil bo'lgan tok ham, xalka $1'$ dan cho'tka 1 tomonga, tashqi yuklamada esa cho'tka 2 dan xalka $2'$ tomonga yo'nalgan bo'ladi.

Generatordan chikdan tokni tashqi zanjirga uzatuvchi chutka 1 ni musbat, tashqi zanjirdan utuvchan tokni generatorga qaytarib beruvchi chutka 2 ni manfiy potensialga ega deb qabul qilinadi va ularni tegishlicha (+) xamda (-) belgilar bilan ko'rsatiladi (14.3-rasm). Generator o'tkazgichi aylantirilib, 180° ga burilganda uning ab va cd tomonlari o'zaro o'rinlari bilan almashadi. Bunda musbat potentsialli chutka manfiy, manfiyligi esa musbatga aylanib, yuklamadan o'tayotgan tok o'z yo'nalishini o'zgartiradi.


Shunday qilib, $abcd$ o'tkazgich va tashqi yuklamadan iborat yopiq zanjirda o'zgaruvchan e. yu. k. va tok xosil bo'lib, o'tkazgichning bir marta to'da aylanishida ular o'z yo'nalishini ikki marta o'zgartiradi. O'zgaruvchan e. yu. k. va, demak, tokning o'zgarish egri chizig'i magnit kugblarining shakliga bogliq bo'ladi. Amalda, generator o'tkazgichlarida hosil qilingan e. yu. k. sinusoidaga yaqin shaklda bo'ladi. Buning uchun o'tkazgich o'rnatilgan po'lat silindr atrofidagi magnit kuch chiziqlari 14.3-rasmda ko'rsatilgandek taqsimlanishi lozim.

Haqiqatan, o'zgarmas chastota bilan aylantirilayotgan generatordagi e. yu. k. ning oniy qiymati $e = Blv$; $B = const$ bo'lgani uchun uning o'zgarish qonuni ham magnit induksiya V ning taqsimlanishiga bog'likdir.

Qutblarning o'rtasida magnit induksiyaning qiymati $B = B_{max}$ bo'lib, ikki qutb oralig'ining o'rtasida esa $V = 0$ bo'ladi (14.3-rasm).

Generatorda xosil bo'lgan o'zgaruvchan tokni o'zgarmas tokka aylantirish uchun kollektordan foydalaniladi.

Eng oddiy kollektor sifatida misdan yasalgan va bir-biridan izolyasiyalangan ikkita yarim xalkadan foydalanish mumkin. Demak, 14.1-rasmdagi o'tkazgich uchlarini ikkita halqa o'rniga ikkita yarim halqalarga ulansa, u holda eng oddiy o'zgarmas tok generatorining prinsipial sxemasi olinadi. Bunda ham yarim halqalar valga undan izolyasiyalangan holda o'rnatilib, ular val va demak, o'tkazgich bilan bir xil chastotada aylanadi.



4-rasm O'zgarmas tok generatori

Shunga kura, $abcd$ o'ramda ilgarigidek o'zgaruvchan e. yu. k. hosil qilinadi, ammo kollektor bo'lgani sababli cho'tkalar o'zgarmas potentsiallarga ega bo'lib qoladi.

Xaqiqatan, binoan chutka 7 yarim halqa T bilan kontakt hosil qilib musbat potensialga ega bo'lsa, o'tkazgich aynalanib 180° ga burilganida xam chutka 1 yarim xalka 2 bilan ula-nib, yana musbat potensialga ega bo'lib krladi.


Demak, $abcd$ o'ramda o'zgaruvchan e. yu. k. va tok hosil bo'lishiga qaramay, tashqi yuklamadan o'tadigan tok faqat bir xil yo'nalishda bo'lib, uning qiymati o'zgarib (pul'sasiyalanib) turadi (16.4-rasm, a). Tok pul'sasiyasini kamaytirish uchun generator chulg'aming o'ramlari sonini va, demak, kollektor plastinkalari (yarim halqalar) sonini ko'paytirish lozim.

14.4-rasmda ikki o'ramdan iborat o'tkazgich va to'rtta kollektor plastinkasi bo'lgan generatordan olingan tok grafigi ko'rsatilgan. Bunda tok pul'sasiyasi 16.4-rasm, a dagiga nisbatan keskin kamayadi.

Normal tipli o'zgarmas tok mashinalaridagi kollektor plas-tinkalarining soni $50 \dots 80$ ta bo'lib, ulardan olinadigan tokning qiymati deyarli o'zgarmas bo'ladi. Kuzatish sistemalarda hisoblash texnikasida va avtomatika qurilmalarida elektr signallarni mexanik harakatga aylantirishga xizmat qiladigan ikki_fazali

asinxron dvigatellar keng tarqalgan. Bunday ijrochi dvigatellar barcha ish rejimlarida boshqarish mumkinligi, mexanik va rostlash xarakteristikalarining chiziqli bo'lishi, shovqin chiqarmaslik, tez harakatlanuvchanlik kabi talablar qo'yiladi.

Kichik quvvatli ikki fazali asinxron dvigatellar (quvvati vattning bir necha ulushlaridan necha yuz vattgacha) stator ichki sirtining yarmini egallagan va o'zaro 90° burchakka siljigan ikkita chulg'amga ega bo'ladi. Chulg'amlardan biri doimo bir fazali tarmoqqa ulangan bo'lib, pul'sasiyalanuvchi magnit maydon hosil qiladi va **uyg'otish chulg'ami** deb ataladi. Boshqa chulg'amga esa boshqarish qurilmasidan boshqaruvchi signal berilib, aylantiruvchi maydon hosil qilinadi. Bu cho'lg'am **boshqarish cho'lg'ami** deyiladi. Boshqarish cho'lg'amidagi kuchlanishni uch xil amplitudali, fazali va amplituda fazali usulda o'zgartirish mumkin (15.1-rasm). Amplitudali boshqarishda uyg'otish kuchlanishi U_y o'zgartirilmaydi, boshqarish kuchlanishi U_b esa rostlanadi. Kuchlanishlar orasidagi faza siljishi esa 90° bo'lib qolaveradi. Ijrochi dvigatelning rejimlarini tadqiq qilishni osonlashtirish uchun boshqaruvchi signal ko'effisienta tushunchasini kiritamiz:



-rasm O'zgaras tok dvigateli tarmoqqa ulash sxemasi

amplitudali boshqarishda
$$K = \frac{U_b}{U_y} \quad (15.1)$$

fazali boshqarishda
$$K = \sin \beta \quad (15.2)$$

Signal ko'effisienta mashinaning magnit maydonini xarakterlaydi. Chunonchi, $K=0$ bo'lganda pul'sasiyalanuvchi maydon, $K<1$ bo'lganda ekliptik shaklda aylanuvchi, $K=1$ bo'lganda esa aylanma magnit maydoni hosil bo'ladi.

Yuqorida ko'rilgan kondensatorli bir fazali asinxron dvigatelni ijrochi dvigatel' sifatida ishlatish mumkin emas, chunki yurgizish cho'lg'amidagi boshqarish kuchlanishi uzilgandan keyin ham rotor pul'sasiyalanuvchi magnit maydoni tufayli aylanishini davom ettirishi mumkin, ya'ni dvigatel' o'z-o'zidan ishlashi mumkin. Natijada uni boshqarish mumkin bo'lmay qoladi. Binobarin, dvigatelni boshqarish imkoniyati bo'lishi va bir fazali rejimda qolish uchun $M_{tesk} > M_{to'g'}$ bo'lishi kerak. O'z-o'zidan ishlab ketish sharti

quyidagicha

$$M_{nat} = M_{to'g'} - M_{tesk} \quad (15.3)$$

Mexanik xarakteristikalari buyicha uz-uzidan ishlamaslik shartini xisobga olgan xolda quyidagicha yozish mumkin:

$$M_{to'g'}(S) \leq M_{tesk}(2-S) \quad (15.4)$$

Agar $S_{kr} > 1$ bo'lsa (4) shart bajariladi Ijrochi dvigatellarda $S_{kr} = 1,1 - 1,2$ bulganda uz-uzidan ishlashning oldini olish mumkin. Bunday shart rotor sterjenlarining aktiv qarshiligi katta bulgan qisqa tutashgan rotorli asinxron dvigatellarda bajarilishi mumkin. Bunday „olmaxon xalqali“ rotor eterjenlari solishtirma qarshiligi kagta bulgan metallar (jez, bronza) dan kundalangkesim yuzasi kichik qilib yasaladi

Rotor cho'lg'amining aktiv qarshiligi katta bulgan bir fazali asinxron dvigatelning mexanik xarakteristikasi 1-rasmda ko'rsatilgan. Sirpanish $0 < S < 1$ oraliqda o'zgarganda „teskari“ maydon momenti „to'g'ri“ maydon momentidan katta bo'ladi, natijada dvigatel' bir fazali ish rejimida tuxtay-di va uz-uzidan

ishlamaydi. Ikki fazali rejimda esa, bosh-karuvchi kuchlanish ta'sir etganda mashinada aylanma magnit maydoni xosil buladi va tormoz rejimida, ya'ni $Skr > 1$ bulganda mashina maksimal momentga erishadi. Bunday dvigatel' aylanish tezligining barcha oraligida barkaror ishlaydi, ammo rotorning massasi tufayli katta inersiya momenti yuzaga keladi va ijrochi dvigatelning tezkorligi kamayadi.

Rotori nomagnit yumshok. metall (alyuminiy qotishmasi) 1 dan kovak silindr shaklda yasalgan dvigatellar yaxshi xususiyatga buladi. Bunday dvigatelning statori ikki qismdan iborat buladi tashqi kismi pulatdan kovak silindr 2 shaklda, ichki kismi esa ogir pulatdan silindr 3 shaklda yasaladi. Statorning ikkala qismi ham permaloy yaproqchalarda» yig'ilgan bulib, stator cho'lg'ami tashqi yoki ichki uzakda, yoki xam tashqi, xam ichki uzakda joylashtiriladi. Kichik inersiyali nomagnit rotor 1 val 4 ga urnatilgan buladi. Stator cho'lg'amlaridan tok o'tganda aylanma magnit maydoni hosil bulib, rotorda EYuK induksiyalanadi. Bu EYuK rotorda aylanma magnit maydoni bilan uzaro ta'sirlashuvchi uyurma tok xosil qiladi Natijada aylantiruvchi aktiv qarshiligi ancha kupayadi. Ijrochi asinxron dvigatel' rotorining aylanish yunalishini uzgartirish (reverslash) uchun amplitudali boshqarishda signal fazasini 180° ga uzgartirish, fazali boshqarishda esa uygotish kuchlanishi U_y ning fazasidan boshqarish kuchlanishi U_b ning faza jixatdan ilgarilab ketishini ta'minlash kerak (agar reverslashdan oldin boshqarish kuchlanishi faza jihatdan U_u dan kechikkan bulsa).

Avtomatika kurilmalarida ikki fazali asinxron dvigatellardan aylanma xarakatdagi mexanik energiyani elektr energiyasiga aylantiruvchi asbob, ya'ni mexanizmlar ukining aylanish tezligini ulchash uchun ishlatiladigan taxogenerator sifatida foydalanish mumkin.

Taxogeneratorning xarakteristikasi chizikli bulib, undagi chikish kuchlanishi bilan aylanish tezligi orasidagi bolqlikni ifoda etadi, ya'ni

$$U = K * n \quad (15.5)$$

Asinxron taxogeneratorning tuzilishi kovak rotorli ijrochi dvigatelning tuzilishi bilan bir xildir. Statoridagi bitta cho'lg'am uyg'otish chulg'ami xisoblanib, manbaaga ulanadi. Ikkinchisi generator yoki chikish chulg'ami hisoblanib, nagruzkaga yoki indikatorga ulanadi. Chastotasi f bo'lgan tarmoq toki uygotish chulg'amidan oqib o'tib, pul'sasiyalanuvchi magnit maydonini hosil qiladi. Pul'sasiyalanuvchi maydonning o'qi uygotish cho'lg'aming o'qi bilan mos tushadi. Qo'zgalmas rotorda ushbu magnit maydoni transformator EYuK va toki deb ataluvchi e_t va i_t ni induksiylaydi. Rotorning aktiv qarshiligi katta bo'lgani tufayli faza jihatdan e_t bilan mos tushadi va rotorni magnitlovchi kuch F'_r transformatoridagi kabi pul'sasiyalanuvchi magnit oqimi yo'nalishi bo'yicha ta'sir etadi.

Uyg'otish cho'lg'amiga nisbatan 90° siljitib joylashtirilgan generator (chiqish) cho'lg'amida F_u oqimni EYuK induksiylamaydi va chiqish kuchlanishi nolga teng bo'ladi Rotor p tezlik bilan aylantirilganda unda transformator EYuK idan tashqari, aylanish EYuK e_v ham induksiylalanadi va aylanish toki i_v hosil bo'ladi.

Rotordagi toklar kundalang o'q bo'yicha yo'nalgan magnitlovchi kuch F''_p va oqim F_p hosil qiladi. Generator (chiqish) cho'lg'amida bu oqim EYuK induksiylaydi:

$$E_r = 4,44 f_1 \omega_r K_r \Phi_{rt} \quad (15.6)$$

bu erda w_r — generator cho'lg'amidagi o'ramlar soni, K_r — generator cho'lg'aming koeffisienti. (11.9) ifodadagi f_1 (generator cho'lg'aming EYuK chastotasn) rotorning aylanishi tezligiga bog'liq bo'lmaydi.

Chiqish kuchlanishining mexanizm (rotor) aylanish tezligiga bog'lik ifodasini yo'l ko'yilishi mumkin bo'lgan xatoliklar (magnit zanjirida to'yinish yo'qligi, havo bo'shlig'i magnit qarshiligining qiymati va h.) ni hisobga olgan holda keltirib chikarish mumkin:

$$U_{chiq} \approx E = C \Phi_{rt} = C_1 E_p'' = C_2 e_v = C_3 V_2 = K n \quad (15.7)$$

bu erda $V_2 = \frac{\pi D_2 n}{60}$ rotorning aylanish tezligi; $S_1, S_2, S_3 K$ — doimiy proporsionallik koeffisientlari.

Mavjud taxogeneratorlarda (15.7) ifoda ayrim xatoliklar tufayli nochiziqlidir.

Taxogeneratorlarga qo'yidagi talablar qo'yiladi:

— aylanish tezligi bilan chikish kuchlanishi urtasida anik

proporsionallikni ta'minlash;

- temperatura va namlik o'zgarganda dam ishlashining ishonchli bo'lishi;
- yuqori darajada tezkorlikni ta'minlash;
- tuzilishi sodda, og'irligi va o'lchamlari kichik bulishi.

Burilish transformatorlari rotorning burilish burchagi α ni kuchlanishga aylantirib beruvchi, quvvati bir necha vattdan iborat bo'lgan mikromashinalardir. Statik transformatorlarda ikkilamchi kuchlanish

amplitudasi qiymatini o'zgartirish uchun birlamchi kuchlanish amplitudasini o'zgartirish kerak bo'lsa, burilish transformatorlarida ikkilamchi kuchlanish amplitudasi rotorning burilish burchagiga proporsional bo'ladi. Buriluvchi transformatorlar avtomatik kuzatish sistemalarida, hisoblash qurilmalarida algebraik, geometrik va trigonometrik masalalarni echishda ishlatiladi.

Tuzilishi jihatdan buriluvchi transformatorlar kontakt halqalari asinxron mashinalarga o'xshaydi. Statori elektrotexnik po'lat yaproqchalardan kovak silindr shaklda yig'ilgan bo'lib, o'zaro perpendikulyar joylashtirilgan ikkita cho'lg'amga ega bo'ladi. Rotori ham elektrotexnik po'lat yaproqchalardan baraban shaklda yig'ilgan bo'lib, tashqi zanjir bilan kontakt halqalar va cho'tka yordamida ulangan ikkita cho'lg'amdan iborat.

Stator va rotor cho'lg'amlarining ulanish sxemalariga ko'ra, chiqish kuchlanishi rotor burilish burchagining sinusiga, kosinusiga yoki burilish burchagi α ga proporsional (chiziqli transformator) bo'ladi. Sinus-kosinusli buriluvchi transformatorning (SKBT) ishlash prinsipi bilan tanishib chiqamiz. Bunday transformatorning elektr sxemasi 4-rasmda kursatilgan. Statorning uyg'otish cho'lg'ami U ni o'zgaruvchan tok manbaiga ulasak, transformatorida pul'sasiyalanuvchi bo'ylama magnit oqimi F_b hosil bo'ladi. Bu oqim cho'lg'am s (sinusli) va s (kosinusli) larda EYuK ni induksiyalaydi:

$$\left. \begin{aligned} E_s &= KU_T \sin \alpha \\ E_s &= KU_T \cos \alpha \end{aligned} \right\} \quad (8)$$

bu erda $K = \frac{\varpi_p}{\varpi_{cm}}$ statoridan rotorga transformasiya koeffitsienti; ϖ_p va ϖ_{cm} — rotor va stator

cho'lg'amlarining o'ramlar soni; U_t — tarmoq kuchlanishi.

(8) ga asosan cho'lg'amlardagi I_c va I_s toklar xamda ZHS va ZHS nagruzka karshiliklardagi kuchlanishlar $\cos \alpha$ va $\sin \alpha$ ga proporsional buladi. Rotor toklari pul'sasiyalanuvchi MYuK F_s va F_c larni dosil qiladi. Bu MYuK larni tashkil etuvchilarga ajratish mumkin: F_{sy} va F_{sd} — buylama u k, buyicha va F_{cq} va F_{cq} — kundalang u k. buyicha. Buylama u k. buyicha pul'sasiyalanuvchi MYuK oddiy transformatoridagi kabi uyg'otish cho'lg'aming MYuK bilan muvozanatlashadi. Rotor MYuK ining kundalang tashkil etuvchisi esa muvozanatlashmaydi va rotor cho'lg'amlarida EYuK induksiya-lovchi pul'sasiyalanuvchi magnit osimi dosil kiladi. Natija-da $\sin \alpha$ va $\cos \alpha$ bilan chik.ish kuchlanishi orasidagi proporsional boglanish buziladi. Chikish kuchlanishi bilan burilish burchagi orasidagi muvofik. bogliklikni dosil kilish uchun rotor MYuK ining kundalang tashkil etuvchisini kompensasiya-lash kerak. Kompensasiyalashning ikki xil: birlamchi (stator tomonidan) va ikkilamchi (rotor tomonidan) usuli mavjud. Kompensasiyalashning birlamchi usulida stator cho'lg'ami k_{un} cha katta bulmagan ballast karshiligiga Z_6 ga tugridan-tugri ulanadi. Ikkilamchi kompensasiyalashda esa rotor cho'lg'amlari-ga bir xil nagruzka karshiligi ulanadi Z_{as} — ZHC. Bunda rotorning kundalang magnit okimi nolga teng bulib, xatolik bulmaydi. Odatda, kompensasiyalashning ikkala usuli dan qo'llaniladi, chunki ish vaktida nagruzka qarshiligining tengligini ta'minlash kiyin buladi. SKBT dan farqli ularoq, chiziqli buriluvchi transformator (ChBT) larda chiqish kuchlanishi rotorning burilish burchagi α bilan chiziqli bog'langan $s/ChI1(=/(a)$. ChBT ni dosil kilish uchun mashina cho'lg'amlari birlamchi kompensasiyalash sxemasi buyicha yoki ikkilamchi kompensasiyalash sxemasi buyicha taqsimlanadi.

Agar $K = \omega/\omega_{st} = 0,52/0,56$ va $\alpha = \pm 55^\circ$ bulsa, chiqish quchlanishi burilish burchagiga proporsional bo'ladi ($U = KU - a$).

Yuqori aniqlikdagi proporsionallik $\alpha = +30^\circ$ da ta'minlanadi.

5 ma'ruza. O'zgarmas tok dvigatelini boshqarish. O'zgarmas tok dvigatelini boshqarishda ishlatiladigan element va qurilmalar. Boshqarish diagrammalari. Tezlikni boshqarish


Elektr mashinasining ishlashi uchun zarur bo'lgan magnit maydon hosil qilish usuliga ko'ra o'zgarmas tok mashinalari elektromagnit va doimiy magnit bilan qo'zg'atiluvchi mashinalarga bo'linadi. Doimiy magnit bilan qo'zg'atiluvchi mashinalar magnito-elektr mashina deb ham ataladi. Bunday mashinalar juda kam uchraydi, ular asosan taxogenerator va shu singari maxsus mashinalar sifatidagina ishlatiladi.

Elektromagnit bilan qo'zg'atiluvchi mashinalar qo'zg'atuvchi chul-g'aming ulanish sxemasiga ko'ra mustaqil va o'z-o'zidan qo'zg'atishli o'zgarmas tok generatorlariga bo'linadi. Agar generatorning qo'zg'atuvchi chulg'ami tashqi tok manбайдan ta'minlansa mustaqil, o'z yakoridan ta'minlanganda esa o'z-o'zidan qo'zg'atishli generator olinadi. O'z-o'zidan qo'zg'atishli generatorlar o'z navbatida parallel

(shunt), ketma-ket (series) va aralash (kompaund) qo'zg'atishli generatorlarga bo'linadi. Parallel qo'zg'atishli generatorlarda qo'zg'atuvchi chulg'am yakor' chulg'amiga parallel ulansa, ketma-ketlikda ketma-ket ulanadi, aralashlikda esa qo'zg'atuvchi chulg'am ikkita bo'lib, ularning biri yakor' chulg'amiga parallel, ikkinchisi ketma-ket ulanadi. 16.1-rasmda: *a* — mustakil; *b* — parallel; *v* — ketma-ket; *g* — aralash va *d* — o'zgarmas magnit bilan qo'zg'atishli generatorlar ulanishining prinsipial sxemalari ko'rsatilgan. 16.1-rasm, *d* dagi generator sxemasida qo'zg'atuvchi chulg'am bo'lmaganligi sababli uning o'rnida o'zgarmas magnit belgisi ko'rsatilgan.

Generatorning ishlash jarayonda uning yakor' chulg'amida $E_{ya} = k_F pF$ ga teng bo'lgan e. yu. k. xosil bo'ladi. E. yu. k. xosil bo'lgan yakor' chulg'amiga yuklama sifatida biror elektr iste'molchisi ulansa, u holda yakor' zanjiridan yuklama toki I_{ya} o'tadi.

Bunda yakor' zanjiri uchun e. yu. k. larning quyidagi muvozanat tenglamasini tuzish mumkin:



1-rasm O'zgarmas tok gineratori

$$E_{\pi} = I_{\pi} R_{\pi} + I_{\pi} \Sigma R = U + I_{\pi} \Sigma R, \quad (17.1)$$

bunda $U = I_{\pi} R_{\pi}$ — generator qismalaridagi kuchlanish (yuklama kuchlanishning tushuvi); R_{π} — yuklama qarshiligi; $I_{\pi} \Sigma R = I_{\pi} (R_{\pi} + R_k + R_k + R_c + R_q)$ — tegishli yakor', qo'shimcha qutb, kompensasiyalovchi va ketma-ket chulg'am xamda chutka qarshiliklarida kuchlanishning tushuvi.

Agar yakor' chulg'amiga yuklama ulanmasa, u holda $i_{ya} = 0$ bo'ladi. Generatorning yuklamasiz, ya'ni $I_{ya} = 0$ bilan ishlash rejimi salt ish rejimi deb ataladi. Demak, salt ish rejimida generator kuchlanishi uning yakorida xosil bo'lgan e. yu. k. ga teng, ya'ni $U = E_{ya}$ bo'ladi. Yuklama berilishi bilan generator kuchlanishi yakordagi e. yu. k. ga nisbatan $I_{ya} \Sigma R$ xisobiga kam, ya'ni

$$U = E_{\pi} - I_{\pi} \Sigma R$$

bo'ladi. Generatorni ishlatish uchun, dastavval, uning yakorini birlamchi motor bilan kerakli chastotada aylantirish zarur. Bunda generator valiga ta'sir etuvchi momentlarning muvozanat tenglamasi quyidagicha ifodalanadi:

$$M_1 = M_0 + M_{\pi}, \quad (17.2)$$

bunda M_1 — birlamchi motorning aylantiruvchi momenti;

M_0 — salt ish momenti (yuklamasiz ishlayotgan generator yakorini aylantirishda mexanik ishdanlanishlarga sarflanadigan moment); M_{π} — elektromagnit moment (yuklama bilan ishlayotgan generatorda xosil bo'luvchi moment).

Generator elektromagnit momentining ifodasi quyidagicha aniqlanadi. Yuklama bilan ishlayotgan generator chulg'amining har bir parallel shoxobchasidan $i_y = \frac{I_y}{2a}$ ga teng bo'lgan tok

o'tadi. Yakorning bu tokli utkazgichlariga asosiy kugbdagi magnit o'qim ta'sir etishi natijasida elektromagnit kuch R_{ei} xosil buladi. 17.2-rasmda yakorning har bir tokli o'tkazgichiga ta'sir etuvchi elektromagnit kuch ko'rsatilgan.

Bu kuchning kiymati $F_{\pi} = B_{yp} i_{\pi} l$ bo'lib, uning yunalishi chap qo'l koidasiga binoan aniqlanadi.

Demak, yakor' o'tkazgichlariga ta'sir etuvchi elektromagnit moment ifodasini quyidagicha yozish mumkin:

$$M_{\text{эм}} = F_{\text{эм}} \frac{D}{2} N = B_{\text{yp}} i_{\text{я}} l \frac{D}{2} N.$$

Bu tenglamada $i_{\text{я}} = \frac{I_{\text{я}}}{2a}$, $D = \frac{2p\tau}{\pi}$ va $B_{\text{yp}} l \tau = \Phi$ bo'lgani uchun u quyidagicha ifodalanadi:

$$M_{\text{эм}} = \frac{pT}{2\pi a} \Phi l_{\text{я}} = k_{\text{м}} \Phi l_{\text{я}}, \quad H_{\text{м}}, \quad (17.3)$$

bunda $k_{\text{м}} = \frac{pN}{2\pi a} = \text{const}$ — moment doimiysi deb ataluvchi va mashina parametrlari bilan aniqlanuvchi o'zgarmas koeffitsient. Generatoridagi elektromagnit momentning qiymati qutblardagi magnit, oqim F bilan yakor toki $I_{\text{я}}$ ga proporsional bo'lib, uning yunalishi birlamchi motorning aylantiruvchi momentiga teskari bo'ladi (17.2-rasm). Shuning uchun generatorda xrsil buladigan elektromagnit moment *tormoz momenti* deb xam ataladi.

Generatorning uzoq davr ichida normal ishlashini ta'minlaydigan rejimi uning nominal rejimi deb ataladi. Bu rejim quyidagi miqdorlar bilan xarakterlanadi:

R_N , U_H , I_H va p_H — tegishli nominal quvvat, kuchlanish, tok va aylanish chastotasi. Bu nominal miqdorlar generatorning pasportida (shchitida) keltiriladi.

Elektr mashinalarning xususiyatlari grafik usul bilan ifodalangan, xarakteristika deb ataluvchi bog'lanishlar bilan aniqlanadi. Generatorning asosiy xarakteristikalar quyidagilardan iborat bo'lib, ular o'zgarmas chastota, ya'ni $n = \text{const}$ da olinishi kerak.

1) Salt ish xarakteristikasi. Generator kuchlanishi U_0 ning uning qo'zg'atuvchi chulg'amdagi qo'zg'atish toki I_Q ga bog'lanishini ifodalovchi egri chiziq, ya'ni $U_0 = f(I_Q)$ salt ish xarakteristikasi deb ataladi. Bunda $I_{\text{я}} = 0$ va $n = \text{const}$ bo'lishi kerak.

2) Yuklama xarakteristikasi. Generatorning yuklama bilan ishlayotgan rejimidagi $U = f(I_{\text{я}})$ uning yuklama xarakteristikasi deb ataladi. Bunda yakor tokining kiymati uzgarmas, ya'ni $I_{\text{я}} = I_H = \text{const}$ qilib saqlanishi va $n = \text{const}$ bo'lishi kerak.

3) Tashqi xarakteristika. Yuklama bilan ishlayotgan generator kuchlanishining yakor tokiga bog'lanishini ifodalovchi egri chiziq, ya'ni $U = f(I_{\text{я}})$ generatorning tashqi xarakteristikasi deb ataladi. Bunda $R_p = \text{const}$ qo'zg'atish tokini rostlab turish uchun kiritilgan rezistor qarshiligi va $n = \text{const}$ qilib saqlanishi kerak.


4) Rostlash xarakteristikasi. Yuklama bilan ishlayotgan generatoridagi $i_{\text{к}} = f(I_{\text{я}})$ bog'lanish rostlash xarakteristikasi deb ataladi. Bunda yuklama toki $I_{\text{я}}$ ning o'zgarishiga qaramay, generator kuchlanishi o'zgarmas, ya'ni $U = U_H = \text{const}$ va $n = \text{const}$ bo'lib qolishi kerak. eng oddiy o'zgarmas tok generatorining prinsipial sxemasi ko'rsatilgan.

Bunda N va S qutblarning magnit maydonida silindr shaklidagi po'lat o'zakka o'rnatilgan bir o'ramdan iborat o'tkazgich soat milining yo'nalishiga teskari tomonga n chastota bilan aylantiriladi. O'tkazgichning uchlari valga o'rnatilib, izolyasiyalangan ikkita halkaga tutashtiriladi va demak, halkalar ham o'tkazgich bilan bir xil chastotada aylanadi. Halqalar ustiga qo'zg'almas cho'tkalar o'rnatilgan bo'lib, ularga tashqi yuklama ulanadi. Bunday generatorning shimoliy qutbi ostidagi o'tkazgichda hosil bo'lgan e. yu. k. yo'nalishi b dan a ga, janubiydagisida d dan c tomon bo'ladi. Demak, e. yu. k. dan hosil bo'lgan tok ham, xalka l' dan cho'tka l tomonga, tashqi yuklamada esa cho'tka 2 dan xalka $2'$ tomonga yo'nalgan bo'ladi.

Generatoridan chikdan tokni tashki zanjirga uzatuvchi chutka 1 ni musbat, tashki zanjirdan utuvchan tokni generatorga qaytarib beruvchi chutka 2 ni manfiy potensialga ega deb qabul qilinadi va ularni tegishli (+) xamda (-) belgilar bilan ko'rsatiladi (16.3-rasm). Generator o'tkazgichi aylantirilib, 180° ga burilganda uning ab va cd tomonlari o'zaro o'rinlari bilan almashadi. Bunda musbat potentsialli chutka manfiy, manfiyligi esa musbatga aylanib, yuklamadan o'tayotgan tok o'z yo'nalishini o'zgartiradi.

Shunday qilib, abcd o'tkazgich va tashqi yuklamadan iborat yopiq zanjirda o'zgaruvchan e. yu. k. va tok xosil bo'lib, o'tkazgichning bir marta to'da aylanishida ular o'z yo'nalishini ikki marta o'zgartiradi. O'zgaruvchan e. yu. k. va, demak, tokning o'zgarish egri chizig'i magnit kugblarining shakliga bogliq bo'ladi. Amalda, generator o'tkazgichlarida hosil qilingan e. yu. k. sinusoidaga yaqin shaklda bo'ladi.

Buning uchun o'tkazgich o'rnatilgan po'lat silindr atrofidagi magnit kuch chiziqlari 16.2-rasmda ko'rsatilgandek taqsimlanishi lozim.



2-rasm. O'zgaras tok gineratorining qutblari

Haqiqatan, o'zgaras chastota bilan aylantirilayotgan generatoridagi e. yu. k. ning oniy qiymati $e = Blv$; $B = const$ bo'lgani uchun uning o'zgarish qonuni ham magnit induksiya V ning taqsimlanishiga bog'likdir.

Qutblarning o'rtasida magnit induksiyaning qiymati $B = B_{max}$ bo'lib, ikki qutb oralig'ining o'rtasida esa $V = 0$ bo'ladi (16.2-rasm).


Generatorida xosil bo'lgan o'zgaruvchan tokni o'zgaras tokka aylantirish uchun kollektordan foydalaniladi.

Eng oddiy kollektor sifatida misdan yasalgan va bir-biridan izolyasiyalangan ikkita yarim xalkadan foydalanish mumkin. Demak, 16.1-rasmdagi o'tkazgich uchlarini ikkita halqa o'rniga ikkita yarim halqalarga ulansa, u holda eng oddiy o'zgaras tok generatorining prinsipial sxemasi oli-nadi. Bunda ham yarim halqalar valga undan izolyasiyalangan holda o'rnatilib, ular val va demak, o'tkazgich bilan bir xil chastotada aylanadi.

Shunga kura, $abcd$ o'ramda ilgariidek o'zgaruvchan e. yu. k. hosil qilinadi, ammo kollektor bo'lgani sababli cho'tkalar o'zgaras potentsiallarga ega bo'lib qoladi.

Xaqiqatan, binoan chutka 7 yarim halqa T bilan kontakt hosil qilib musbat potentsialga ega bo'lsa, o'tkazgich aynalanib 180° ga burilganida xam chutka 1 yarim xdlka 2 bilan ula-nib, yana musbat potentsialga ega bo'lib krladi.

Demak, $abcd$ o'ramda o'zgaruvchan e. yu. k. va tok hosil bo'lishiga qaramay, tashqi yuklamadan o'tadigan tok faqat bir xil yo'nalishda bo'lib, uning qiymati o'zgarib (pul'sasiyalanib) turadi (16.3-rasm). Tok pul'sasiyasini kamaytirish uchun generator chulg'aming o'ramlari sonini va, demak, kollektor plastinkalari (yarim halqalar) sonini ko'paytirish lozim.



3-rasm. Gineratorning ishlash prinsipi

Normal tipli o'zgarmas tok mashinalaridagi kollektor plas-tinkalarining soni 50...80 ta bo'lib, ulardan olinadigan tokning qiymati deyarli o'zgarmas bo'ladi.

O'zgarmas tok mashinasi asosan ikki qismdan iborat bo'lib, uning magnit oqim hosil qiluvchi birinchi qismi induktor, e. yu. k. hosil qiluvchi ikkinchi qismi esa yakor` deb ataladi.

6 ma'ruza. O'zgarmas tok dvigatelini mexanik xarakteristikasi. Kontaktsiz o'zgarmas tok dvigateli. Sxemasi va ishlash prinsipi.

Dvigatellar asosan nominal magnit oqimida ishlaydi, ya'ni mashina to'yinishga yaqin bo'lib, uning magnit oqimini oshirib bo'lmaydi. Chunki bunda qo'zg'atish chulg'amida kuchlanish ortishi va u qizishi mumkin. Dvigatel magnit oqimini faqat kamayish tomonga o'zgartirish mumkin.

Dvigatelning rostdash imkoniyatlaridan to'liq foydalanish maqsadida ko'pincha magnit oqimi kamaytiriladi.

Magnit oqimi nominal qiymatidan farqli bo'lgan F_x uchun $U = U_{nom} = \text{const}$ holatda dvigatelning mexanik tavsiflarining tenglamasi quyidagi ko'rinishga ega bo'ladi:

$$\omega = \frac{U}{C_E F_X} - \frac{R}{C_E C_M F_X^2} M = \omega_{ox} - \beta_x M. \quad ()$$

Bu tenglamadan ko'rinib turibdiki, maydonning har bir $F_x < F_{nom}$ qiymatiga ideal salt yurish tezligi mos keladi va mexanik tavsiflarning qiyalik koeffitsiyent larining β_x qiymati to'g'ri keladi. Bunda β_x kamayishi bilan ω_{ox} va β_x ning qiymatlari ortadi.

Oqimning F_{nom} qiymatida tabiiy mexanik tavsifdagi tezlikning og'ishi:

$$\Delta\omega_q = \omega_o - \omega = \beta_q M_q = \frac{C_E R_{ya} \omega_{ox}^2}{C_M U^2} M_q ()$$

Oqim F_x bo'lgandagi sun'iy tavsif uchun

$$\Delta\omega_x = \omega_{ox} - \omega_x = \beta_x M_q = \frac{C_E R_{ya} \omega_{ox}^2}{C_M U^2} M_q. \quad ()$$

bo'ladi, bundan:

$$\Delta\omega_x = \Delta\omega_q = \left(\frac{\omega_{ox}}{\omega_q} \right)^2 ()$$

Shunday qilib, oqim kamaytirilganda tezlikning tushishi ideal salt yurish tezliklari nisbatining kvadratiga mutanosib ravishda ortar ekan.

Endi dvigatelning elektromexanik va mexanik tavsiflarini oqimning turli qiymatlarida ko'rib chiqamiz.

Agarda $F_1 = F_{nom}$ bo'lsa yakor toki va momenti uchun mos masshtablar tanlanadi. Bu holda elektromexanik va mexanik tavsiflar ustma-ust tushadi (-rasmidagi 1 to'g'ri chiziq). Yakordagi tok $I_{q,t}$

tezlik $\omega = 0$ bo'lganda $I_{q.t} = UR^{-1}$ bo'lganligi uchun, qiymati magnit oqimi qiymatiga bog'liq emas. Bundan kelib chiqadiki, magnit oqimlar $F_2 < F_1$ $F_3 < F_2$ bo'lganida dvigatelning elektromexanik tavsiflari 2, 3 punktir chiziqlarda tasvirlanganidek bo'ladi hamda ularga mos keladigan mexanik tavsiflar 2 va 3 chiziqlar ko'rinishida bo'ladi. Bu yerda quyidagini e'tirof etish mumkin:


$$M_{q.t.2} = C_M F_2 I_{q.t.2} = C_M \frac{F_2}{F_{nom}} F_{nom} I_{q.t} = \varphi_2 M_{q.t.1}$$

shunga o'xshash


$$M_{q.t.3} = \varphi_3 M_{q.t.1}$$

bu yerda: φ_2 va φ_3 - kamaytirilgan magnit oqimlarining nisbiy qiymatlari.

Har qanday ikkita mexanik tavsif kesishish nuqtasiga ega. Kesishish nuqtasining chap tomonida joylashgan statik moment qiymatlarida (masalan, M_1) magnit maydonining kamayish, dvigatel tezligining ortishiga olib keladi (mexanik tavsifdagi A , B va C nuqtalar). Agar yuklama momentining qiymati kesishish nuqtasining o'ng tomonida joylashgan boisa, u holda magnit oqimining kamayishi dvigatel tezligining pasayishiga olib keladi (a , b va c nuqtalar). (2.45) tenglamaga muvofiq mashina magnit oqimining kamayishi ideal salt yurish tezligini ko'paytiribgina qolmay, balki yakor tokining ortishi hisobiga momentning bir xil qiymatida tezlikning statik tushishiga olib keladi.



-rasm. Mustaqil qo'zg'atishli dvigatelning magnit oqimini kamaytirilgan holatidagi mexanik va elektromexanik tavsiflari.



1 -rasm. Mustaqil qo'zg'atishli dvigatelning magnit oqimi pasaytirilgandagi mexanik tavsiflari.

Normal dvigatellar uchun mexanik tavsiflarning bir-biri bilan kesishish nuqtasi odatda, katta toklarda amalga oshadi. Lekin ko'pgina zamonaviy mashinalarda tok bo'yicha o'ta yuklanish oshirilgan. Zamonaviy mashinalar uchun magnit oqimining pasayishidagi tezlik bo'yicha rostdash turlicha bo'ladi. Masalan, 2P rusumidagi mashinalar uchun u (1,5-3,0) ω_{nom} ni tashkil etadi. Shu bilan birga oqim bo'yicha keng rostdash diapazoniga ega bo'lgan maxsus mashinalar ishlab chiqarilgan bo'lib, ular tezlikni (5-10) ω_{nom} gacha oshirishi mumkin. Masalan, ДППД rusumli mashina (5-50) kW quvvat diapazonida 500 ayl/min nominal tezlik

bilan aylansa, oqimni pasaytirib uning tezligini 5000 ayl/min gacha ko'tarish mumkin.

Magnit oqimini kamaytirib olingan mexanik tavsiflar to'plami 2.15-rasmda keltirilgan. Bundan ko'rinib turibdiki, magnit oqimi kamaytirilganda bir tavsifdan ikkinchi tavsifga o'tish dvigatelni generator rejimiga o'tkazib energiyani tarmoqqa qaytarish bilan olib boriladi (*eDS* va *CBA* siniq chiziqlar).

Savol va topshiriqlar

1. Elektr dvigatelning mexanik tavsifi deganda nimani tushunasiz?
2. Mexanik tavsif turi qanday tanlanadi?
3. Nisbiy birlik nima va u qanday aniqlanadi? Kuchlanish, tok va qarshiliklarni nisbiy birliklarda ifodalang.
4. Moment va tezlikning nisbiy birliklarini aniqlang.
5. Yakor zanjiri EYK muvozanat tenglamasini keltiring.
6. Dvigatel mexanik tavsifi tenglamasi qanday ko'rinishga ega va u nimalarga bog'liq?
7. Dvigatel elektromexanik tavsifining tenglamasi qanday ko'rinishga ega?
8. Dvigatelning tabiiy tavsifi deganda nimani tushunasiz?
9. Dvigatelning sun'iy tavsiflari qanday olinadi?
10. 0 'zgarma tok dvigateli qanday qilib ishga tushiriladi?
11. Nima uchun o'zgarma tok dvigateli to'g'ridan-to'g'ri o'zgarma tok tarmog'iga ulab ishga tushirish mumkin emas?
12. Dvigatelni dinamik tormozlash qanday amalga oshiriladi?
13. Teskari ulab tormozlash sxemasini chizib ko'rsating.
14. Reaktiv qarshilik momentida teskari ulab tormozlash qanday amalga oshiriladi?

7 ma'ruza. Asinxron ijro dvigatellari ularning konstruksiyalari va ishlash prinsipi. Ulash sxemalari va boshqarish usullari. Asinxron ijro dvigateli xarakteristikalari.

Asinxron dvigatel' asosan ikki qismdan: ko'zg'almas qism - s t a t o r va aylanuvchi qism rotor dan iborat. Stator dvigatel' korpusi 1, asos 4, korpus ichiga o'rnatilgan ferromagnit o'zak 2 va shu o'zak pazlariga joylashtiriladigan uchta cho'lg'am 3 dan tashkil topgan. Dvigatelning qo'zg'almas qismida


podshipniklar o'rnatiladigan va ikki tomondan statorga maxkamlanadigan yon shchitlar ham bo'ladi. Stator ichiga o'rnatiladigan ferromagnit o'zak, uyurma toklarni kamaytirish maqsadida, qalinligi 0,35 . . . 0,5 mm li va maxsus elektrotexnika po'latidan (po'lat markasi: 2013, 2312, 2411 va hokazo) tayyorlangan yupqa plastinkalardan yig'iladi. Stator po'lat o'zagining plastinkalari ma'lum shaklda (pazli) shtamplab tayyorlanadi. Stator po'lat o'zagining ayrim plastinkalari esa katta quvvatli mashinalar statori o'zagining ayrim segmentlari ko'rsatilgan. Plastinkalarning ikki tomoniga izolyasiyalovchi maxsus lok surtiladi. Plastinkalar ma'lum tartibda yig'iladi. Bunda statorning ichki sirtida valga parallel bo'lgan pazlar hosil bo'ladi. Bu pazlarga stator cho'lg'amlari joylashtiriladi.

O'zgaruvchan tok mashinalarining stator cho'lg'amlari, ularni xisoblash va o'rash usullari bilan oldingi bo'limda tanishdik. Stator pazlariga uchta stator cho'lg'ami joylashtiriladi. Cho'lg'amlarning bosh va oxirgi uchlari mashina korpusining yon yoki ust tomoniga o'rnatilgan klemmlar qutisiga chiqariladi. Stator chulg'amlarining bosh uchlari S1, S2, SZ bilan va oxirgi uchlari S4, S5, S6 bilan belgilanadi. Stator cho'lg'amlari yulduz yoki uchburchak usulida ulanadi. Chulg'amlarni bunday usullarda ulash ushbu dvigatelni kiymati buyicha $\sqrt{3}$ marta farq qiladigan ikki xil kuchlanishda (380/220 V yoki 220/127 V) ishlatishga imkon beradi. Ko'pincha asinxron dvigatel' 380/220 V kuchlanishga mo'ljallab tayyorlanadi. Agar tarmoq kuchlanishi 380 V bo'lsa, stator cho'lg'amlari yulduz usulida, tarmoq kuchlanishi 220 V bo'lsa, cho'lg'amlar uchburchak usulida ulanadi. Ishlatish davomida stator cho'lg'amlarini turli usulda ulashni osonlashtirish maqsadida klemmlar qutisida ayrim cho'lg'amlarning bosh va oxirgi uchlari ma'lum tartibda o'rnatiladi. 3-rasmda klemmalarni o'rnatish tartibi va cho'lg'amlarning ulanishi ko'rsatilgan. Agar tarmoq kuchlanishi dvigatel' pasportida ko'rsatilgan kuchlanishga mos kelmasa, bunday dvigatelni shu tarmoqqa ulab ishlatish mumkin emas.



1-rasm. Asinxron dvigatelning umumiy tuzilishi

Asinxron dvigatelning rotori uning statori ichiga o'rnatiladi. Rotor asosan val, ferromagnit o'zak va uning pazlariga joylashtirilgan qisqa tutashgan simlardan yoki uchta cho'lg'amdan iborat bo'ladi.




2-rasm. Asinxron dvigatelning rotorini tuzilishi

Rotorning ferromagnit o'zagi ham maxsus elektrotexnika po'latidan tayyorlangan yupqa plastinkalardan yig'iladi. Rotor o'zagining plastinkalari ham ma'lum shaklda shtamplab tayyorlanadi. Rotor cho'lg'ami ham pulat o'zak pazlariga o'rnatiladi. Rotor o'zagining ayrim plastinkasi 7.2-rasmda va undagi pazlarning shakli ko'rsatilgan. Pazlar ochik, yarim ochiq yoki yopiq qilib tayyorlanadi. Plastinkalar rotor valiga kiydirilganda rotorda uzunasiga pazlar hosil bo'ladi. Asinxron dvigatellar rotor tuzilishi ikki xil:

- a) qisqa tutashtirilgan rotorli asinxron dvigatel`;
- b) faza rotorli asinxron dvigatel`.

a) Qisqa tutashtirilgan rotorli asinxron dvigatellar rotorining ferromagnit o'zagi pazlariga izolyasiyasi bo'lmagan mis yoki alyuminiy simlar yoxud sterjenlar joylashtiriladi. Bu sterjenlarning uchlari ikki tomondan mis yoki alyuminiy halqalarga kavsharlanadi. Agar rotor pazlaridagi sterjenlarni va sterjen` uchlarni birlashtiruvchi xalqalarni rotordan chiqarib olinsa, katakli halqa xosil bo'ladi. Katakli halqaning sterjenlari rotorning qisqa tutashtirilgan cho'lg'ami, bunday rotor esa qisqa tutashtirilgan rotor deyiladi qisqa tutashtirilgan rotor o'zagining pazlari ovalsimon 7.3-rasm.



3-rasm. Qisqa tutashtirilgan rotor

Olmaxon dalqasi (a), qisqa tutashgan bo'lib, unga ko'pincha kitirilgan rotor eritilgan alyuminiy ko'yiladi va yaxlit „olmaxon xalsasi" xosil qilinadi. Rotor tanasining ikki yon tomonidan sovutuvchi qanotlar ham chiqariladi (5-rasm). Katakli halkaning sterjenlari po'lat o'zakdan izolyasiyalanmaydi, chunki siosa tutashtirilgan mis yoki alyuminiy o'tkazuvchanligi pulat o'zakning elektr o'tkazuvchanligidan o'n va undan ortiq marta katta bo'ladi, bunday sharoitda sterjenlarni izolyasiyalashning ahamiyati bo'lmaydi. Umuman, sterjenlari va xalqalari quyma alyuminiydan ishlangan rotor oddiy tuzilgan, tannarxi arzon, engil, tayyorlanish texnologiyasi oson. 6-rasmda qisqa tutashtirilgan rotorli asinxron dvigatelning konstruktiv sxemasi ko'rsatilgan.

b) Faza rotorli asinxron dvigatel` ham, val va unga o'rnatilgan ferromagnit o'zakdan iborat bo'lib, o'zakning pazlariga izolyasiyalangan mis simdan o'ralgan uchta cho'lg'am, fazoda bir-biriga nisbatan 120° ga siljirilgan holda joylashtiriladi. Ko'pincha rotor cho'lg'amlari yulduz usulida ulanadi. Chulg'amlarning oxirgi uchlari bir nuqtaga ulanadi, bosh uchlari esa rotor o'qining bir tomoniga o'rnatilgan uchta mis yoki latun` xalqata ulanadi (7.4-rasm).



4-rasm Asinxron dvigatelning rotor va statorlatining tuzilishi.

Bu halqalar mashinaning temir qismlaridan va bir-biridan puxta izolyasiyalangan. Mashinaning qo'zg'almas qismiga o'rnatilgan maxsus tutqichlarda yupqa mis plastinkalardan yoki ko'mirdan yasalgan cho'tkalar o'rnatilgan. Cho'tkalar prujina yordamida halqalarga tegib turadi, rotor aylanganda cho'tkalar halqalarda sirpanadi va elektr tokini yaxshi o'tkazadigan kontakt hosil qiladi. Shunday qilib, rotor chulg'amlarining bosh uchlari xalqa va cho'tkalar orkali tashqi klemmalarga chiqariladi. Rotor cho'lg'aming klemmalari $R1$, $R2$ va RZ bilan belgilanadi. 6-rasmda faza rotorli asinxron dvigatelning ayrim qismlari ko'rsatilgan. Asinxron dvigatelni yurgizish uchun uning stator cho'lg'ami uch fazali tok tarmog'iga ulanishi lozim. Faza rotorli dvigatel maxsus yurg'izish reostati yordamida yurg'iziladi. Yurg'izish reostati rotor cho'lg'ami bilan ketma-keg ulanadi. Yurg'izish reostati yulduz usulida ulangan uch fazali reostatdir. Yurg'izish reostatining qarshiligi 4 ... 6 bosqichli. Dvigatel yurg'izilayotganida yurg'izish reostatining hamma qarshiligi rotor cho'lg'amiga butunlay ulangan bo'lishi lozim. Stator cho'lg'amlari tarmoqqa ulanganda dvigatelning rotori aylana boshlaydi. Uning tezligi oshgan sari yurg'izish reostatining qarshiligi uning surgichi yordamida bir bosqichga kamaytirib boriladi va yurg'izish oxirida reostat qarshiligi sxemadan butunlay chiqariladi. Bunda dvigatelning aylanish chastotasi valdagi nagruzka qiymati bilan aniqlanadi. Yurg'izish reostatining qarshiligi nolga teng bo'lganda rotor cho'lg'amlari qisqa tutashib qoladi. Xalqa va cho'tkalar mashinaning nozik qismlari xisoblanib, chutkalar xalqalarda sirpanaverib eyiladi va tez ishdan chiqadi.

Asinxron dvigatelda stator zanjiri rotor zanjiri bilan elektr jixatdan o'zaro bog'lanmagan. Stator chulg'amlari tarmoq kuchlanishiga ulanganda cho'lg'amlardan o'tadigan uch fazali tok energiyasi rotorga magnit maydoni vositasida uzatiladi. Bu jixatdan asinxron dvigatel transformatorga o'xshaydi. Stator cho'lg'ami transformatorning birlamchi cho'lg'ami, rotor cho'lg'ami esa transformatorning ikkilamchi cho'lg'ami o'rnida ishlaydi. Shuning uchun asinxron dvigatellar ba'zan **INDUKSION** mashinalar deyiladi. Sanoat korxonalarida asosan, qisqa tutashtirilgan rotorli asinxron dvigatel o'rnatiladi. qisqa tutashtirilgan rotorli asinxron dvigatellarning tuzilishi oddiy ishda ishonchli, ularni boshqarish oson. Lekin ularda yurg'izish momentining kichikligi va yurg'izish tokining kattaligi qisqa tutashtirilgan rotorli dvigatellarning kamchiligi hisoblanadi. Shuning uchun yurg'izish momenti uncha katta bo'lmagan mexanizmlarda qisqa tutashtirilgan rotorli asinxron dvigatellar ko'llaniladi. Faza rotorli asinxron dvigatelda yurg'izish momentini yurg'izish reostati yordamida maksimal momenggacha oshirish mumkin. Shuning uchun faza rotorli asinxron dvigatellar katta nagruzka bilan yurg'izilishi lozim bo'lgan va rotorning aylanish chastotasini rostlash talab qilinadigan mexanizmlarda qo'llaniladi. 7.4- rasmda qisqa tutashtirilgan rotorli (a) va faza rotorli asinxron dvigatelning (b) elektr sxemasi kursatilgan har bir asinxron dvigatelning texnik xarakteristikasi uning pasportida yozilgan bo'ladi. Unda quyidagilar ko'rsatiladi:

Asinxron dvigatelning ishlash prinsipi


Asinxron dvigatelning ishlash prinsipi stator chulg'amlaridan uch fazali tok o'tganda statorda aylanma magnit maydonining hosil bo'lishiga asoslangan. Asinxron dvigatelning ishlash prinsipini o'rganish uchun ichiga magnit qutblari maxkamlangan va o'z o'qi atrofida erkin aylanadigan halqa 1

olinadi. Bu halqa aylanganda, uning ichidagi magnit maydoni ham aylanadi, natijada aylanma magnit maydoni hosil bo'ladi. Endi bu halqa ichiga engil aylanadigan qisqa tutashgan rotor 2 o'rnatamiz. Agar magnitli halqa ma'lum bir tezlikda masalan, n , tezlikda aylantirilsa, magnit maydonining kuch chiziqlari rotorning qisqa tutashtirilgan simlarini kesib o'tadi va bu simlarda EYuK hosil bo'ladi.

8 ma'ruza. Elektromexanik sistemalar o'lchov elementlari. Sinflanishi. Raqamli, chiziqli va burchak holat datchiklari. Selsinlar, o'lchash sxemalari, konstruksiyasi.

Mexatronik tizimlarning asosiy qismi harakat uzatuvchilar (yoki beruvchilar) dan tashkil topgan bo'ladi. YUqorida o'rganilgan Mexatronik tizimlarda biz asosan uning elektr komponentlari bilan tanishdik. **Harakat beruvchilarning asosiy vazifasi** – sistemaning bajaradigan vazifasiga qarab unga kerakli bo'ladigan mexanik energiyani uzatib berishdan iborat. Mexatronik tizimlarni qurishda eng muhim omil – bu unga mos bo'lgan harakat beruvchi (aktuator) ni tanlashdir. Aktuatorlar bajaradigan vazifasiga qarab, ya'ni uzatilayotgan harakat turi (aylanma va chiziqli)ga qarab tanlanadi.


2. Motorlarning harakatga kelishi - elektromagnit maydonda uyg'otilgan kuchlar ta'siriga asoslanadi. Elektr maydonda yuzaga keladigan **Lorens kuchi** qoidasi motorlarni o'ramlarida uyg'otuvchi kuchlar hosil qiladi.



1-rasm.
 $F = I \cdot B$

I-maydondagi tok kuchi
B-magnit maydon induksiyasi
F- Lorens kuchi

Elementar fizika kursidan ma'lumki magnit maydon ikkita (N va S) ega bo'lib, ulardan bittasi o'ziga tortuvchi va ikkinchisi o'zidan itaruvchidir. Motorlarni ishlash prinsipi aynan shu prinsipga asoslangan.



2-rasm. (A) Motorning ishlash prinsipi

Elektr motorlar mexatronik tizimlarning asosiy qismi (harakat beruvchi), ya'ni mexanik energiya bilan ta'minlovchi qismi bo'lganligi sababli ularni boshqarishni o'rganish muhim hisoblanadi. Har qanday elektromotor (o'zgarmas va o'zgaruvchan tokda ishlaydigan va qadamli motorlar) magnit maydonda yuzaga keladigan kuchlar ta'sirida harakatga keladi va Lorens qoidasiga asoslanadi. Xulosa qilib aytganda, yuqorida ko'rsatilgan Lorens qoidasi va motorlarni ishlash prinsipini tushungan holda, qabul qilayotgan elektr energiyani boshqarish orqali ularni harakat tezligini va chastotasini boshqarishni o'rganish mumkin.

Amaliy ishni bajarishda kerak bo'ladigan jixozlar: 6 ta simli qadamli motor, 9V batareya va multimetr.

Amaliy ishni bajarish jarayonida talabalar hozirgi kunda keng foydalanuvda bo'lgan qadamli motorlarni boshqarishni o'rganadilar.


Motorlar bir qadamini aniqlashda quyidagi formuladan foydalaniladi.

$$\theta_s = \frac{360^\circ}{N_s N_R}$$


Bir aylanishdagi qadamlar soni esa quyidagi formuladan foydalaniladi

$$S = \frac{360^\circ}{\theta_s} = N_s N_R$$

Amaliyini bajarish jarayonida yuqoridagi ko'rsatilgan formulalarga asoslangan xolda quyidagi sxema tuziladi.



3-rasm.



4-rasm.

5-rasm

motorlarni jaryonida jadvaldan 3. asosan ishlatiladi.	Clockwise Rotation ↓	Index	1a	1b	2a	2b	
		1	1	0	0	0	
		2	0	1	0	0	
		3	0	0	1	0	
		4	0	0	0	1	
		5	1	0	0	0	
		6	0	1	0	0	
		7	0	0	1	0	
		8	0	0	0	1	
Qadamli boshqarish ular quyidagi foydalaniladi. Texnologik mashinalarda asinxron elektruritgichlar							
Quyida							
	Clockwise Rotation ↓	Index	1a	1b	2a	2b	
		1	1	0	0	0	
		2	1	1	0	0	
		3	0	1	0	0	
		4	0	1	1	0	
		5	0	0	1	0	
		6	0	0	1	1	
		7	0	0	0	1	
		8	1	0	0	1	
		9	1	0	0	0	
		10	1	1	0	0	
		11	0	1	0	0	
		12	0	1	1	0	
		13	0	0	1	0	
		14	0	0	1	1	
		15	0	0	0	1	
		16	1	0	0	1	

- 1) Statik mexanik xarakteristika;
- 2) Dinamik mexanik xarakteristika, I.S. Pinchuk (DXP) tomonidan olingan;
- 3) Dinamik mexanik xarakteristika, K.P.Kovach (DXK) tomonidan olingan.

Statik mexanik xarakteristika quyidagi tenglamada aniqlanadi:

$$M_{\partial} = \frac{2M_{\kappa}(1 + \varepsilon_1)}{S/S_{\kappa} + S_{\kappa}/S + 2\varepsilon_1}; \varepsilon_1 = \frac{1}{\sqrt{r_1^2 + x_{\kappa}^2}} \quad (3.1)$$

Bu erda M_d, M_k –elektruritgich validagi moment, va uning kritik qiymati;

S, S_k – elektryuritgichning sirpanishi va uning kritik qiymati;

r_l – aktiv qarshilik;

x_k – induktiv qarshilik;

Θ –inersiya momenti;

Mexanik xarakteristikaning $M_\delta = f(\varphi)$, tegishli tenglamasi (3.1)ga mos grafigi 3.1-rasmda keltirilgan.

Rotorning xarakat tenglamasi:


$$I\ddot{\varphi} = M_\delta - M_c \quad (3.2)$$

bu erda I – rotorning inersiya momenti;

φ –rotorning burilish burchagi;

M_k – qarshilik momenti.

Dvigatel' AOT-51-4 ko'rsatkichlari: $N=2,8$ kVt, $n=1450$ ayl/min, $M_p/M_n=2,0$, $M_{kr}/M_n=2,8$, $GD^2=3,2$ N·m², $I=0,051$ N·ms².



6-rasm. Asinxron elektryuritgichning mexanik statik xarakteristikasi.


ω_k –ideal xolat uchun tezlik;

ω_n – nominal tezlik;

ω_{kr} –kritik tezlik;

M_p – chiqish momenti;

M_n – nominal moment.



7-rasm. Asinxron elektryuritgichning mexanik statik xarakteristikasini approksimatsiyasi.

Bu xarakteristikada EMO'Jlari xisobga olinmaydi.

EMO'Jni xisobga olish uchun dinamik mexanik xarakteristikalar ishlatiladi.

DXP mexanik dinamik xarakteristika quyidigi differensial tenglama orqali ifodalanadi:


$$\frac{\omega_0 - \dot{\phi}}{\omega_0} = \frac{S_\kappa}{2M_\kappa} M_\delta + \frac{1}{2\omega_c M_\kappa} \dot{M}_\delta;$$

$$I\ddot{\phi} = M_\delta - M_c$$

bu erda ω_s – manbaning burchak chastotasi.

Tenglamani echimi quyidagi yuritgich uchun amalga oshirildi: AOT 52-6; $N=1,7$ kVt, $n=960$ ayl/min, $M_p/M_n=1,8$, $M_{kr}/M_n=2,6$, $K=1,3$; $f=50$ Gs, $I=0,0171$ Nms², $\alpha_\varphi=20$ V/rad, $\alpha_m=0,02$ V/Nm, $\alpha_t=30$.

8-rasmda ushbu mexanik xarakteristikaning ko‘rinishi keltirilgan.



1) $M_c=0$

2) $M_c=28$ Hm

8-rasm. Fazo semki $M_\delta = f(\dot{\phi})$:

Bu xarakteristika o‘tish jarayonlari faqat barqaror xarakterda inobatga olinadi. O‘tish jarayonlarini to‘liq ko‘rsatadigan model DXKda keltirilgan

$$M_\delta = \frac{3}{2} P \frac{K_r}{Gx_3} \cdot (\psi_{x_2} \psi_{y_2} - \psi_{x_1} \psi_{y_2})$$

$$\dot{\psi}_{x_1} = U_m \cos \gamma - \alpha'_S \psi_{x_1} + \alpha'_S K_r \psi_{x_2} + \psi_{y_1}$$

$$\dot{\psi}_{y_1} = U_m \sin \gamma - \alpha'_S \psi_{y_1} + \alpha'_S K_r \psi_{y_2} + \psi_{x_2}$$

$$\dot{\psi}_{x_2} = \alpha'_r \psi_{x_2} + \alpha'_r K_S \psi_{x_1} + \omega_r \psi_{y_2} - \dot{\phi} \psi_{y_2}$$

$$\dot{\psi}_{y_2} = -\alpha'_r \psi_{y_2} + \alpha'_r K_S \psi_{y_1} - \omega_r \psi_{x_2} + \dot{\phi} \psi_{x_2}$$

$$G = 1 - \frac{x_0^2}{x_S x_r}; K_r = \frac{x_0}{x_r}; K_S = \frac{x_0}{x_S}; \alpha_S = \frac{r_1}{x_S}; \alpha'_S = \frac{r_1}{x_{S_G}};$$


$$\alpha_r = \frac{r_2}{x_r}; \alpha'_r = \frac{r_2}{x_{r_G}}; I\ddot{\phi} = M_\delta - M_c$$

Bu erdagde M_d – asinxron elektroyuritgichning elektromagnit momenti;

ψ_{x1}, ψ_{y1} – X va Y o‘qlari bo‘yicha statorning magnit oqimlarini umumlashgan vektorini tashkil etuvchilari;

ψ_{x2} , ψ_{y2} – X va Y o'qlari bo'yicha rotorning magnit oqimlarini umumlashgan vektorini tashkil etuvchilari.

9-rasmda asinxron elektr yuritgich mexanik xarakteristikalarini ko'rinishlari keltirilgan.



9-rasm. Asinxron elektr yuritgich mexanik xarakteristikalari:

a - statik mexanik xarakteristika;


b - dinamik mexanik xarakteristika, I.S. Pinchuk (DXP) tomonidan olingan;

v - dinamik mexanik xarakteristika, K.P.Kovach (DXK) tomonidan olingan.

9 mavzu. Aylanma transformatorlar, ularning sxemalari, ishlash prinsiplari va tuzilishi. Aylanma transformatorni ishlatilish sohalari va ishchi xarakteristikasi

1. Mexatronik tizimlarning asosiy qismi harakat uzatuvchilar (yoki beruvchilar) dan tashkil topgan bo'ladi. Yuqorida o'rganilgan Mexatronik tizimlarda biz asosan uning elektr komponentlari bilan, ya'ni mexatronik tizimdagi aktiv va passiv elementlari bilan tanishdik. **Harakat beruvchilarning asosiy vazifasi** – sistemaning bajaradigan vazifasiga qarab unga kerakli bo'ladigan mexanik energiyani uzatib berishdan iborat. Mexatronik tizimlarni qurishda eng muhim omil – bu unga mos bo'lgan harakat beruvchi (aktuator) ni tanlashdir. Aktuatorlar bajaradigan vazifasiga qarab, ya'ni uzatilayotgan harakat turi (aylanma va chiziqli)ga qarab tanlanadi.

2. Motorlarning harakatga kelishi - elektromagnit maydonda uyg'otilgan kuchlar ta'siriga asoslanadi. Elektr maydonda yuzaga keladigan **Lorens kuchi** qoidasi motorlarni o'ramlarida uyg'otuvchi kuchlar hosil qiladi.



6.1-rasm.


$$\mathbf{F} = \mathbf{I} \times \mathbf{B}$$

I-maydondagi tok kuchi

B-magnit maydon induksiyasi

F- Lorens kuchi

Elementar fizika kursidan ma'lumki magnit maydon ikkita (N va S) ega bo'lib, ulardan bittasi o'ziga tortuvchi va ikkinchisi o'zidan itaruvchidir. Motorlarni ishlash prinsipi aynan shu prinsipga asoslangan.



6.2-rasm. (A) Motorning ishlash prinsipi

Elektr motorlar mexatronik tizimlarning asosiy qismi (harakat beruvchi), ya'ni mexanik energiya bilan ta'minlovchi qismi bo'lganligi sababli ularni boshqarishni o'rganish muhim hisoblanadi. Har qanday elektromotor (o'zgarmas va o'zgaruvchan tokda ishlaydigan va qadamli motorlar) magnit maydonda yuzaga keladigan kuchlar ta'sirida harakatga keladi va Lorens qoidasiga asoslanadi. Xulosa qilib aytganda, yuqorida ko'rsatilgan Lorens qoidasi va motorlarni ishlash prinsipini tushungan holda, qabul qilayotgan elektr energiyani boshqarish orqali ularni harakat tezligini va chastotasini boshqarishni o'rganish mumkin.

Amaliy ishni bajarishda kerak bo'ladigan jixozlar: 6 ta simli qadamli motor, 9V batareya va multimetr.

Amaliy ishni bajarish jarayonida talabalar hozirgi kunda keng foydalanuvda bo'lgan qadamli motorlarni boshqarishni o'rganadilar.


Motorlar bir qadamini aniqlashda quyidagi formuladan foydalaniladi.

$$\theta_s = \frac{360^\circ}{N_s N_R}$$


Bir aylanishdagi qadamlar soni esa quyidagi formuladan foydalaniladi

$$S = \frac{360^\circ}{\theta_s} = N_s N_R$$

Amaliyni bajarish jarayonida yuqoridagi ko'rsatilgan formulalarga asoslangan xolda quyidagi sxema tuziladi.



6.3-rasm.



6.4-rasm.

6.5-rasm

Qadamli motorlarni boshqarish jaryonida ular quyidagi jadvaldan foydalaniladi.

3. Texnologik mashinalarda asosan asinxron elektryuritgichlar ishlatiladi.

Quyida asinxron elektryuritgichlarni mexanik xarakteristikalarini modellashtirishni keltiramiz:

- 4) Statik mexanik xarakteristika;
- 5) Dinamik mexanik xarakteristika, I.S. Pinchuk (DXP) tomonidan olingan;
- 6) Dinamik mexanik xarakteristika, K.P.Kovach (DXK) tomonidan olingan.

Statik mexanik xarakteristika quyidagi tenglamada aniqlanadi:

$$M_{\delta} = \frac{2M_{\kappa}(1 + \varepsilon_1)}{S/S_{\kappa} + S_{\kappa}/S + 2\varepsilon_1}; \varepsilon_1 = \frac{1}{\sqrt{r_1^2 + x_{\kappa}^2}} \quad (3.1)$$

Bu erda M_d , M_k –elektryuritgich validagi moment, va uning kritik qiymati;

S , S_k – elektryuritgichning sirpanishi va uning kritik qiymati;

r_1 – aktiv qarshilik;

x_k – induktiv qarshilik;

Θ –inersiya momenti;

Mexanik xarakteristikaning $M_{\delta} = f(\varphi)$, tegishli tenglamasi (3.1)ga mos grafigi 3.1-rasmda keltirilgan.

Rotorning xarakat tenglamasi:

$$I\ddot{\varphi} = M_{\delta} - M_c \quad (3.2)$$

bu erda I – rotorning inersiya momenti;

φ –
burilish
 M_k –
momenti.

Clockwise Rotation ↓


Index	1a	1b	2a	2b
1	1	0	0	0
2	0	1	0	0
3	0	0	1	0
4	0	0	0	1
5	1	0	0	0
6	0	1	0	0
7	0	0	1	0
8	0	0	0	1

rotorning
burchagi;
qarshilik

Clockwise Rotation ↓

Index	1a	1b	2a	2b
1	1	0	0	0
2	1	1	0	0
3	0	1	0	0
4	0	1	1	0
5	0	0	1	0
6	0	0	1	1
7	0	0	0	1
8	1	0	0	1
9	1	0	0	0
10	1	1	0	0
11	0	1	0	0
12	0	1	1	0
13	0	0	1	0
14	0	0	1	1
15	0	0	0	1
16	1	0	0	1

Dvigatelъ AOT-51-4 ko'rsatkichlari: $N=2,8$ kVt,
 $n=1450$ ayl/min, $M_p/M_n=2,0$, $M_{kr}/M_n=2,8$, $GD^2=3,2$ N·m²,
 $I=0,051$ N·ms².



6.6-rasm. Asinxron elektryuritgichning mexanik statik xarakteristikasi.


ω_k –ideal xolat uchun tezlik;

ω_n – nominal tezlik;

ω_{kr} –kritik tezlik;

M_p – chiqish momenti;

M_n – nominal moment.



6.7-rasm. Asinxron elektryuritgichning mexanik statik xarakteristikasini approksimatsiyasi.

Bu xarakteristikada EMO'Jlari xisobga olinmaydi.

EMO'Jni xisobga olish uchun dinamik mexanik xarakteristikalar ishlatiladi.

DXP mexanik dinamik xarakteristika quyidagi differensial tenglama orqali ifodalanadi:


$$\frac{\omega_0 - \dot{\phi}}{\omega_0} = \frac{S_{\kappa}}{2M_{\kappa}} M_{\delta} + \frac{1}{2\omega_c M_{\kappa}} \dot{M}_{\delta};$$

$$I\ddot{\phi} = M_{\delta} - M_c$$

bu erda ω_s – manbaning burchak chastotasi.

Tenglamani echimi quyidagi yuritgich uchun amalga oshirildi: AOT 52-6; $N=1,7$ kVt, $n=960$ ayl/min, $M_p/M_n=1,8$, $M_{kr}/M_n=2,6$, $K=1,3$; $f=50$ Gs, $I=0,0171$ N·ms², $\alpha_\varphi=20$ V/rad, $\alpha_m=0,02$ V/N·m, $\alpha_t=30$.

6.8-rasmda ushbu mexanik xarakteristikaning ko'rinishi keltirilgan.



1) $M_c=0$

2) $M_c=28$ H·m

6.8-rasm. Fazovye s'emki $M_o = f(\varphi)$:

Bu xarakteristikada o'tish jarayonlari faqat barqaror xarakatda inobatga olinadi. O'tish jarayonlarini to'liq ko'rsatadigan model DXKda keltirilgan

$$M_d = \frac{3}{2} P \frac{K_r}{Gx_3} \cdot (\psi_{x_2} \psi_{y_2} - \psi_{x_1} \psi_{y_2})$$

$$\dot{\psi}_{x_1} = U_m \cos \gamma - \alpha'_S \psi_{x_1} + \alpha'_S K_r \psi_{x_2} + \psi_{y_1}$$

$$\dot{\psi}_{y_1} = U_m \sin \gamma - \alpha'_S \psi_{y_1} + \alpha'_S K_r \psi_{y_2} + \psi_{x_2}$$

$$\dot{\psi}_{x_2} = \alpha'_r \psi_{x_2} + \alpha'_r K_S \psi_{x_1} + \omega_r \psi_{y_2} - \dot{\phi} \psi_{y_2}$$

$$\dot{\psi}_{y_2} = -\alpha'_r \psi_{y_2} + \alpha'_r K_S \psi_{y_1} - \omega_r \psi_{x_2} + \dot{\phi} \psi_{x_2}$$

$$G = 1 - \frac{x_0^2}{x_S x_r}; K_r = \frac{x_0}{x_r}; K_S = \frac{x_0}{x_S}; \alpha_S = \frac{r_1}{x_S}; \alpha'_S = \frac{r_1}{x_S G};$$


$$\alpha_r = \frac{r_2}{x_r}; \alpha'_r = \frac{r_2}{x_r G}; I \ddot{\phi} = M_d - M_c$$

Bu erdagde M_d – asinxron elektryuritgichning elektromagnit momenti;

ψ_{x1}, ψ_{y1} – X va Y o'qlari bo'yicha statorning magnit oqimlarini umumlashgan vektorini tashkil etuvchilari;

ψ_{x2}, ψ_{y2} – X va Y o'qlari bo'yicha rotorning magnit oqimlarini umumlashgan vektorini tashkil etuvchilari.

6.9-rasmda asinxron elektryuritgich mexanik xarakteristikalarini ko'rinishlari keltirilgan.



6.9-rasm. Asinxron elektryuritgich mexanik xarakteristikalari:

a - statik mexanik xarakteristika;

b - dinamik mexanik xarakteristika, I.S. Pinchuk (DXP) tomonidan olingan;

v - dinamik mexanik xarakteristika, K.P.Kovach (DXK) tomonidan olingan.

Xulosa: Talabalar aylanma transformatorlarning turlari, ishlash prinsiplari, mexanik xarakteristikalari, matematik modellari bo'yicha talab darajasida malaka, ko'nikmalariga ega bo'ladilar.

10 mavzu. Taxogeneratorlar, sinflanish, ishlash prinsiplari va ishlatilish sohalari Ochiq boshqarish sxemali elektr yuritmalari va umumiy xarakteristikalari.

Avtomatika qurilmalarida ikki fazali asinxron dvigatellardan aylanma xarakatdagi mexanik energiyani elektr energiyasiga aylantiruvchi asbob, ya'ni mexanizmlar ukiyning aylanish tezligini ulchash uchun ishlatiladigan taxogenerator sifatida foydalanish mumkin.

Taxogeneratorning xarakteristikasi chizikli bulib, undagi chikish kuchlanishi bilan aylanish tezligi orasidagi bolqlikni ifoda etadi, ya'ni

$$U = K * n \quad (15.5)$$

Asinxron taxogeneratorning tuzilishi kovak rotorli ijrochi dvigatelning tuzilishi bilan bir xildir. Statoridagi bitta cho'lg'am uyg'otish chulg'ami xisoblanib, manbaaga ulanadi. Ikkinchisi generator yoki chikish chulg'ami hisoblanib, nagruzkaga yoki indikatorga ulanadi. Chastotasi f bo'lgan tarmoq toki uyg'otish chulg'amidan oqib o'tib, pul'sasiyalanuvchi magnit maydonini hosil qiladi. Pul'sasiyalanuvchi maydonning o'qi uyg'otish cho'lg'aming o'qi bilan mos tushadi. Qo'zgalmas rotorda ushbu magnit maydoni transformator EYuK va toki deb ataluvchi e_t va i_t ni induksiylaydi. Rotorning aktiv qarshiligi katta bo'lgani tufayli faza jihatdan e_t bilan mos tushadi va rotorni magnitlovchi kuch F'_r transformatoridagi kabi pul'sasiyalanuvchi magnit oqimi yo'nalishi bo'yicha ta'sir etadi.

Uyg'otish cho'lg'amiga nisbatan 90° siljitib joylashtirilgan generator (chiqish) cho'lg'amida F_u oqimni EYuK induksiylamaydi va chiqish kuchlanishi nolga teng bo'ladi. Rotor p tezlik bilan aylantirilganda unda transformator EYuK idan tashqari, aylanish EYuK e_v ham induksiylanadi va aylanish toki i_v hosil bo'ladi.

Rotordagi toklar kundalang o'q bo'yicha yo'nalgan magnitlovchi kuch F''_p va oqim F_p hosil qiladi. Generator (chiqish) cho'lg'amida bu oqim EYuK induksiylaydi:

$$E_r = 4,44 f_1 \omega_r K_r \Phi_{rt} \quad (15.6)$$

bu erda w_r — generator cho'lg'amidagi o'ramlar soni, K_r — generator cho'lg'aming koeffisienti. (11.9) ifodadagi f_1 (generator cho'lg'aming EYuK chastotasn) rotorning aylanishi tezligiga bog'liq bo'lmaydi.

Chiqish kuchlanishining mexanizm (rotor) aylanish tezligiga bog'lik ifodasini yo'l ko'yilishi mumkin bo'lgan xatoliklar (magnit zanjirida to'yinish yo'qligi, havo bo'shlig'i magnit qarshiligining qiymati va h.) ni hisobga olgan holda keltirib chikarish mumkin:

$$U_{chiq} \approx E = C\Phi_{rt} = C_1 E_p'' = C_2 e_v = C_3 V_2 = Kn \quad (15.7)$$

bu erda $V_2 = \frac{\pi D_2 n}{60}$ rotorning aylanish tezligi; $S_1, S_2, S_3 K$ — doimiy proporsionallik koeffisientlari.

Mavjud taxogeneratorlarda (15.7) ifoda ayrim xatoliklar tufayli noxiziqdirlar.

Taxogeneratorlarga qo'yidagi talablar qo'yiladi:

— aylanish tezligi bilan chikish kuchlanishi urtasida anik

proporsionallikni ta'minlash;

- temperatura va namlik o'zgarganda dam ishlashining ishonchli bo'lishi;
- yuqori darajada tezkorlikni ta'minlash;
- tuzilishi sodda, og'irligi va o'lchamlari kichik bulishi.

Burilish transformatorlari rotorning burilish burchagi α ni kuchlanishga aylantirib beruvchi, quvvati bir necha vattdan iborat bo'lgan mikromashinalardir. Statik transformatorlarda ikkilamchi kuchlanish amplitudasi qiymatini o'zgartirish uchun birlamchi kuchlanish amplitudasini o'zgartirish kerak bo'lsa, burilish transformatorlarida ikkilamchi kuchlanish amplitudasi rotorning burilish burchagiga proporsional bo'ladi. Buriluvchi transformatorlar avtomatik kuzatish sistemalarida, hisoblash qurilmalarida algebraik, geometrik va trigonometrik masalalarni echishda ishlatiladi.

Tuzilishi jihatdan buriluvchi transformatorlar kontakt halqalari asinxron mashinalarga o'xshaydi. Statori elektrotexnik po'lat yaproqchalardan kovak silindr shaklda yig'ilgan bo'lib, o'zaro perpendikulyar joylashtirilgan ikkita cho'lg'amga ega bo'ladi. Rotori ham elektrotexnik po'lat yaproqchalardan baraban shaklda yig'ilgan bo'lib, tashqi zanjir bilan kontakt halqalar va cho'tka yordamida ulangan ikkita cho'lg'amdan iborat.

Stator va rotor cho'lg'amlarining ulanish sxemalariga ko'ra, chiqish kuchlanishi rotor burilish burchagining sinusiga, kosinusiga yoki burilish burchagi α ga proporsional (chiziqli transformator) bo'ladi. Sinus-kosinusli buriluvchi transformatorning (SKBT) ishlash prinsipi bilan tanishib chiqamiz. Bunday transformatorning elektr sxemasi 4-rasmda kursatilgan. Statorning uyg'otish cho'lg'ami U ni o'zgaruvchan tok manbaiga ulasak, transformatorida pul'sasiyalanuvchi bo'ylama magnit oqimi F_b hosil bo'ladi. Bu oqim cho'lg'am s (sinusli) va s (kosinusli) larda EYuK ni induksiylaydi:

$$\left. \begin{aligned} E_s &= KU_T \sin a \\ E_s &= KU_T \cos a \end{aligned} \right\}, \quad (8)$$

bu erda $K = \frac{\varpi_p}{\varpi_{cm}}$ statoridan rotorga transformasiya koeffisienti; ϖ_p va ϖ_{cm} — rotor va stator


cho'lg'amlarining o'ramlar soni; U_t — tarmoq kuchlanishi.

(8) ga asosan cho'lg'amlardagi I_c va I_s toklar xamda ZHS va ZHS nagruzka karshiliklardagi kuchlanishlar $\cos \alpha$ va $\sin \alpha$ ga proporsional buladi. Rotor toklari pul'sasiyalanuvchi MYuK F_s va F_c larni dosil qiladi. Bu MYuK larni tashkil etuvchilarga ajratish mumkin: F_{sy} va F_{sd} — buylama u k, buyicha va F_{cy} va F_{cd} — kundalang u k. buyicha . Buylama uk. buyicha pul'sasiyalanuvchi MYuK oddiy transformatoridagi kabi uygotish cho'lg'aming MYuK bilan muvozanatlashadi. Rotor MYuK ining kundalang tashkil etuvchisi esa muvozanatlashmaydi va rotor cho'lg'amlarida EYuK induksiya-lovchi pul'sasiyalanuvchi magnit osimi dosil kiladi. Natija-da $\sin \alpha$ va $\cos \alpha$ bilan chik.ish kuchlanishi orasidagi proporsional boglanish buziladi. Chikish kuchlanishi bilan burilish burchagi orasidagi muvofik. bogliklikni dosil kilish uchun rotor MYuK ining kundalang tashkil etuvchisini kompensasiya-lash kerak. Kompensasiyalashning ikki xil: birlamchi (stator tomonidan) va ikkilamchi (rotor tomonidan) usuli mavjud. Kompensasiyalashning birlamchi usulida stator cho'lg'ami k un~ cha katta bulmagan ballast karshiligiga Z_6 ga tugridan-tugri ulanadi. Ikkilamchi kompensasiyalashda esa rotor cho'lg'amlari-ga bir xil nagruzka karshiligi ulanadi Z_{as} — ZHC. Bunda rotorning kundalang magnit okimi nolga teng bulib, xatolik bulmaydi. Odatda, kompensasiyalashning ikkala usuli dan qo'llaniladi, chunki ish vaktida nagruzka qarshiligining tengligini ta'minlash kiyin buladi. SKBT dan farqli ularoq, chiziqli buriluvchi transformator (ChBT) larda chiqish kuchlanishi rotorning burilish burchagi α bilan chiziqli bog'langan $s/ChI1(=)/(a)$. ChBT ni dosil kilish uchun mashina cho'lg'amlari birlamchi kompensasiyalash sxemasi buyicha yoki ikkilamchi kompensasiyalash sxemasi buyicha taqsimlanadi.

11 mavzu. Elektr yuritma energetikasida uchraydigan kamchiliklar va afzalliklar. Elektr yuritmaning yuklanish diagrammalari

Sensorlar – mexatronik tizimlarining bir elementi bo'lib, fizik parametrlarning kattaligini aniqlash va ularni signal ko'rinishida boshqaruvchi sistemaga xabar beruvchilardir. Sensorlar aktiv element hisoblanib, transdyuserlar vazifasini bajaradi. Mexanizmlar tizimini yoki monitoring sistemasini boshqarish, sensorlar bilan uzviy bog'liq. Masalan, akselerometrlar, termoparalar bunga yaqqol misol bo'ladi. Sensorlar yoki transdyuserlar xar doim o'lchash jarayoniga moslanib, ularning ishlash prinsipi fizik qonuniyatlarga asoslanadi. Sensorlarni ifodalovchi fizik parametrlarga, ularning sezuvchanligi, ular qabul qiladigan oraliq, ularning aniqligi, kiruvchi va chiquvchi signallar orasidagi farq, signallarni qanday o'zgarishini seza olishi, signallarni chiziqliligi, gisterezis va vaqt xarakteristikalar kiradi.

Sezuvchanlik - bu fizik parametr xaqidagi ma'lumotni qanchalik to'g'riligi, qaysiki boshqaruvchi sistemaga borayotgan. Sezuvchanlik xatoligi degan tushincha ham bor, bu xatolikni quyidagi grafikda tahlil qilish mumkin.



5.1-rasm.


Oraliq - bu sensorlar uzatib beradigan signallarning diapazoni. Masalan, akselerometerlar (10000 gers yoki ± 10).

Aniqligi - sensor qabul qilayotgan va boshqaruvchi tizimga uzatayotgan signallarning qanchalik bir-biriga yaqinligi tushiniladi. Agar sensorimiz ideal bo'lganida kiruchi va chiquvchi signallar bir xil bo'lar edi, tabiatda xech qanday tizim ideal bo'la olmaydi.

Kiruvchi va chiquvchi signallar orasidagi **farq** – sensorlarni aniqligini baxolash uchun foydalaniladigan parametr hisoblaniladi.

Signallarni qanday o'zgarishini **sezaolishi**, sezuvchanlikdan tubdan farq qiladi, ya'ni sensorlar uzatayotgan signallarni, sensorda o'zgarishini sezaolishi tushiniladi. Bular quyidagicha izohlanadi.

8 bits = 256 qadam
 10 bits = 1024 qadam
 12 bits = 4096 qadam
 16 bits = 65,536 qadam



5.2-rasm.


3. Sensorlar qo'llanish sohasiga ko'ra quyidagicha turlanadi. Bular Elektr sensorlar, magnit maydon ta'sirida ishlovchi sensorlar va elektr hamda mexanik kuchlarga asoslangan sensorlar.

a) **Elektr sensorlar** - bularning ishlash prinsipi elektr maydon bilan uzviy bog'liq bo'ladi. Masalan, Tenzometrlar-ishlash prinsipi qarshiliklarni o'zgarishiga asoslanadi.




5.3-rasm.

b) **Magnit maydon** ta'sirida ishlovchi sensorlar. Bularga Zaryadli akselerometerlar misol bo'la oladi.



5.4-rasm.

v) **Elektr xamda mexanik** kuchlarga asoslangan sensorlar – akselerometrilar



5.5-rasm.

Amaliy ishni bajarishda kerak bo'ladigan jixozlar: ishchi komp'yuter, akselerometrilar ya'ni ma'lumot yig'uvchilar (DAQ), alyuminiy sterjen, ipli bog'lamalar va bolg'a


Akselerometrlarning xarakteristikasi bo'yicha to'liq ma'lumot olish uchun, uni kalibrlash talab etiladi. Bunda Nyutonning 2chi qonuniga asosan tezlanish bilan xarakatlanayotgan jism massasi aniqlanadi:

$$m = a / F$$

Bu erda a - akselerometrdan olingan tezlanish qiymati [m/s²], F - uyg'otuvchi kuch (bolg'adan olingan) [N].

Ushbu metodika quyidagi tartib asosidagi amallardan tashkil topgan:

1. Alyuminiy sterjenni xavfsiz iplar orqali ikkita joyidan gorizantal holatda osish. Gorizontallik darajasini tekshirish uchun shaytonchadan foydalanish tafsiya etiladi (5.6-rasm);
2. DT9837 Data Translation qurilmasini kabel orqali kompyuter USB portiga ulanadi (5.6-rasm);
3. DT9837 qurilmaning chiquvchi portlariga BNC kabellari yordamida 1-kanaliga akselerometr va 2- kanaliga (bolg'acha) qurilmasi ulanadi;
4. Akselerometr sterjenning bir tomoniga maxsus kley (WAX) orqali o'rnatiladi. O'rnatish mustaxkamligiga etibor bering. (5.6-rasm);
5. Kompyuter va dasturiy ta'minot MATLAB ishga tushiriladi. Bunda MATLAB paketida Calibration4ACCEL.m fayli yuklanadi. Ushbu fayl orqali eksperiment natijalari yozib olinadi. Bu natijalar uchun xxxxxxxx (akselerometr modelini raqami) orqali belgilanadi va talab etilsa ularni o'zgartirish mumkin.
6. Qurilmalar to'g'risidagi ma'lumotlar 1-jadvalga kiritiladi



5.6-rasm. Ishchi jixozlarni ulanish jarayonining sxematik ko'rinishi

7. MATLAB dasturida Calibration4ACCEL.m fayli ishga tushiriladi va taxminan 10-15 sekunddan keyin sterjenga bolg'a orqali engil bir turtki beriladi. Bunda qattiq zarba berish tavsiya etilmaydi.
8. MATLAB dasturida Calibration4ACCEL.m fayli eksperiment natijalarini yozib bo'lgandan so'ng quyida ko'rsatilgan parametrlar Command Window darchasiga kiritilishi kerak. SHundan so'ng, eksperiment davomiyligi (qancha sekund), eksperiment natijalari uchun o'rnatilgan akselerometr model nomerini kiritish talab etiladi.
9. Olingan qiymatlarni 1-jadvalga kiritiladi va eksperiment natijalari tahlil qilinadi.

1-jadval.


Metal jism og'irligi (kg)	
Akselerometr og'irligi (kg)	
Akselerometr modeli	

Akselerometr sezuvchanligi(mV/ms-2)	5			
Eksperiment raqami	1	2	3	4
Command window oynasidagi sonli natija (kg)				
Nisbiy xatolik (%)				

Xulosa: Talabalar mexatronik tizimlardagi elektr yuritmalarning turlari, ishlash prinsiplari, fizik parametrlarini bilib oladilar, etarli bilimlarga ega bo'ladilar.

12 mavzu. Elektr yuritmalarni boshqarish sxemalari. O'zgarmas tok elektr yuritmalarning boshqarish sxemalari. Asinxron dvigatelli elektr yuritmasining boshqarish sxemalari.

1. Termopara bu ikkita bir xil bo'lmagan metal yoki aralashmadan tashkil topgan simlar biriktirilib yoki ulanib, termo-sensor sifatida foydalaniladi. Simlarning ulangan joyida kuchlanish tushuvi bo'ladi, chunki temperaturaning o'zgarishi simdagi elektronlarning harakatlanishiga bevosita bog'liq. Simlarning uchidagi fazalar farqining o'zgarishi temperaturaning o'zgarishi bilan bog'liqdir.



7.1-rasm. Termopara sxematik ko'rinishi.

Termopara turlari

Termopara turlari	musbat simi	manfiy simi
B	Platina 30%, radiy	Platina 6%, radiy
E	Nikel-xrom aralashmasi	Mis-nikel aralashmasi
J	TEMIR	MIS-NIKEL ARALASHMASI
K	Nikel-xrom aralashma	Nikel-alyumin aralashma
N	Nikel-xrom-kremniy	Nikel-kremniy-magniy
R	Platina 13%-radiy	Platina

Termo-quti – termopara, tashqaridan sovuq havoni so'ruvchi parrag va qutiga issiqlik yaratib beradigan lampadan tashkil topgan. Biz bu uchta komponent yordamida termo-quti ichidagi temperaturani boshqarishimiz mumkin, uning uchun bizga LabVIEW paketi kerak bo'ladi.



7.2-rasm. Temperaturani aniqlashning sxematik ko'rinishi

3. SC-2345 (Signal Condition) qurilmasi, ya'ni signal qabul qilgich ishlash prinsipiga qarab turli xil markalari mavjud. Xozirda rivojlangan davlatlarda olimlar va ilmiy izlanuvchi tadqiqotchilar ushbu qurilmadan keng foydalanadilar.

Ba'zan sensor juda xavfli va kuchli signallarni yaratadi va uni to'g'ridan - to'g'ri DAQ yordamida o'lchash xavflidir. Masalan, kuchli kuchlanish tushuvi sodir bo'lishi, shovqin kuzatilishi, juda uzun va qisqa signallar kuzatilishi mumkin. Signal qabul qilgich bizga signallarni me'yoriy xolatga keltirib uni DAQ ga yuboradi.

Signal qabul qilgich uchun unga mos qurilma tanlash juda muhimdir. Signal qabul qilgich vazifasiga ko'ra ikki xil buladi: modulli (modular) va integrallashgan (integrated).

DAQ (data acquisition) – ma'lumot yoki signallarni kompyuter xotirasiga saqlash va analog signallarni raqamli signalga o'giradigan qurilmadir. Bunday qurilmalarga PCI, PXI, PCI Express, PCMCIA, USB, Wireless, Ethernet kabilar misol bo'la oladi.


PXI – blok sitemasi oddiy blok sistemadan farq qiladi. PXI platformasi modul bilan jihozlangan bo'lib, signal qabul qilgichdan kelayotgan signallar (temperatura, tezlanish va x.k) ni o'zining xotirasiga saqlaydi va monitorda ko'rsatadi. PXI operatsin tizimi juda tez ishlaydai va aniqlik darajasi ham yuqoridir.

LabView – inglizcha termin bo'lib, muxandislar uchun virtual Amaliy degan ma'noni anglatadi. Ushbu programmada yangi sahifa ochiladi va ushbu ochilgan sahifa VI (Virtual Instrument) deb yuritiladi. Har bir VI uchta komponentdan tashkil topgan: Front Panel, Block Diagram va Connector panel.

Модулни сигнал қабул қилгич



Интегрални сигнал қабул қилгич



7.4-rasm.

Front panel yordamida biz har - xil tugmachalar, monitor va indekatorlarni joylashtirishimiz mumkin. Front panel darchasi ustida Strl E buyrug'ini beramiz, Block Diagram darchasi ochiladi va unda biz algoritmlarni tuzamiz.

Xulosa: Talabalar termoparalar, turlari va ishlash prinsiplari, signal qabul qilish sistemasi va temperaturani boshqarish bo'yicha talab darajasida malaka, ko'nikmalariga ega bo'ladilar.

13 mavzu. Elektr yuritmalariig berk boshqarish sxemalari. Berk boshqarish sxemalarning umumiy xarakteristikalar. O'zgaras tok, Asinxron va Sinxron dvigatelli elektr yuritma berk boshqarish sxemasi.

Maqsad: Talabalarga mexatronik tizimlarda kuchaytirgiyalar va ma'lumot yig'uvchilar haqida kerakli bilimlarni o'rgatish.


Reja:

1. Kuchaytirgichlar turlari haqida ma'lumot.
2. Ma'lumot yig'uvchilar.
3. Kuchaytirgichlar vazifasi va qo'llanish sohalari.
4. Xulosa.

Adabiyotlar

1. Djuraev A. Mexatronika. Ma'ruzalar matni. Toshkent, TTESI, 2013, 61 b.
2. Poduraev YU. V. Основы мехатроники. Учебное пособие М., MGTU «STANKIN», 2000.
3. Mechatronics: Principles and Applications, by Godfrey C. Onwubolu ISBN 07506 6379 0
4. Vvedenie v mexatroniku. Учебное пособие / Pod red. A. K. Tugengol'da, 2-oe izdanie.ssentr DGTU, 2002
5. Jo'raev A., Mavlyaviev M.R., Abdulkarimov T., Miraxmedov J.Y., "Mexanizm va mashinalar nazariyasi". T., "G'. G'ulom", 2004 - 596 b.
6. Lebedev O.V., Xakimzyanov R.R. Мехатронные системы машин, Учебное пособие. Institut mexaniki i seysmostoykosti soorujeniy AN RUz,2010, s. 220


1. Mexatronika tizimidagi analog komponentlarni o'rganishda kuchaytirgichlarni o'rni muhim rol o'ynaydi. Elektrik signallarni tahlil qilishda esa eng kerakli qurilma hisoblanadi, chunki bu signallar asosan transdyusrlardan fizik kattaliklar ko'rinishida olinib, ularni elektr signallar sifatida tahlil qiladi. Bunda, ularning amplitudalari juda kichkina bo'lishi mumkin. Asosan shu tartibdagi signallar, kuchaytirish uchun foydalaniladi. **Kuchaytirgichlar** deb – elektrik signallarni kuchaytirib, ma'lum ma'noda ularni filterlab o'tkazib beruvchi qurilmalarga aytiladi. Kuchaytirgichlarni quyidagi qurilma orqali ishlash prinsipini tushunish osonroq. (4.1-rasmga qarang)



4.1-rasm.


Kuchaytirgichlar quyidagi elementlardan tashkil topgan. Rezistor, kondensator, tranzistor va diodlar. Bular uning passiv elementlari hisoblanadi. Aktiv elementlari esa kontrollerlar hisoblanadi.

2. Mexatronik tizimlarni o'rganishda raqamli signallarni analog signallarga o'tkazish uchun **ma'lumot yig'uvchilar**dan foydalaniladi. Ma'lumot yig'uvchilar asosan eksperiment uchun foydalaniladi. Ma'lumotni ob'ektdan olib uni tahlil qiluvchiga uzatishgacha bo'lgan hamma jarayon ma'lumot yig'uvchining vazifasiga kiradi.



4.2-rasm. Ma'lumot yig'uvchi qurilma

3. **Kuchaytirgichlar vazifasi va qo'llanish sohalariga ko'ra** operativ, ideal va real, differensial kabi turlarga ajratiladi. **Operativ** kuchaytirgichlar asosan signallarni kuchaytirish va konvert qilish uchun xizmat qiladi. **Ideal kuchaytirgichlarda** – 2 ta kiruvchi bo'lib, ular cheklanmagan o'tkazishga ega




4.3-rasm. Ideal kuchaytirgich

Mexatronik tizimlarni o'rganishda raqamli signallarni analog signallarga o'tkazish uchun **ma'lumot yig'uvchilar**dan foydalaniladi. Ma'lumot yig'uvchilar asosan eksperiment uchun foydalaniladi. Ma'lumotni ob'ektdan olib uni tahlil qiluvchiga uzatishgacha bo'lgan hamma jarayon ma'lumot yig'uvchining vazifasiga kiradi.


Real kuchaytirgichlarda kiruvchi kuchlanishga tushadigan o'zgaruvchan qarshilik juda katta bo'ladi. SHuning uchun kiruvchi terminallarga juda kichik bo'lgan kuchlanish va tok tushadi, lekin chiquvchi kuchlanish cheksiz bo'la olmaydi.

Differensial kuchaytirgich - bularning ishlash prinsipi kiruvchi kuchlanishlarning farqi va superpozitsiya prinsipiga asoslangan



4.4-rasm. $V = A_v (K_{iruvchi\ 2} - K_{iruvchi\ 1})$ yoki $V = A_v (K_{iruvchi\ (+)} - K_{iruvchi\ (-)})$
 Misol tariqasida quyidagi kuchaytirgichni ko'rib chiqamiz. Unda quyidagi tashkil etuvchi jixozlar kerak bo'ladi.

- LM 339N yoki LM 358 turdagi kuchaytirgich;
 - ikkita 9 V li tok manbai;
 - ikkita 6,5 yoki 10 kOm potensiometr, chiziqli o'zgaradigan;
 - bitta yoritkich (diodli);
 - bitta 330 Om bo'lgan qarshilik;
 - bitta 470 Om bo'lgan qarshilik;
- Kuchaytirgich **Comparator** bo'lib ishlashi, ya'ni taqqoslab ishlashi.




Taqqoslab ishlaydigan (Comparator) zanjirda ikkita kelayotgan kuchlanish signallarni taqqoslaydi va qaysi kattaligini hisoblaydi. Taqqoslangan kuchlanish signalini tashqariga uzatadi.

Signallar qo'llanish turi va xususiyatlariga qarab ikki turga bo'linadi:


- analog
- raqamli.

Analog signal - bu signal turi, vaqt birligi ichida har qanday miqdor bo'lib, ular kuchlanish, bosim, temperatura, yuklanish va x.k. bo'lishi mumkin. Ular ham uchta sinfga bo'linadi, *signal darajasi*, *signal shakli* va *signal chastotasi*.



4.6-rasm.

Raqamli signallar. Bu turdagi signallar vaqt birligi ichida xohlagan miqdorda o'lchab bo'lmaydi, lekin ularni signal holati va soniga qarab raqamli ekanligi aniqlanadi. Raqamli signalning satxi yuqori va quyi qismlarga ajratiladi, miqdori esa ketma-ket raqamlar tartibida bo'ladi.



-rasm.


14-mavzu. Taqlidli elektr yuritmalar. Adaptiv boshqarishli elektr yuritmalar. Ishlab chiqarishni avtomatlashtirish sistemalarida elektr yuritmalar qo'llanilishning istiqbollari.

Muayyan afzalliklarga ega bo'lgan yuritmaning bu turi mashinani maqsadga muvofiq tarzda boshqarib bo'lmashligi, uzatish qurilmalarida energiyani ko'p isrof bo'lishi kabi kamchiliklarga ega.

Bundan tashqari bu qurilmalar ko'p sonli uzatish tasmlari va transmissiyalardan tashkil topganligi uchun, ular ishlatish chog'ida ishchilar hayotiga xavf tug'diradi.

Individual elektr yuritma ish mashinasining bitta ijrochi organining harakatini ta'minlaydi (3-rasm). Shuning uchun, bitta mashina uchun bir necha individual yuritmalar ishlatiladi. Masalan, tokarlik dastgohida individual bosh va ikkita yordamchi yuritmalar ishlatiladi. Individual elektr yuritma tizimida energiya elektr

zanjirlarida bo'linadi. Bu yuritma uzatish qurilmalari va ish mashinasi kinematikasini soddalashtirish imkoniyatini beradi. Aksariyat hollarda ish mexanizmining ijrochi organining o'qi dvigatel rotori (yakor) bilan umumiy o'q hosil qiladi. Individual elektr yuritmaning asosiy afzalliklari bu energiyani bo'linishidagi isrofning kamayishi, UQ va IM kinematikasini soddalashtirish hisobiga metall sarflari kamaytirish, elektrlashtirilgan agregat ishonchlilikini oshirish, ijrochi organlarni boshqarish jarayonlarini avtomatlashtirishni soddalashtirish imkonining mavjudligidir.




3-rasm. Individual elektr yuritmaning funksional sxemasi.

O'zaro bog'langan elektr yuritma ikkita yoki bir nechta (o'zaro mexanik yoki elektr) bog'langan elektr yuritmalarning ish jarayonida berilgan nisbatga ko'ra yoki ijrochi organ harakatini muayyan koordinatalar bo'yicha takrorlash amalga oshiriladi. Hozirda amaliyotda o'zaro bog'langan elektr yuritmalari qog'oz ishlab chiqarish va sanoatning turli tarmoqlarida keng ko'lamda qo'llanilmoqda.

Bunday elektr yuritmalarning afzalliklari ular yordamida texnologik jarayonni yanada yuqori darajaga ko'tarish va shu yo'l bilan avtomatlashtirishni amalga oshirilishidir.

Ko'p dvigatelli elektr yuritma deb, elektr dvigatel qurilmasi birgalikda bitta o'qda yoki bitta mashinada o'qlari o'zaro bog'lanmagan yuritmaga aytiladi (4-rasm). Bunday elektr yuritmalarda texnologik yoki texnik imkoniyatlardan kelib chiqqan holda bir emas, balki bir nechta elektr dvigatel qurilmalaridan foydalaniladi.



4-rasm. Ko'p dvigatelli elektr yuritmaning funksional sxemasi.

Elektr yuritmaning tarixi XIX asrning birinchi yarmidan, ya'ni magnit maydonining tok oqayotgan o'tkazgich bilan o'zaro mexanik ta'siri to'g'risidagi qonun, elektromagnit induksiya qonuni hamda bu qonunlar asosida aylanuvchi harakatni amalga oshiradigan o'zgarmas tok elektr dvigatelin kashf etilishidan boshlangan. Keyinchalik o'zgaruvchan tokni uzatishning uch fazali tizimini, transformator va assinxron dvigatelning yaratilishi elektr yuritmani sanoatda keng qo'llash imkoniyatini yaratdi.

So'nggi yillarda turli konstruksion va ko'rinishdagi elektromexanik o'zgartgichlardan foydalanish, hisoblash texnikasi vositalarini boshqarish tizimlariga keng ko'lamda qo'llash va elektr yuritmaning boshqa funksiyalarini avtomatlashtirish tufayli elektr yuritma nazariyasida yangi yo'nalishlarga asos solindi.

Birinchi yo'nalish - elektromexanik o'zgartgichlardan elektromagnit, pyezokeramik va boshqa dvigatellarning yangi konstruksiyalari xususiyatlarini kengroq o'rganish.

Ikkinchi yo'nalish - elektr yuritma tizimi dinamikasini tadqiq etishning yangi usullarini ishlab chiqish zarurligi.

Uchinchi yo'nalish - yuritma va uning elementlari tavsifmi hisoblashning an'anaviy usullaridan voz kechib, yangi samarali usullarni yaratish va ularning dastur ta'minotini amalga oshirish.

To'rtinchi yo'nalish - energiya tejamkorligini ta'minlaydigan avtomatlashtirilgan elektr yuritmalarini ishlab chiqish va ularni amalda tatbiq etish.

Hozirda komplekt yuritmalar, ularning kuchli qismlarini boshqarishning kompyuter tizimi yaratilgan bo'lib, bular yuqorida keltirilgan yo'nalishlarni ma'lum darajada hal etish imkonini beradi.

15 mavzu. Elektr yuritmalarning tezliklarini rostdash to'g'risida umumiy ma'lumotlar. Tezliklarni rostdashning asosiy ko'rsatkichlari.

Assinxron dvigatellarning tezligini rostdash uch xil usulda amalga oshirilishi mumkin. Birinchi usul - parametrik rostdash bo'lib, u dvigatelning ayrim parametrlarini o'zgartirish bilan bog'liq. Bunda stator zanjirining aktiv yoki aktiv-

induktiv qarshiliklarini; rotor zanjirining aktiv yoki aktiv-induktiv qarshiliklarini; mashinaning qutblar sonini o'zgartirish mumkin.

Ikkinchi usul rotor zanjiriga qo'shimcha EYK kiritib yoki qo'shimcha EYK hosil qilish maqsadida maxsus qo'shimcha chulg'am qo'Mlash orqali bajariladi (o'zgaruvchan tok kollektorli mashinalar). Tezlikni rostlashning uchinchi usuli dvigatel ta'minot manbayi qiymatlarini o'zgartirish bilan bog'liq. Bu esa dvigatel kuchlanishini; dvigatel ta'minot manbayi chastotasini; dvigatel ta'minotirii impuls ravishda o'zgartirish orqali amalga oshiriladi. Hozirda assinxron mashina tezligini rostlashning quyidagi: chastota orqali rostlash, bunda chastota boshqariladi va statordagi kuchlanish shakllantiriladi; chastota-tokli boshqarish, bunda chastota boshqariladi va tok shakllantiriladi; vektorli boshqarish, bunda mashinaning asosiy magnit ilashishi vektori shakllantiriladi; momentni bevosita boshqarish usullari mavjud.

Assinxron mashina uchun tarmoqdan berilgan quvvat quyidagi ko'rinishga keltiriladi:

$$P_t = M * \omega_0 = P_t S + P_t (1 - S) = \Delta P + P_m \quad (4.30)$$

bu yerda: $P_t, P_m, \Delta P$ - mos ravishda tarmoqdan berilgan, mexanik ishga aylantirilgan va isrof bo'layotgan quvvatlar; M - elektromagnit moment.

Tezlikni rostlash rejimlari mashina parametrlarini uzoq vaqt nominal qiymatdan og'ishiga olib keladi. Shuning uchun bu yerda energiya isrofi qurilmaning FIK va quvvat koeffitsiyenti muhim rol o'ynaydi.

R otor zanjiriga qo'shimcha qarshilik kiritish. Simmetrik aktiv qarshiliklar kiritilganda kritik sirpanish ortadi, kritik moment esa o'zgarmay qoladi. Demak, tezlikni yuklama momenti o'zgarmay qolganda ham rostlash mumkin. Sirpanish energiyasi qo'shimcha qarshiliklarda chiqib ketganligi uchun mashinaning qizishi xuddi nominal rejimdagidek saqlanib qoladi. $S_i = 0,5$ ga teng bo'lgandayoq umumiy sirpanish isroflari mexanik ishga aylanadigan quvvatga teng bo'ladi. $M_c = M_{nom}$ bo'lganda rostlash diapazonini quyidagi formula orqali hisoblash mumkin:

$$D = \frac{\omega_{nom}}{\omega_{min}} = 1 - \frac{S_{nom}}{v_{min} \left[1 - \frac{S_{nom}}{\mu_1 - 1} \right]} * \mu_1 \quad (4.31)$$

bu yerda: ω_{nom} va ω_{min} - dvigatel burchak tezligining nominal va minimal qiymatlari; v_{min} - minimal tezlikning nisbiy qiymati; μ_1 - ishga tushirish momentining nisbiy qiymati.

Odatda, μ_1 ning qiymati $\mu_1 = 1,5-2,0$ oralig'ida beriladi, u holda,

$D = (3.0 - 2.0)(1 - S_{nom})$ yuritmaning FIK ni topamiz:

$$\eta_{\omega'r} = \frac{P_{nom}}{P_t} = \frac{M_{nom}\omega}{M_{nom}\omega_0} = v_i.$$

FIK ning o'rtacha qiymati:

$$n_{or} = \left(D + \frac{1}{2D}\right) * n_t,$$

bu yerda: n_t - dvigatelning nominal qiymatlari berilganda tabiiy tavsifdagi FIK.

Bu holda dvigatelning quvvat koeffitsiyenti ham o'zgaradi. Induktiv qarshilik S_{kr} va M_{kr} qiymatlarini kamaytiradi va quvvat koeffitsiyentini pasaytiradi. Shuning uchun amalda asosan rotorda faqat aktiv-induktiv qarshilikdan foydalaniladi. Rostlashning bu usuli reostatli rostlashga qaraganda faqat ravonligi bilan farq qiladi.


Bunday rostlash usullarida quvvat isrofi katta bo'ladi. Shu bois bu usul amalda kam qo'llanadi.

Statordagi kuchlanishni o'zgartirib assinxron mashinalarning tezligini rostlash. Kuchlanishni kamaytirganda kritik sirpanish o'zgarmaydi, kritik moment esa kamayadi (4.2-rasmga qarang). Bunday rostlash usulidagi tavsiflar statorga qo'shimcha qarshilik kiritilgandagi ifodalarga yaqin bo'ladi. Kichik tezliklarda mumkin bo'lgan moment qiymatini oshirish maqsadida faza rotorii dvigatellarda rotorga qo'shimcha qarshilik kiritish mumkin. Yuritma energetikasi, taxminan, statorga qo'shimcha qarshilik kiritilgandagidek; tezlik kamayishi bilan qurilmaning FIK va quvvat koeffitsiyenti kamayadi. Statordagi kuchlanish ortganda tezlik asosiy tezlikdan birmuncha yuqoriroq bo'lishi mumkin. Ammo bu holda mashina to'yinib, po'latdagi isroflar to'satdan ortib ketadi.

Agarda avtotransformator qo'llanilsa, kuchlanish pasayganda statordagi aktiv va induktiv qarshilik ko'payadi, kritik sirpanish esa kamayadi. Bunday sxemada rostlash diapazoni $D = 1,2+1,3$ ga teng bo'ladi.

Tezlikni mashinaning juft qutblar sonini o'zgartirib rostlash. Oddiy texnologik va ishlab chiqarish jarayonlarini bajaradigan ko'plab mexanizmlar tezlikni ravon rostlashni talab qilmaydi. Ular uchun tezlikni ikki, uch pog'onada rostlashga mo'ljallangan yuritmalar yetarli bo'ladi. Bu mexanizmlarga yuk va passajir tashuvchi liftlar, yog'ochga ishlov beruvchi dastgohlar, markazdan qochma separatorlar va boshqa mashinalar kiradi.


Bu holda yuritmada ko'p tezlikli elektr dvigatelidan foydalaniladi. Bunday dvigatellar konstruktiv jihatdan ikki turda: statorning bitta paziga turli juft qutbli bir nechta chulg'amlar joylashgan; chulg'am seksiyalami ma'lum tarzda ulaganda juft qutblar sonini o'zgartirish imkonini beradigan bir nechta chulg'amli qilib bajariladi.



4.12-rasm. Ko'p fazali assinxron dvigatelning stator fazalari seksiyalarining ulanish sxemalari: juft qutblar sonini $2p = 8$ (a) va $2p = 4$ ni seksiyalarni ketma-ket (b) va parallel (c) ulagan holatdagi sxemalari.

Agarda assinxron mashinada stator qutblar soni o'zgartirilsa, rotoring qutblar sonini ham shu songa o'zgartirish kerak. Bu jarayon «olmajon katakli» rotor bo'lgan mashinalarda avtomatik tarzda amalga oshirilganligi bois ko'p tezlikli dvigatellar faqat qisqa tutashgan rotorli bo'ladi.

Statorning bir pazida bir nechta chulg'amli ko'p tezlikli dvigatel boshqacha turdagi dvigatellardan o'zining o'lchamlari, massasi, FIK va quvvat koeffitsiyentining pastligi tufayli orqada qoladi. Juft qutblar sonini 2 : 1 nisbatda almashlab ulash sxemasi 4.12-rasmda keltirilgan.



4.13-rasm. Ikki tezlikli dvigatelning mexanik tavsiflari: a – o'zgarmas moment rejimida; b – o'zgarmas quvvat rejimida.

Bu yerda soddalashtirish maqsadida statorning bitta faza chulg'ami keltirilgan. Chulg'amnlarni ulanish sxemasidan ko'rinib turibdiki, seksiyalar ketma-ket hamda parallel ulanganda ham juft qutblar soni olinadi. Ko'p tezlikli dvigatelga ega bo'lgan yuritmalarda tezlik chulg'amlami turli ravishda ulash bilan rostlanadi. Bu ulanishlarni o'zgarmas moment hamda o'zgarmas quvvat rejimida amalga oshirish mumkin.

16 mavzu. Elektr yuritma dinamikasi to'g'risida umumiy ma'lumotlar. Elektr yuritmaning xarakat tenglamasi va uning taxlili.

Zamonaviy ishlab chiqarishda elektromexanik qurilmalar vositasida ishchi mashinalari samarali boshqariladi. Bunda mexanizmning ish organida kerakli tezlik va tezlanishlarni ta'minlashni, kuchlarni cheklashni hamda mo'tadillashni talab qiladigan rejim elektr yuritma bloklariga dasturlash qurilmasi orqali yoki operator vositasida beriladigan buyruqlar hisobiga ta'minlanadi. Bir rejimdan boshqasiga o'tish boshqarish ta'sirini o'zgartirish hisobiga amalga oshiriladi.

Shuni qayd etish kerakki, zamonaviy elektr yuritma ko'pincha o'tkinchi rejimda ishlaydi. Bunda jarayonlarning xarakteri, davomiyligi, tezlanishlar, momentlarning yuqori qiymatlari va boshqa omillar texnologik jarayonga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Ko'p hollarda ish mashinalari unumdorligini oshirish uchun ishga tushirishda eng kam o'tkinchi jarayon vaqti va eng kam tormozlash vaqti talab qilinadi. Bu vaqt ichida texnologik jarayon to'xtagan yoki sekin o'tayotgan bo'ladi. Lekin jarayonlarni tezlashtirish tebranishlarning kattalashuviga, joiz tok va momentlarning cho'qqilari paydo bo'lishiga olib keladi.

Elektr yuritma dinamikasini tahlil etayotganda, hatto oddiy holatlarda ham mexanik inersiyani hisobga olish kerak. Agarda barcha massalar dvigatel o'qiga keltirilsa, ya'ni bitta massali tizim ko'rilsa, u holda bu tizim birinchi darajali differensial tenglama bilan, ya'ni harakat tenglamasi deb ataladigan tenglama bilan ifodalanadi.

Hozirda barcha ishlab chiqarish jarayonlarini jadallashtirish munosabati bilan, ko'pincha dinamikani tahlil etayotganda elektrmagnit hodisalarni, ya'ni zvenolarning elektrmagnit inersiyasini hisobga olish zarur. Masalan, mustaqil qo'zg'atishli o'zgaruvchi tok dvigatelli yuritmada, agar boshqarish yakor zanjiri orqali amalda oshirilayotgan bo'lsa, faqat yakor vaqt doimiysini hisobga olish kerak. Murakkab tizimlarda esa bir nechta vaqt doimiylarini hisobga olish zarur.

Chiziqli xususiyatga ega bo'lgan tizimlarni tadqiq etish, odatda, chuqur ishlab chiqilgan chiziqli differensial tenglamalar nazariyasi bo'yicha amalga oshiriladi. Bu holda barcha yechimlar tahlil qilishga qulay bo'lgan analitik shaklda olinib, bunda har bir parametr va vaqt doimiysining dinamikaga ta'sirini ko'rish mumkin. Bu esa parametrlarni bir necha bor o'zgartirish bilan amalga oshiriladi. Avval eng oddiy tizim variantini ko'rib chiqamiz, bu tizim uchun $M_q = \text{const}$ va $J = \text{const}$, barcha mexanik bog'lanishlarni qattiq, deb hisoblaymiz.

Bunday shartlarda tizimning dinamikasi bitta momentlar muvozanati tenglamasi bilan ifodalanadi:

$$M_d - M_q = J * dt/dt$$

Mexanik tavsifni to'g'ri chiziqli deb qarab, quyidagini yozish mumkin:

$$\omega = \omega_0 * \left(1 - \frac{M_d}{M_{q,t}}\right) \quad (6.1)$$

bu yerda: $M_{q,t}$ -dvigatelning rotor qo'zg'almas bo'lgandagi qisqa tutashish momenti, bu yerdan

$$M_d = M_{q,t} * \left(1 - \frac{\omega}{\omega_0}\right) \quad (6.2)$$

Harakat tenglamasiga (6.2) ni qo'yib, quyidagini olamiz:

$$J * \frac{d\omega}{dt} + M_{q,t} * \frac{\omega}{\omega_0} = M_{q,t} - M_q. \quad (6.3)$$

Qisqa tutashish momenti mustaqil qo'zg'atishli o'zgarmas tok mashinalarida yakorga qo'yilgan kuchlanishga, o'zgaruvchan tok mashinalarida esa kuchlanish kvadratiga proporsional bo'ladi. Shuning uchun tenglamaning birinchi qismi qisqa boshqarish ta'sirini, ikkinchisi esa tashqi ta'simi ko'rsatadi.

$\frac{M_{q,t}}{\omega_0} = c$ dvigatel mexanik tavsifi qattiqligini belgilovchi burchak koeffitsiyentidir. Shuning uchun quyidagini yozish mumkin:

$$J * \frac{d\omega}{dt} + c\omega = M_{q,t} - M_q \quad (6.4)$$

Tenglamani c ga bo'lib, quyidagini olamiz:

$$\frac{J}{c} * \frac{d\omega}{dt} + \omega = \omega_0 - \left(\frac{1}{c}\right) * M_q \quad (6.5)$$

Quyidagi belgilashlarni kiritamiz: $K_c = \frac{1}{c}$ va $\frac{J}{c} = T_M$, bu yerda T_M — elektromexanik vaqt doimiysi

$$C = \frac{M_{q,t}}{\varphi_0} = \frac{M_{nom}}{\varphi_0 - \varphi_{nom}} = \frac{M_{nom}\phi_0}{(\varphi_0 - \varphi_{nom})} = \frac{M_{nom}}{\varphi_0 S_{nom}} \quad (6.7)$$

bu yerda: S_{nom} - nominal sirpanish.

Mustaqil qo'zg'atishli o'zgarmas tok mashinasi uchun elektromexanik vaqt doimiysi ifodasiga yuritma parametrlari va dvigatelning konstruktiv koeffitsiyentlarini kiritish ham mumkin.

Bu holda,

$$c = \frac{M_{q,t}}{\omega_0} = K_E * K_M * \frac{I_{q,t}}{U} = K_E * \frac{K_M}{r} \quad (6.8)$$

bu yerda: r - yakor zanjiri qarshiligi.

$$T_M = J * \frac{r}{K_E * K_M} \quad (6.9)$$

Elektromexanik vaqt doimiysi ifodasiga ko'ra, u inersiya momenti va yakor zanjiri qarshiligiga bog'liq bo'ladi.

O'zgaras tok mashinasi uchun (6.8) ni hisobga olgan holda

$$K_c M_q = \frac{M_q}{C} = K_M * I_q * \frac{r}{K_E * K_M} = \Delta\omega_q. \quad (6.10)$$

Bu tezlikni statik qarshilik momenti M_q va unga mos keladigan qarshilik toki I_q ta'siri ostida pasayishini ko'rsatadi. Shunday qilib, (6.6) ifodani quyidagi ko'rinishga keltirish mumkin.

$$T_M * \frac{d\omega}{dt} + \omega = \omega_0 - \Delta\omega_q \quad (6.11)$$

Yoki

$$T_M * \frac{d\omega}{dt} + \omega = \omega_q \quad (6.12)$$

mos ravishda xarakteristik tenglama quyidagi ko'rinishga ega:

$$T_M p + 1 = 0, \quad (6.13)$$

uning ildizi $p = -1/T_M$. Tezlik uchun o'tkinchi jarayonda ifoda quyidagi ko'rinishda yozilishi mumkin.

$$\omega = A e^{-e T_M} + \omega_q.$$

Umumiy holda quyidagi ko'rinishda yozilgan boshlang'ich shartlar uchun $t = t_0$ bo'lganda $\omega = \omega_{bosh}$, $A = \omega_{bosh} - \omega_0$ ni olamiz, bu yerdan

$$\omega = \omega_q \left(1 - e^{-\frac{t}{T_M}} \right) + \omega_{bosh} e^{-\frac{t}{T_M}} \quad (6.14)$$

O'tkinchi jarayonda dvigatel momenti ifodasini yozish uchun (6.14) ni (6.12) formulaga qo'yamiz.

$$M_d = M_{q.t} \left[1 - \frac{\varphi_q}{\varphi_0} \left(1 - e^{-\frac{1}{T_M}} \right) - \frac{\varphi_{bosh}}{\varphi_\varphi} e^{-\frac{1}{T_M}} \right]. \quad (6.15)$$

$\frac{M_{q.t}}{\omega_0} = c$ mexanik tavsifning burchak koeffitsiyenti bo'lganligi uchun

$$M_q = M_{q.t} - c\omega_q \left(1 - e^{-\frac{t}{T_M}} \right) - c\omega_{bosh} e^{-t/T_M}$$

Yoki

$$M_d = M_{q,t} - (M_{q,t} - M_q) \left(1 - e^{-\frac{t}{T_M}}\right) - (M_{q,t} - M_{bosh}) e^{-\frac{t}{T_M}}. \quad (6.16)$$

Bu yerdan

$$M_d = M_q \left(1 - e^{-\frac{t}{T_M}}\right) + M_{bosh} e^{-\frac{t}{T_M}} \quad (6.17)$$


Mustaqil qo'zg'atishli o'zgarmas tok dvigateli uchun $M_d = K_M I$ ni e'tibDvigatelni ishga tushirishdagi tok va tezlik grafiklari 6.1- rasmda, yuklama tushgandagi grafiklar esa 6.2-rasmda keltirilgan. Shuorga olgan holda yakor tokini quyidagicha yozish mumkin:

$$I = I_q \left(1 - e^{-\frac{t}{T_M}}\right) + I_{bosh} e^{-\frac{t}{T_M}} \quad (6.18)$$


Dvigatelni ishga tushirishdagi tok va tezlik grafiklari 6.1- rasmda, yuklama tushgandagi grafiklar esa 6.2-rasmda keltirilgan.

gan. Shunga o'xshash grafiklarni (6.14), (6.17), (6.18) tenglamalar bo'yicha tormozlash va reverslash jarayonlari uchun ham olish mumkin. Ular $\omega_{bosh}, I_{bosh}, M_{bosh}$ boshlang'ich shartlari bilan farqlanadi. Reverslash jarayonida tezlik nol qiymatga erishganda uzilish sodir bo'ladi. Chunki statik (qarshilik) momenti reaktiv bo'lsa, o'z ishorasini sakrab o'zgartiradi.

Shuning uchun barcha jarayonni ikki bosqichga boMish mumkin. Boshlang'ich tezlikdan to'xtagunga qadar va nol tezlikdan (to'xtagandan) teskari tomonga aylanuvchi yangi turg'un tezlikkacha boMgan bosqich. Qarshilik (statik) moment aktiv bo'lganda, uning ishorasi o'zgarmaydi va barcha jarayon bitta tenglama bilan aniqlanadi.



6.1-rasm. $M_q = \text{const}$, $M_q = k\omega$ va $M_q = k\omega^2$ bo'lgandagi o'tkinchi jarayon grafiklari.



6.2-rasm. Yuklama berilganda moment va tezlikning o'zgarish grafiklari.

Shunga o'xshash bog'lanishlar $M_q = M_o + K\omega$ bo'lgan holat uchun ham olinishi mumkin. Bunda harakat tenglamasi quyidagi ko'rinishga ega bo'ladi:

$$M_d - M_o - K\omega = J * \frac{d\omega}{dt},$$

Yoki

$$J * \frac{d\omega}{dt} + \frac{M_{q.t}\omega}{\omega_o} + K\omega = M_{q.t} - M_o \quad (6.19)$$

$M_{q.t}/\omega$ deb belgilasak, u holda

$$J * \frac{d\omega}{dt} + (c + K) * \omega = M_{q.t} - M_o, \quad (6.20)$$

yoki $c + K = c^I$ deb belgilab, quyidagi ifodaga ega bo'lamiz:

$$J * \frac{d\omega}{dt} + c^I \omega = M_{q.t} - M_o, \quad (6.21)$$

Olingan bu ifoda (6.4) ga o'xshash bo'lib, tezlik, moment va tok uchun tenglamalar oxirgi ko'rinishda quyidagicha yoziladi:

$$\omega = \omega_T(1 - e^{-t/T^I_M}) + \omega_{bosh} \cdot e^{-t/T^I_M}. \quad (6.22)$$

$$M = M_T(1 - e^{-t/T^I_M}) + M_{bosh} \cdot e^{-t/T^I_M}. \quad (6.23)$$

$$I = I_q(1 - e^{-t/T^I_M}) + I_{bosh} e^{-t/T^I_M} \quad (6.24)$$

Bu yerda farq vaqt doimiysi $T^I_M = J/c^I$ va ω_T tezlik I_T tok va M_T momentlarning turg'un qiymatlaridir. Momentning o'atilgan qiymati mexanik tavsif bilan statik moment chizig'i kesishgan nuqtasi bilan aniqlanadi (6.3-rasm). Bu holda elektromexanik vaqt doimiysini quyidagicha yozish mumkin:


$$T^1_M = \frac{J}{C^1} = \frac{J}{C + K} = \frac{J}{\frac{M_{q.t}}{\omega_o} + \frac{M_T - M_o}{\omega_T}}.$$

6.3-rasmga muvofiq $M_{q.t}/\omega = M_t/(\omega_o - \omega)$ bo'lgani uchun quyidagini olamiz:

$$T^1_M = \frac{J}{\frac{M_{q.t}}{\omega_o} + \frac{M_T - M_o}{\omega_T}} = \frac{J\omega_T(\omega_o - \omega_T)}{M_T\omega_o - M_o(\omega_o - \omega_T)} = \frac{J\omega_T S_T}{M_T - M_o S_T} \quad (6.25)$$

Bu yerda

$$S_T = (\omega_0 - \omega)/\omega_0$$



6.3-rasm. Statik momentlar turlicha bo'lgan holat uchun mexanik tavsifdagi ish nuqtalari.

Xususiylarni ko'rib chiqamiz. Tezlikka proporsional bo'lgan statik momentning tashkil etuvchisi bo'lmagan, ya'ni $M_t = M_0$ da oldingi olingan natijaga kelimiz. Agarda doimiy tashkil etuvchi bo'lmasa, ya'ni $M_0 = 0$ bo'lsa, u holda,

$$T_m^l = \frac{J_t S_t}{M_t},$$

bu yerda: $\omega_T = \omega_{T0}$, T_M va T_M^l vaqt doimiylarining qiymatlari orasidagi bog'lanish:

$$T_M^l = \frac{J \omega_T S_t}{M_t} = \frac{J \omega_T S_{nom}}{M_{nom}} = \frac{J \omega_0 S_{nom} \omega_T}{M_{nom} \omega_0} = T_M \cdot \frac{\omega_T (1 - S_T)}{\omega_0} = T_M (1 - S_T). \quad (6.27)$$

Demak, statik (qarshilik) momentga tezlik chiziqli ravishda bog'liq bo'lsa, vaqt doimiysi kamroq bo'ladi va o'tkinchi jarayon tezroq kechadi. 6.1-rasmda solishtirish uchun tezlik va moment o'zgarishining egri chiziqlari ham $M_q = M_0$ da hamda $M_q = k\omega$ bo'lganda keltirilgan. Shu rasmda $M_q = k\omega^2$ bo'lgan hol uchun egri chiziqlar keltirilgan. Ko'rinib turibdiki, bu holda jarayonlar tezroq kechadi.

17 mavzu. Elektr yuritmalarda o'tkinchi jarayonlar. Elektr motorlarning qizish va sovish normalari. Qizish doimiysi va uni aniqlash usullari.

Oddiy elektr yuritma tizimlarida elektr zanjiriga qo'shimcha element-qarshilik kiritib parametrik boshqarish amalga oshiriladi. Bu holda tabiiyki, zanjir parametrlari «sakrab» (birdaniga) o'zgaradi. Parametrlarni o'zgartirib, quyidagilar amalga oshiriladi: faza rotorli assinxron dvigatel va o'zgarmas tok dvigatelinini ishga tushirish jarayoni, ularning tezliklarini parametrik boshqarish, tormozlash rejimini amalga oshirish, reverslash va boshqalar.

Bunda o'tkinchi jarayonlarni tahlil etishni bosqichma-bosqich amalga oshirish kerak. Ularning har birida parametrlarni o'zgarish deb qabul qilib bo'laklarning (bosqichlarning) bir-biri bilan tutashgan joyida boshlang'ich shartlarni o'zgartirib ulash kerak.

Mustaqil qo'zg'atishli o'zgarish tok dvigatelinini ishga tushirish dinamik jarayonini ko'rib chiqamiz. Avval ko'rsatilganidek, dvigatelnini ishga tushirish diagrammasida maksimal tok I_1 va pog'onalarida chiqarishdagi tok I_2 reostatning barcha pog'onalarida o'zgarish bo'lib qoladi. Natijada uchastkaning boshida tok I_1 ga, oxirida esa I_2 ga teng bo'ladi. Mexanik o'tkinchi jarayon shartlarida zanjirlardagi induktivlikni hisobga olmaganimiz sababli tokning I_2 va I_1 gacha o'sishi sakrash bilan yuz beradi. Har bir bo'lakda elektromexanik vaqt doimiysi o'z qiymatiga ega bo'ladi va u yakor qarshiligiga proporsional bo'ladi:

$$T_M = \frac{Jr}{K_E} * K_M,$$

ya'ni, birinchi pog'ona qarshiligida elektromexanik vaqt doimiysi eng katta qiymatga teng bo'lib, tabiiy tavsifga o'tayotganda minimal qiymatga ega bo'ladi. Shunga mos ravishda pog'onalarda dvigatelning ishlash vaqti ham turlicha bo'ladi, ya'ni eng katta vaqt birinchi pog'ona qarshiligida bo'lsa, oxirida vaqt minimal qiymatga ega bo'ladi.

Tezlikning orta borish tenglamasi hamma pog'onalar uchun bir xil bo'ladi, ya'ni:


$$\omega = \omega_{q,t} \left(1 - e^{-\frac{t}{T_M}} \right) + \omega_{bosh} e^{-t/T_M}, \quad (6.28)$$

bu yerda: ω_{qx} - ko'rilayotgan pog'onadagi mexanik tavsifda ishlayotgandagi tezlikning turg'un qiymati. Har bir pog'ona uchun o'zining ω_{qx} qiymati mavjud. ω_{q1}, ω_{q2} va h. k. (6.4- rasm). Tezliklar mexanik tavsifning berilgan statik yuklamaga muvofiq tokka (momentga) to'g'ri keladigan vertikal bilan kesishgan nuqtasi bilan aniqlanadi.

Yakor tokining ifodasi quyidagicha yoziladi:

$$I = I_q \left(1 - e^{-\frac{t}{T_M}} \right) + I_1 e^{-t/T_M},$$

bu yerda: $I_1 = I_{bosh}$ -reostatni o'zgartirgan holatidagi har bir uchastka (bo'lak) boshidagi jarayonda hosil bo'ladigan tok: $I_q = M_q/K_M$. Ishga tushayotganda tok va tezlik o'zgarishining egri chizig'i 6.5-rasmda keltirilgan. Egri chiziq xarakteri odatda uchastka uzunligini qayd etuvchi rele yoki tok relesi yordamida avtomatik ravishda ta'minlanadi.




6.4-rasm. Dvigatelni reostat yordamida ishga tushirilgan holatidagi mexanik tavsiflar.

Yakor tokining ifodasi quyidagicha yoziladi:

$$I = I_q \left(1 - e^{-\frac{t}{T_M}} \right) + I_1 e^{-\frac{t}{T_M}},$$

bu yerda: $I_l = I_{bosh}$ - reostatni o'zgartirgan holatidagi har bir uchastka (bo'lak) boshidagi jarayonda hosil bo'ladigan tok: $I_q = M_q / K_M$. Ishga tushayotganda tok va tezlik o'zgarishining egri chizig'i 6.5-rasmda keltirilgan. Egri chiziq xarakteri odatda uchastka uzunligini qayd etuvchi rele yoki tok relesi yordamida avtomatik ravishda ta'minlanadi. Shunga o'xshash jarayonni dvigatelni tormozlashda ham olamiz. Teskari ulab tormozlashda odatda bitta pog'ona qarshilik ulanadi. Tabiiyki, bu holda katta pog'ona qarshiligi kiritilgani uchun tormozlash bosh qichida eng katta vaqt doimiysiga ega bo'lamiz. Lekin tormozlash vaqti katta bo'lmaydi. Chunki tormozlash jarayonida dvigatel momenti bilan qarshilik momentining ayirmasi $M_d - M_q$ emas, balki ularning yig'indisi ta'sir etadi.



6.5-rasm. Dvigatelni ishga tushirayotgan holatidagi tok va tezlik grafiklari.

Reverslash jarayoni eksponensial qonunga bo'ysunadi, agar statik moment aktiv bo'lsa, bir tomondan boshqa tomonga ravon aylanadi.

Shunga o'xshash o'tkinchi jarayon, ya'ni tezlik bilan momentning o'zgarishi faza rotorli assinxron dvigatellarda ham kechadi.

18 mavzu. Elektr yuritmalarni tanlash, boshqarish jihozlari va avtomatik boshqarish. Yuritmalar yuklanish diagrammasi. Elektr motorlar quvvatini tanlash va xisoblashning umumiy holatlari.

Yuqorida ko‘rib chiqilgan elektr yuritmaning harakat tenglamasi o‘tkinchi jarayonlarning o‘tish vaqtini belgilaydi. Ish agregatini ishga tushirish va uni to‘xtatish jarayonlari ishlab chiqarish siklining ajralmas qismidir. Bu jarayonlarga to‘g‘ri keladigan vaqtning davomiyligini bilish kerak. Chunki bu vaqtda agregat foydali ish bajarmaydi. Ishga tushirish va tormozlash uchastkalarini qisqartirib, ish unumdorligini oshirish mumkin.

Ko‘pgina ish agregatlarida $J = \text{const}$ bo‘ladi. Bu shartni qabul qilib quyidagini yozish mumkin.

$$dt = J \frac{\partial \omega}{M_d - M_q},$$

Bu yerdan

$$t = J \int_{\varphi_1}^{\varphi_2} \frac{1}{M_d - M_q} \quad (6.29)$$

Ushbu (6.29) ifodani integrallash dvigatel momenti va qarshilik momenti tezlikni ma’lum bo‘lgan funksiyasi, ya’ni $M_d = f(\omega)$ va $M_q = f(\omega)$ bo‘lganda amalga oshirilishi mumkin. Foydalanilayotgan asosiy dvigatellar uchun momentning tezlikka bog‘liqligi, tezlikning chiziqli funksiyasidir. Statik (qarshilik) momentning qiymati ko‘pincha o‘zgarmas yoki tezlikka chiziqli bog‘liq holda ko‘riladi. Shuning uchun (6.29) ifodani integrallash qiyinchilik tug‘dirmaydi.

Lekin boshlanishida xususiy oddiy hollarni ko‘rib chiqamiz. Ko‘pincha ishga tushirishda dvigatel momenti o‘zgarmas saqlab turiladi. Bu reostat seksiyalarini ketma-ket chiqarish bilan (6.6- rasm) yoki yopiq tizimlarda tokni chegaralovchi teskari bog‘lanishlar kiritish yo‘li bilan amalga oshiriladi.

Odatda, dvigatel momentining o‘rtacha qiymati nominal qiymatdan ortib ketadi va $M_d = k_m M_{nom}$ deb qabul qilinishi mumkin, bu yerda: $k_m > 1$. Bir necha mexanizmlar uchun statik moment asosan ishqalanish bilan aniqlanadi va uni ham o‘zgarmas deb qabul qilish mumkin. $M_d = \text{const}$ va $M_q = \text{const}$ bo‘lganda tezlatish vaqti quyidagicha aniqlanadi:

$$t_T = J \int_0^{\varphi_q} \frac{1}{\lambda_M M_{nom} - M_q} d\omega = \frac{J \varphi_q}{\lambda_M M_{nom} - M_q} \quad (6.30)$$

Bu ifoda ω_q - dvigatelning turg‘un holatda $M_d = M_q$ bo‘lgandagi tezligi qiymatiga to‘g‘ri keladi.

Salt ishlash rejimi uchun ifoda yanada soddalashadi:

$$t_{to} = \frac{J\omega_0}{\lambda_m * M_{nom}} \quad (6.31)$$

Olingan ifodadan shu narsa ma'lum bo'ladiki, dvigatelning berilgan quvvatida tezlatish vaqti elektromexanik qurilmaning aylanayotgan qismlaridagi kinetik energiya zaxirasiga proporsional bo'ladi

Shunga o'xshash ifodani dvigatel to'xtash vaqti uchun ham aniqlash mumkin. Ularda dvigatel momenti manfiy ishoraga ega bo'ladi:

$$t_{To'x} = J \int_{\varphi_q}^0 \frac{1}{\lambda_M M_{nom} - M_q} d\varphi = J \frac{\varphi_q}{\lambda_M M_{nom} + M_q} \quad (6.32)$$

Faqat ishqalanish hisobiga to'xtatilganda:

$$t_{to'x} = \frac{J\omega_q}{M_q}.$$

Endi dvigatel momenti va dinamik moment chiziqli o'zgargan holatidagi qonuniyatni, ya'ni murakkabroq holatni ko'rib chiqamiz:

$$M_{din} = a - b\omega \quad (6.33)$$

U holda o'tkinchi jarayon vaqtini aniqlaydigan ifoda quyidagi ko'rinishni oladi:

$$t_{i1} = J \int_{\varphi_1}^{\varphi_2} \frac{d\omega}{a - b\omega} \quad (6.34)$$

bu yerda: ω_1 va ω_2 - tezlikning dinamik momentlari M_{din1} va M_{din2} ga mos keladigan boshlang'ich qiymatlari.

Chiziqli ravishda o'zgaradigan moment uchun

$$\frac{M_{din} - M_{din1}}{M_{din2} - M_{din1}} = \frac{\omega - \omega_1}{\omega_2 - \omega_1}.$$

Bu yerdan:

$$M_{din} = M_{din1} + \frac{M_{din2} - M_{din1}}{(\omega_2 - \omega_1)} (\omega - \omega_1) = M_{din1} + \frac{M_{din1} - M_{din2}}{(\omega_2 - \omega_1)} \omega_1 - \frac{M_{din1} - M_{din2}}{(\omega_2 - \omega_1)} \omega. \quad (6.35)$$

(6.35) ifodaga mos ravishda quyidagini olamiz:

$$a = M_{din1} + \frac{M_{din1} - M_{din2} \omega_1}{\omega_2 - \omega_1}$$

$$b = \frac{M_{din1} - M_{din2}}{\omega_2 - \omega_1}.$$

(6.34) ifodani berilgan $\omega_1 - \omega_2$ tezlikning o'zgarishi oralig'ida integrallaymiz:

$$t_{i.1} = J \frac{\varphi_2 - \varphi_1}{M_{din1} - M_{din2}} \ln \frac{M_{din1}}{M_{din2}} \quad (6.36)$$

Ko‘rilayotgan rejimga (ishga tushirish, tormozlash, tezlikni o‘zgartirish) bog‘liq ravishda (6.36) formulaga moment va tezliklar uchun turli boshlang‘ich shartlarni kiritish kerak bo‘ladi.

Olingan ifodada dinamik momentning chiziqli qonuniyat bilan o‘zgarishidagi tezlatish davomiyligini (o‘tkinchi jarayon vaqtini) aniqlashda foydalaniladi. Bundan tashqari murakkab hollarda btrilgan egri chiziqli bog‘lanishni ayrim to‘g‘ri bo‘laklarga bo‘lib, har biri uchun jarayon davomiyligini (vaqtini) ayrim to‘g‘ri chiziqli uchastkalarining yig‘indisi sifatida aniqlash ham mumkin.

19 mavzu. Elektr yuritmalarni tanlash va boshqarish. Atrof muhit sharoitlariga qarab mator tanlash. Elektr yuritmalarni boshqarish jixozlarining klassifikatsiyasi. Qo‘lda va avtomatik boshqarish jihozlari.

Elektromexanik o‘tkinchi rejimlar asosan o‘zgarmas tok yuritmalari uchun tatbiq etiladi. Chunki ularda elektromagnit jarayonlar mexanik jarayonlarga nisbatan tezlikka juda katta ta’sir qiladi. Elektromexanik jarayonlarni tahlil etish ancha qiyin. Chunki, bunda differensial tenglamalarning darajasi ancha yuqori bo‘ladi. Bundan tashqari odatda, elektromexanik o‘tkinchi jarayonlarni tadqiq etish nochiq bog‘lanishlarni (gisterzis, to‘yinish va h. k.) hisobga olish zarurligi bilan bog‘liq. Shuning uchun hozirda real tizimlarni tadqiq etish uchun raqamli modellash uslubidan foydalaniladi. Bu holda EHMda olingan natija aynan shu qaralayotgan qurilmaga taalluqli bo‘ladi.

Turli elektr mexanik tizimlarini o‘tkinchi jarayonlarga tatbiq etish uchun umumiy analitik yechimga ega bo‘lish kerak. Bu esa parametrlarni o‘tkinchi jarayonni kechish vaqtiga ta’sirini, tokning maksimal qiymatlari va boshqalarni aniqlash imkoniyatini beradi. Lekin bunda bir nechta joizliklar va soddalashtirishlar kiritilib, iloji boricha nochiq bog‘lanishlarni ularga mos bo‘lgan chiziqli bog‘lanishlar bilan almashtirish darkor.

Boglanishlarni chiziqlashtirish maqsadida mustaqil qo‘zg‘atishli o‘zgarmas tok dvigatellari uchun elektromexanik o‘tkinchi jarayonlarni tahlil etishda quyidagi shartlarni qabul qilamiz:

- chulg‘amlar (yakor, kompensatsiya va boshqalar) induktivligini o‘zgarmas deb qabul qilinadi;
- yakor reaksiyasi ta’siri ahamiyatga olinmaydi;
- uyurma toklar va gisterzis hisobga olinmaydi.

Ushbu shartlar bajarilganda dvigatel magnit oqimini o'zgaras deb qabul qilish mumkin. Bundan tashqari soddalashtirish maqsadida jarayonlarni o'zgaras statik moment yoki tezlikka chiziqli bog'liq, deb qaraladi.

Boshqarish ta'siri asosan yuritma tizimida ishlatilayotgan ta'-minot manbayi bo'lgan o'zgartgichning xususiyatlari bilan aniqlanadi.

U — const bo'lgan holni ko'rib chiqamiz. Bu holda EYK $E = K_E \omega$ va dvigatel momenti $M = K_M I$ bo'ladi. Dvigatel ishini ifodalovchi tenglamalar quyidagi ko'rinishda bo'ladi:

$$K_M I - M_q = \frac{J d\omega}{dt} \quad (6.37)$$

$$U = K_E \omega + I r + \frac{L dI}{dt}. \quad (6.38)$$

Tezlikning differensial tenglamasini olish uchun (6.37) tenglamani tokka nisbatan yechamiz:

$$I = \frac{J}{K_M} * \frac{d\omega}{dt} + \frac{M_q}{K_M} \quad (6.39)$$

Yoki

$$I = \left(\frac{J}{K_M} \right) * \left(\frac{d\omega}{dt} \right) + I_q, \quad (6.40)$$

bu yerda: I_q - statik (qarshilik) momenti M_q ga mos keladigan tok.

Vaqt bo'yicha differensiallaymiz:

$$\frac{dI}{dt} = \left(\frac{J}{K_M} \right) * \left(\frac{d^2 \omega}{dt^2} \right). \quad (6.41)$$

(6.40) va (6.41) ifodalarni (6.38) ga qo'yib, quyidagini olamiz:

$$U = K_E \omega + \frac{J_r}{K_M} \frac{d\omega}{dt} + I_q r + \frac{J_L}{K_M} \frac{d^2 \omega}{dt^2} \quad (6.42)$$

Aniqlangan tenglamani K_E ga bo'lamiz:

$$\frac{J_L}{K_E K_M} \frac{d^2 \omega}{dt^2} + \frac{J_r}{K_E K_M} \frac{d\omega}{dt} + \omega = \frac{U}{K_E} - \frac{I_q r}{K_E} \quad (6.43)$$

Ushbu ifodada $\frac{J_r}{K_E K_M} = T_M$ - elektromexanik vaqt doimiysi:

$$\frac{J_L}{K_E K_M} = \left(\frac{J_r}{K_E K_M} \right) * \left(\frac{L}{r} \right) = T_M * T_Y,$$

bu yerda: $T_{ya} = L/r$ - elektrmagnit vaqt doimiysi. Vaqt doimiylarini (6.43) tenglamaga kiritib, quyidagini olamiz:

$$T_{ya}T_M \frac{d^2\varphi}{dt^2} + T_M \frac{d\varphi}{dt} + \varphi = \frac{1}{K_E}U - \frac{r}{K_E}I_q. \quad (6.44)$$

Mazkur tenglamadagi birinchi tashkil etuvchi boshqarish ta'sirini, ikkinchisi - tashqi ta'simi tashkil etadi.

Differensial tenglamalarni yechishning klassik usulini qo'llab (6.44) tenglamani yechamiz. (6.44) tenglamaning o'ng tomonini boshqacha ko'rinishda yozamiz. Buning uchun quyidagi belgilashlarni kiritamiz: $\omega_o = \frac{U}{K_E}$, $\Delta\omega_o = I_q r / K_E$ - statik moment M_q ga mos keladigan tezlik. Bu holda quyidagini olamiz:

$$T_{ya}T_M \frac{d^2\omega}{dt^2} + T_M \frac{d\omega}{dt} + \omega = \omega_q \quad (6.45)$$

Salt yurishda o'ng tomonda ideal salt yurish tezligi ω_o bo'ladi.

Yakor tokining differensial tenglamasini aniqlash uchun (6.40) tenglamani tezlikni vaqt bo'yicha hosilasiga nisbatan yechamiz:

$$\frac{d\omega}{dt} = \frac{K_M(I - I_q)}{J}. \quad (6.46)$$

Tenglama (6.38) ni differentsiallab quyidagini olamiz:

$$0 = K_E \frac{d\omega}{dt} + r \frac{dI}{dt} + L \frac{d^2I}{dt^2}.$$

Olingan tenglikni $J/(K_E K_M)$ ga ko'paytirib quyidagini yozish mumkin:

$$\frac{JL}{K_E K_M} * \frac{d^2I}{dt^2} + \frac{Jr}{K_E K_M} * \frac{dI}{dt} + I = I_q. \quad (6.47)$$

yoki tezlik tenglamasidagi qiymatlardan foydalanib quyidagicha yozamiz:

$$T_{ya}T_M \frac{d^2I}{dt^2} + T_M \frac{dI}{dt} + I = I_q. \quad (6.48)$$

Shunday qilib, tok uchun (6.48) va tezlik uchun (6.45) differensial tenglamalar bir-biriga o'xshash bo'ladi. Shuning uchun ularga bir xildagi xarakteristik tenglama mos keladi, ya'ni:

$$p^2 = \frac{1}{T_{ya}}p + \frac{1}{T_{ya}T_M} = 0. \quad (6.49)$$

Xarakteristik tenglama ildizlari quyidagicha topiladi:

$$p_1 = -\frac{1}{2T_{ya}} + \sqrt{\frac{1}{4T_{ya}^2} - \frac{1}{T_{ya}T_M}};$$

$$p_2 = -\frac{1}{2T_{ya}} - \sqrt{\frac{1}{4T_{ya}^2} - \frac{1}{T_{ya}T_M}};$$

(6.50)

quyidagi nisbat $4T_{ya}/T_M <> 1$ ga bog'liq holda xarakteristik tenglama ildizlari haqiqiy va kompleks bo'lishi mumkin. Kompleks ildizlar uchun quyidagini yozish mumkin:

$$p_{1,2} = -a \pm j\gamma \quad (6.51)$$

bu yerda: $a = \frac{1}{2T_{ya}}; \gamma = \sqrt{\frac{1}{T_{ya}T_M} - \frac{1}{4T_{ya}^2}}$

Natijada tok va tezlik uchun o'tkinchi rejimda ifodalar quyidagi ko'rinishda bo'ladi:

$$I = A_1 e^{p_1 t} + A_2 e^{p_2 t} + I_q, \quad (6.52)$$

$$\omega = D_1 e^{p_1 t} + D_2 e^{p_2 t} + \omega_q. \quad (6.53)$$

Har bir rejim uchun (ishga tushirish, tormozlashning turlari, yuklama qabul qilish va tashlash) integrallash doimiyliklari A_1, A_2 va D_1, D_2 alohida aniqlanadi.

Agar ishga tushirish bir necha pog'onada amalga oshirilsa, u holda har bir pog'ona uchun integrallash doimiyliklari aniqlanadi. Bir pog'onadan ikkinchi pog'onaga o'tishda eksponenta darajalari P_1 va P_2 lar o'zgaradi. Chunki ularning tarkibiga yakor zanjiri qarshiligiga bog'liq bo'lgan T_{ya} va T_M lar kiradi.

Shuni qayd qilish lozimki, (6.52) va (6.53) tenglamaga kiradigan integrallash doimiyliklari o'zaro bir-biriga bog'liq bo'lib, ulardan birortasi aniqlansa, ikkinchisini osongina topish mumkin. Ikkinchi darajali tenglama uchun ikkita boshlang'ich shart kifoya bo'lib, ular umumiy holatda $t = 0$ bo'lganda $\omega = \omega_{bosh}, I = I_{bosh}$ ko'rinishni oladi.

Ikkinchi shartni (6.52) tenglamaga qo'yish uchun (6.46) tenglamadan foydalanamiz, $t = 0$ bo'lganda bu tenglamadan:

$$\left(\frac{d\omega}{dt}\right)_{bosh} = \frac{K_m(I_{bosh} - I_q)}{J}.$$

(6.53) tenglamani differensiallab quyidagini olamiz:

$$\frac{d\omega}{dt} = p_1 D_1 e^{p_1 t} + p_2 D_2 e^{p_2 t}. \quad (6.54)$$

Tezlikni vaqt bo'yicha hosilasining qiymatini (6.54) tenglamaga qo'yib, (6.53) da esa $\omega = \omega_{bosh}$ shartini qo'yib integrallash doimiyliklari D_1 va D_2 lar uchun ikkita tenglama olamiz. Ulardan doimiyliklar qiymatini aniqlash mumkin:

$$\begin{aligned}\omega_{bosh} &= D_1 + D_2 + \omega_q \\ K_M(I_{bosh} - I_q) &= pD_1 + pD_2\end{aligned}\quad (6.55)$$

A_1 va A_2 doimiyliklarini topish uchun (6.54) ifodani (6.40) formulaga qo'yamiz, u holda:

$$I = \frac{J_{p_1} D_1 e^{p_1 t}}{K_M} + \frac{J_{p_2} D_2 e^{p_2 t}}{K_M} + I_q,$$

Bundan

$$A_1 = \frac{J_{p_1} D_1}{K_M}, \quad A_2 = \frac{J_{p_2} D_2}{K_M}.$$

O'tkinchi jarayonda tok va tezlikni aniqlash tenglamalariga Eyler formulalari yordamida sodda ko'rinish berish mumkin: haqiqiy ildizlar uchun $p_{1,2} = -1 * (2T_{ya}) \pm \varepsilon$ bo'lganda:

$$I = Ae^{-t(2T_{ya})} sh(\varepsilon t + \varphi) + I_q,$$

$$\omega = De^{-t(2T_{ya})} * sh(\varepsilon t + \Psi) + \omega_q, \quad (6.56)$$

$p_{1,2} = -1/(2T_{ya}) \pm jv$ bo'lgan kompleks ildizlar uchun

$$I = Ae^{-t(2T_{ya})} * sh(vt + \varphi) + I_q$$

$$\omega = De^{-t(2T_{ya})} \sin(vt + \psi) + \omega_q. \quad (6.57)$$

Integrallash doimiyliklari A , D , φ va ψ lami boshlang'ich shartlardan aniqlash mumkin. Bu yerda ham ikkita doimiylikni, ya'ni D va Ψ larni aniqlash yetarli. Haqiqiy tezlik ifodasi (6.57) ni differensiallab, quyidagini olamiz:

$$\frac{d\omega}{dt} = -De^{\frac{-t}{2T_{ya}}} \left[\frac{1}{2T_{ya}} \sin(vt + \Psi) - v \cos(vt + \Psi) \right]$$

$\frac{1}{2}T_{ya} = X \cos \delta$; $v = X \sin \delta$ deb belgilaymiz, bu yerda: X – o'zgarmas son bo'lib, uni quyidagicha aniqlash mumkin:

$$(X \sin \delta)^2 + (X \cos \delta)^2 = X^2 = v^2 + \left(\frac{1}{2T_{ya}} \right)^2 \quad \text{yoki (6.51) ga muvofiq:}$$

$$X = \sqrt{v^2 + \frac{1}{4}T_{ya}^2} = \sqrt{\frac{1}{T_{ya}T_M} - \frac{1}{4T_{ya}^2} + \frac{1}{4T_{ya}^2}} = \frac{1}{\sqrt{T_{ya}T_M}}$$

U holda, quyidagini olamiz:

$$\frac{d\omega}{dt} = -De^{-\frac{t}{2T_{ya}}} * \left(\frac{1}{\sqrt{T_{ya}T_M}} \right) \sin(u + \Psi - \delta)$$

Bu yerda: $\delta = \arctg 2T_{ya}v$ yoki $\delta = \frac{\arcsin v}{x} = \arcsin v\sqrt{T_{ya}T_M}$ tok uchun (6.40) tenglamadan foydalanib, quyidagini yozamiz:

$$I = -DJ I(K_m(\sqrt{T_{ya}T_M})e^{-t(2T_{ya})} * \sin(u + \Psi + \delta) + I_q, \quad (6.58)$$

Demak,

$$A = -DJ / (K_m \sqrt{T_{ya}T_M}) \quad \text{va} \quad \varphi = \Psi - \delta. \quad (6.59)$$

Olingan (6.56) va (6.57) tenglamalar $M_{kt} = \text{const}$ va $\Psi = \text{const}$ bo'lgandagi barcha mustaqil qo'zg'atishli o'zgaras tok dvigatellarining o'tkinchi rejimiga taalluqli bo'lib, ishga tushirish, tormozlash, yuklamani qabul qilish va tashlashdagi o'tkinchi jarayonlarni ifodalaydi.

20 mavzu. Elektr yuritmalarni himoya qurilmalari. Avtomatik o'chirgichlarni quvvat, tok va kuchlanish bo'yicha tanlash. Eruvchan saqlagichlar va ularni tanlash.

Odatda, elektr mexanik tizimni, bajaruvchi mexanizm massalarini va mexanik uzatmaning barcha elementlarini dvigatel o'qiga keltirib, hamda ekvivalent massa m va unga mos keladigan dvigatel o'qidagi inertsia momenti J dan foydalanib bir massali deb qaraladi. Lekin bir qator hollarda, uzatmalardagi o'qlaming uzunligi katta bo'lganda tizimning o'zini tutishiga mexanik tugunlardagi qayishqoq deformatsiyalar sezilarli darajada ta'sir ko'rsatadi. Ayniqsa ular tezkorligi oshirilgan yuritmalarning zamonaviy tizimlarida yuzaga chiqayapti. Ko'pincha bo'ysunilgan rostdash tizimlarida aynan qayishqoq deformatsiyalar tezkorlikni cheklashga sabab bo'layapti. Shuning uchun elektr mexanik qurilmalarni kinematik zanjirida qayishqoq zvenolari bo'lgan ko'p massali tizim sifatida qaralmoqda. Bunday mexanizmlarga qog'oz ishlab chiqaradigan mashinalar, metall kesuvchi stanoklarning ba'zi turlari, robotlar va shunga o'xshash boshqa mexanizmlar kiradi.

Oddiy holda ikki massali tuzilish sxemasini ko'rib chiqish mumkin (1.17-rasmga qarang). Bu sxemada o'zaro qayishqoq zveno bilan bog'langan mexanizm massasi va dvigatel rotdi massasini ayrim - ayrim hisobga olamiz. Mexanizm inertsia momentini dvigatel aylanish tezligiga keltiramiz. Uzatma elementlarining inertsia momentini hisobga olmaymiz, yoki ularni dvigatel va mexanizmga kiritamiz.



Number of bridge arms: **3**

Port configuration: **ABC as output terminals**

Snubber resistance Rs (Ohms): **10000**

Snubber capacitance Cs (F): **inf**

Power Electronic device: **IGBT / Diodes**

Ron (Ohms): **1e-4**

Forward voltages [Device Vt(V) , Diode Vfd(V)]

[1 1]

[Tf (s) , Tt (s)]

[1e-6 , 2e-6]

Measurements: **None**

OK Cancel Help Apply

Block Parameters: 208V /208V 1kVA Three-Phase Transform...

Three-Phase Transformer (Two Windings) (mask) (link)

This block implements a three-phase transformer by using three single-phase transformers. Set the winding connection to 'Yn' when you want to access the neutral point of the Wye.

Parameters

Nominal power and frequency [Pn(VA) , fn(Hz)]

[1000 , 50]

Winding 1 (ABC) connection: **Delta (D1)**

Winding parameters [V1 Ph-Ph(Vrms) , R1(pu) , L1(pu)]

[208 , 0.002 , 0.04]

Winding 2 (abc) connection: **Yg**

Winding parameters [V2 Ph-Ph(Vrms) , R2(pu) , L2(pu)]

[208 , 0.002 , 0.04]

☐ Saturable core

Magnetization resistance Rm (pu)


200

Magnetization reactance Lm (pu)

200

Measurements: **None**

OK Cancel Help Apply



1-rasm. Uch fazali ikki cho'lg'amli transformatoridan invertor sxemasida foydalanishga misol

4. Nazorat savollari.

1. Matlab dasturida Simulink paketini SimPowerSystems blogida qanday modelarni bajariladi?.
2. Matlab dasturidagi Three-Phase Transformer Blogida qanday madelar bajaragi?

8-tajriba mashg'uloti. Simulink paketida mexatron sistemali boshqarish ob'ektlarining dinamik tavsiflari.


1. Ishdan maqsad:

1. Uch yoki ikki cho'lg'amli bir fazali transformatorni modellelashtirish.
2. Magnit o'zak materiali magnitlanish xarakteristikasining nochiziqliligi hisobga olinmagan holda modelashtirish.

2. Kerakli jihozlar: Kompouyuter, zarur dasturiy ta'minot(Matlab) va uslubiy ko'rsatma.

3. Ishni bajarish tartibi

Transformatorning almashtirish sxemasi 1-rasmda ko'rsatilgan.



1-rasm. Transformatorning almashtirish sxemasi

Parametrlarini o'rnatish oynasi:

Nominal power and frequency [Pn(VA) fn(Hz)]:

[Nominal to'la quvvat (VA) va nominal chastota (Gts)].

Winding 1 parameters [V1(Vrms) R1(pu) L1(pu)]:

[Birinci cho'lg'amning parametrlari. Cho'lg'amdagi kuchlanishning tahsir etuvchi qiymati (V), cho'lg'amning aktiv qarshiligi (n.b.) va sochilish induktivligi (n.b.)].

Winding 2 parameters:

[Ikkinchi cho'lg'amning parametrlari. Cho'lg'amdagi kuchlanishning tahsir etuvchi qiymati (V), cho'lg'amning aktiv qarshiligi (n.b.) va sochilish induktivligi (n.b.)].

Three windings transformer:

[Uch cho'lg'amli transformator]. Bayroqcha belgilansa transformatorida ikkita ikkilamchi cho'lg'am, belgilanmasa bitta ikkilamchi cho'lg'am bo'ladi.

Winding 3 parameters:

[Uchinchi cho'lg'amning parametrlari. Cho'lg'amdagi kuchlanishning tahsir etuvchi qiymati (V), cho'lg'amning aktiv qarshiligi (n.b.) va sochilish induktivligi (n.b.)].

Magnetization resistance and reactance [Rm(pu) Lm(pu)]:

[Magnitlanish zanjirining qarshiligi (n.b.) va induktivligi (n.b.)].

Measurements:

[O'lchanadigan o'zgaruvchilar]. Parametrning qiymati quyidagi ro'yxatdan olinadi:

- ☐ Winding voltages – cho'lg'amlarning kuchlanishlari;
- ☐ Winding currents - cho'lg'amlarning toklari;
- ☐ Magnetization current – magnitlash toki;
- ☐ All voltages and currents – hamma tok va kuchlanishlar.

Cho'lg'amlarning aktiv qarshiliklari va induktivliklari hamda magnitlash zanjirining parametrlari nisbiy birliklarda beriladi. Har bir cho'lg'am uchun qarshilik va induktivliklarning nisbiy qiymatlari quyidagi ifodalarga asosan hisoblanadi:

$$R_* = \frac{R}{R_\sigma},$$

$$L_* = \frac{L}{L_\sigma},$$

bu yerda R^* i L^* - qarshilik va induktivliklarning nisbiy qiymatlari, R va L - qarshilik va induktivliklarning absolyut qiymatlari,

$$R_{\sigma} = \frac{U_n^2}{P_n}$$

- bazis qarshilik,


$$L_{\sigma} = \frac{R_{\sigma}}{2 \cdot \pi \cdot f_n}$$

- bazis induktivlik,

U_n – cho'lg'amning nominal kuchlanishi, f_n - nominal chastota.

Magnitlash zanjirining parametrlarini magnitlash tokining qiymatidan foydalanib topish mumkin. Magnitlash toki nominal tokka nisbatan % larda beriladi.

Aktiv yuklamani tahminlash uchun ikki cho'lg'amli chiziqli transformatoridan foydalanilgan sxema 2-rasmda ko'rsatilgan.



2-rasm. Aktiv yuklamani tahminlash uchun ikki cho'lg'amli chiziqli transformatoridan foydalanilgan sxema

4. Nazorat savollari.

1. Matlab dasturida Simulink paketini SimPowerSystems blogida qanday modelarni bajariladi?.
2. Matlab dasturidagi Three-Phase Transformer Blogida qanday madelar bajaragi?

9-tajriba mashg'uloti. Mexatron sistemalarning dinamik tavsiflariga talablar va sifatini baholash.

1. Ishdan maqsad:

1. O'tkinchi jarayonni qurish bilan tanishish.
2. Tipik dinamik zvenolar va ularning o'tkinchi hamda impulsli o'tkinchi jarayon xarakteristikalarini qurish.

2. Kerakli jihozlar: Kompouyuter, zarur dasturiy ta'minot(Matlab) va uslubiy ko'rsatma.

3. Tajriba ishiga oid nazariy ma'lumotlar:



Masalaning qo'yilishi: O'tkinchi jarayon xarakteristikalarini olish usullari va grafiklarini o'zgartirish imkoniyatlari bilan tanishish. Tipik dinamik zvenolar vaqt xarakteristikalarini tadqiq qilish.

Nazariy qism:

Asosiy tipik kirish signallari:

- pog'onali signal (funktsiya);
- impulsli signal (funktsiya);
- garmonik signal (funktsiya).

Sistema (zveno)larning birlik pog'onali ta'sirga bo'lgan reaksiyasiga o'tkinchi jarayon yoki o'tish funksiyasi deyiladi va $h(t)$ bilan belgilanadi.



$$x = A \cdot 1(t); \quad A = \text{const};$$

$$1(t) = \begin{cases} 1, & \text{булка } t \geq 0 \\ 0, & \text{булка } t < 0 \end{cases}$$


$$L\{A \cdot 1(t)\} = A \frac{1}{p}$$

$t_{o'tk}$ – o'tkinchi jarayon davomiyligi – chiqish signali turg'unlashgunga bo'lgan vaqt.

$T = \tau$ – vaqt doimiysi.

$$\text{Bunda, } T = t \cdot h(t) = k(1 - 0,37) \cdot 1(t) = 0,63k.$$

Sistema (zveno)larning birlik impulsli ta'sirga bo'lgan reaksiyasi impulsli o'tkinchi jarayon yoki vazn funksiyasi deyiladi va $\omega(t)$ bilan belgilandi.



$$x(t) = A \cdot \delta(t); \quad A = \text{const};$$

$$\delta(t) = \begin{cases} 0, & \text{булка } t > 0 \\ \infty, & \text{булка } t = 0 \end{cases}$$


$$\int_0^{\infty} \delta(t) dt = 1.$$

$$A \rightarrow \infty; \Delta t \rightarrow 0$$

O'tkinchi va impulsli o'tkinchi funksiyalar jarayonning vaqt xarakteristikalarini xosil qiladi – bu signal kattaligi o'zgarishning vaqtga bog'liqligidir.

Sistema (zveno) larning garmonik ta'sirga bo'lgan reaksiyasi chastotaviy xarakteristika deyiladi.

O'tkinchi jarayon quyidagicha bo'lishi mumkin:



1. Monoton;
2. Aperiodik;
3. Tebranuvchan.

Pog'onali ta'sirda rostlanish sifati quyidagi parametrlar bo'yicha aniqlanadi:

– t_p – rostlanish vaqti yoki o'tkinchi jarayon vaqti (yo'l qo'yilishi mumkin xatolik zonasi 2Δ ga o'tgungacha bo'lgan vaqt).

$$\left| h(t) - h_{\infty}(t) \right| \leq \Delta$$

$$\sigma\% = \frac{h_{\max}(t) - h_{\infty}(t)}{h_{\max}(t)} \cdot 100\%$$

Qayta rostlash o'rnatilgan qiymatdan o'tkinchi jarayon grafigining maksimal og'ishini xarakterlaydi; kichik va o'rta quvvatli sistemalar uchun yo'l qo'yilgan qiymat

$$\sigma\% = (10 \div 20)\%$$

$$\sigma\% = (30 \div 40)\% \text{ - yuqori quvvatli sistemalar uchun}$$

$\sigma\%$ - odatda 17% dan ko'p emas.


– o'sib borish vaqti t_o – o'rnatilgan qiymat bilan o'tkinchi jarayon egri chizig'i og'ishining birinchi kesishish nuqtasi absissasi;

- $t_{\max}$ – birinchi maksimum qiymatga erishish vaqti;
- chastota va tebranish davri

$$\omega = \frac{2\pi}{T}; \quad T = \frac{2\pi}{\omega}$$

– so'nish dekrementi o'tkinchi jarayonning so'nish tezligini xarakterlaydi.

$$\chi\% = \left| \frac{h_{\max}(t) - h_{\infty}(t)}{h_{\min}(t) - h_{\infty}(t)} \right| \cdot 100\%$$



Tipik dinamik zveno deb, tartibi ikkidan yuqori bo'lmagan differensial tenglamalar bilan ifodalanuvchi elementlar to'plamiga aytiladi.

1. Inersiyasiz (proporsional) zveno

$$y(t) = k \cdot x(t); \quad W(p) = k;$$

$$h(t) = L^{-1} \left\{ W(p) \cdot \frac{1}{p} \right\} = L^{-1} \left\{ k \cdot \frac{1}{p} \right\} = k \cdot 1(t).$$

2. Birinchi tartibli inersial zveno

$$T \frac{dy}{dt} + y(t) = k \cdot x(t); \quad W(p) = \frac{k}{T \cdot p + 1};$$

$$h(t) = L^{-1} \left\{ W(p) \cdot \frac{1}{p} \right\} = L^{-1} \left\{ \frac{k}{1 + pT} \cdot \frac{1}{p} \right\} = k \cdot (1 - e^{-t/T}) \cdot 1(t);$$

$$\omega(t) = h'(t) = L^{-1} \{ W(p) \} = \frac{k}{T} e^{-t/T} \cdot 1'(t)$$

T – vaqt doimiysi;

k – uzatish ko'effitsiyenti.

3. Tebranuvchi zveno

$$T^2 \frac{d^2 y}{dt^2} + 2dT \frac{dy}{dt} + y(t) = k \cdot x(t); \quad W(p) = \frac{k}{T^2 p^2 + 2dTp + 1};$$

$0 < d < 1$ – so'nish (darajasi) ko'effitsiyenti.

$$h(t) = L^{-1} \left\{ W(p) \cdot \frac{1}{p} \right\} = L^{-1} \left\{ \frac{k}{T^2 p^2 + 2dTp + 1} \cdot \frac{1}{p} \right\} =$$

$$= k \cdot \left[1 - \frac{\sqrt{\alpha^2 + \beta^2}}{\beta} \cdot e^{-\alpha t} \cdot \sin(\beta \cdot t + \varphi_0) \right];$$

$$\text{Bunda: } \alpha = \frac{d}{T}, \quad \beta = \frac{\sqrt{1-d^2}}{T}, \quad \varphi_0 = \arctg \frac{\sqrt{1-d^2}}{d};$$

$$\omega(t) = h'(t) = \frac{k(\alpha^2 + \beta^2)}{\beta} \cdot e^{-\alpha t} \cdot \sin \beta t.$$

4. Integrallovchi zveno

$$y(t) = k \int_0^t x(t) dt; \quad W(p) = \frac{k}{p};$$

$$h(t) = L^{-1} \left\{ W(p) \cdot \frac{1}{p} \right\} = L^{-1} \left\{ \frac{k}{p} \cdot \frac{1}{p} \right\} = k \cdot t \cdot 1(t);$$

$$\omega(t) = h'(t) = k \cdot 1'(t)$$

5. Ideal differensiallovchi zveno

$$y(t) = k \frac{dx}{dt}; \quad W(p) = kp;$$

$$h(p) = L^{-1} \left\{ W(p) \cdot \frac{1}{p} \right\} = L^{-1} \left\{ k \cdot p \cdot \frac{1}{p} \right\} = k \cdot \delta(t);$$

$$\omega(t) = h'(t) = k \cdot \delta'(t);$$

4. Ishni bajarish buyicha metodik kursatma


MatLAB dasturi asosiy saxifasi ochilgandan keyin **Simulink** qism dasturini ishga tushirish kerak. Buning uchun 1 – tajriba ishida ko'rsatilgan uchta usulning biridan foydalanamiz.

Modelning o'tkinchi xarakteristikasini olish.

1. Sistemaning birlik pog'onali ta'sirga bo'lgan reaksiyasi **h(t)** – o'tish funksiyasini olish. Modelning kirishiga birlik pog'onali ta'sir xosil qilib beruvchi blok (**Step**) qo'yiladi va chiqishda shu funksiyaning grafiini ko'rsatuvchi (**Scope**) bloki qo'yiladi.

2. Sistemani ishga tushirish uchun **Simulink** saxifasi instrumentlar panelidagi (**Start**) tugmasi bosiladi. O'tkinchi jarayon grafigini ko'rish uchun esa **Scope** bloki ustiga kursor keltirilib, sichqonchaning chap tugmachasi ikki marta tez bosiladi.

Yopiq sistema o'tish funksiyasini olish uchun modelda teskari bog'lanish zanjiri amalga oshiriladi va ikkinchi punkt takrorlanadi (9.1-rasm).




9.1-rasm.

Sistemaning vazn funksiyasini olish.


Buning uchun **Simulink LTI-Viewer** qism dasturini ishga tushirish lozim. Bu quyidagicha amalga oshiriladi:

1. **Simulink**-modeli sahifasida **Tools\Linear Analysis...** komandasini bajarilganda **Model_Inputs_and_Outputs** sahifasi hamda **Simulink LTI-Viewer** bo'sh sahifasi ochiladi (9.2-rasm).



9.2-rasm. **Simulink LTI-Viewer** bo'sh sahifasi.


2. Sistema kirishiga **Input Point** bloki va chiqishiga **Output Point** blokini o'rnatiladi (2.3-rasm).



9.3-rasm. **Input Point** bloki va **Output Point** bloki o'rnatilgan model.

3. **LTI Viewer** sahifasida **Simulink\Get Linearized Model** komandasi bajariladi.

Bunda ekranda sistemaning birlik pogonali signalga bulgan reaksiyasi $h(t)$ -xarakteristika xosil buladi. Sitemaning vazn funksiyasini chikarish uchun **LTI Viewer** saxifasida sichkonchanning chap klavishasini bosiladi unda xarakteristikani uzgartirish darchasi paydo buladi. U yerdan **Impulse** punkti tanlaniladi (9.4-rasm).



9.4-rasm.. LTI Viewer sahifasi.


5. Ishni bajarish tartibi.

1. MatLAB dasturi ishga tushiriladi.
2. Simulink qism dasturi ishga tushiriladi.
3. Variant bo'yicha kerakli sistema modeli tuziladi.
4. Sistemani o'tkinchi jarayon xarakteristikasini olish uchun **Scope** bloki ochiladi so'ngra instrumentlar panelidagi **Start** tugmachasi bosiladi.
5. Sistemaning impulsli signalga bo'lgan reaksiyasini olish uchun **Simulink LTI-Viewer** sahifasi ochiladi.
6. Sistema kirishiga **Input Point** bloki va chiqishiga **Output Point** blokini o'rnatiladi.
7. **LTI Viewer** sahifasida **Simulink\Get Linearized Model** komandasi bajariladi.
8. Hosil bo'lgan oynada sichqoncha yordamida **Impulse** punkti tanlaniladi.
9. Modelning parametrlarini o'zgartiriladi va o'zgartirilgan model xarakteristikolari olinib oldingi olingan xarakteristikalar bilan solishtirilib analiz qilinadi.
10. Xarakteristikalar bosmaga chiqariladi.

6. Nazorat savollari.

1. O'tkinchi va impulsli o'tkinchi funksiyalar.
2. Quyidagi zvenolar uchun vaqt xarakteristikalarini keltiring:
 - Aperiodik zveno
 - Tebranuvchi zveno
 - Integrallovchi zveno
 - Differensiallovchi zveno
3. Quyidagi zvenolarda vaqt xarakteristikalar manfiy birlik teskari aloqa ta'sirida qanday o'zgaradi.
 - Aperiodik zveno
 - Tebranuvchi zveno
 - Integrallovchi zveno
 - Differensiallovchi zveno
4. Kiritilgan uzatish funksiyalar parametrlarini o'zgartirish qanday amalga oshiriladi?

Variantlar:



№	Uzatish funksiyalari										
	1-tartibli inersial		Intergallovchi zveno	Proporsional zveno	Tebranuvchi zveno			Differensiallovchi	1-tartibli inersial		Proporsional zveno
	K	T	K	K	K	d	T	K	K	T	K
1	W ₁		W ₃	W ₅	W ₇			W ₆	W ₂		W ₄
	1	0,1	1	9	1	0,2	0,3	3	2	10	1
2	W ₃		W ₇	W ₄	W ₁			W ₅	W ₆		W ₂
	1	0,1	0	10	2	0,1	0,6	4	22	7	19
3	W ₇		W ₅	W ₄	W ₆			W ₁	W ₂		W ₃
	2	0,5	2	0	4	0,8	2	2	18	0,7	3
4	W ₆		W ₁	W ₃	W ₂			W ₄	W ₇		W ₅
	14	10	3	11	1	0,01	0,1	1	1	0,2	5
5	W ₅		W ₂	W ₆	W ₃			W ₇	W ₁		W ₄
	5	0,9	1	18	3	0,5	1	0	2	0,2	3
6	W ₁		W ₃	W ₅	W ₇			W ₆	W ₂		W ₄
	2	1	4	17	5	0,9	2	6	1	0,1	5
7	W ₃		W ₇	W ₄	W ₁			W ₅	W ₆		W ₂
	8	0,4	3	22	2	0,7	3	3	8	9	0
8	W ₇		W ₅	W ₄	W ₆			W ₁	W ₂		W ₃
	9	5	2	0	4	0,4	0,9	4	7	7	10
9	W ₆		W ₁	W ₃	W ₂			W ₄	W ₇		W ₅
	10	8	0	30	6	0,3	1,3	7	9	5	30
10	W ₅		W ₂	W ₆	W ₃			W ₇	W ₁		W ₄
	1	0,1	5	1	1	0,6	0,8	2	14	10	26
11	W ₃		W ₇	W ₄	W ₁			W ₅	W ₆		W ₂
	22	9	0	2	3	0,1	2,5	6	11	9	22
12	W ₇		W ₅	W ₄	W ₆			W ₁	W ₂		W ₃
	24	7	1	0	7	0,55	3	5	15	3	20
13	W ₆		W ₁	W ₃	W ₂			W ₄	W ₇		W ₅
	15	6	2	6	2	1,5	0,5	4	19	7	19
14	W ₅		W ₂	W ₆	W ₃			W ₇	W ₁		W ₄
	30	4	4	8	6	0,15	2	1	10	5	11
15	W ₁		W ₃	W ₅	W ₇			W ₆	W ₂		W ₄
	7	3	5	7	5	0,8	1	2	3	1	0,8
16	W ₇		W ₅	W ₄	W ₆			W ₁	W ₂		W ₃
	9	2	3	9	4	0,65	2,9	7	24	0,8	0
17	W ₆		W ₁	W ₃	W ₂			W ₄	W ₇		W ₅

	3	5	2	14	3	0,3	4	1	26	8	21	
18	W ₅		W ₂	W ₆	W ₃			W ₇	W ₁		W ₄	
	4	0,2	4	0	8	0,5	2	1	29	8	17	
19	W ₁		W ₃	W ₅	W ₇			W ₆	W ₂		W ₄	
	26	10	2	11	1	0,63	0,7	5	30	2	12	
20	W ₃		W ₇	W ₄	W ₁			W ₅	W ₆		W ₂	
	19	0,8	3	15	2	0,7	0,7	4	2	0,1	16	

10-tajriba mashg'uloti. Mexatron sistemalarda rostlagichlarni tadqiq etish.

1. Ishdan maqsad:

MatLAB amaliy dasturi yordamida avtomatlashtirishda asosiy parametr bo'lib hisoblanadigan sarfni avtomatik rostlash sistemasini o'rganish, uni turg'unlik me'zonlari buyicha tekshirish va kompyuterda madelini qurish.


2. Kerakli jihozlar: Kompoyuter, zarur dasturiy ta'minot(Matlab) va uslubiy ko'rsatma.

3. Tajriba ishiga oid nazariy ma'lumotlar:

Sarf avtomatikadagi asosiy parametrlardan biri bo'lib uni rostlash va boshqarish juda muhim hisoblanadi. Bu tajriba ishi orqali truboprovoddagi sarfni rostlashni o'rganamiz. Sarfni rostlash uchun sarf o'lchagichni tanlashimiz va uni xarakteristikasini, uzatish funksiyasini, struktur sxemasini tuzishni bilishimiz lozim.

Sarf o'lchagichning ishlash prinsipi.

O'zgaruvchan bosimlar farqi usuli bilan sarf o'lchagichlar asosan differensial manometr va toraytiruvchi qurilmadan tashkil topadi.



10.1- rasm. Toraytiruvchi qurilma.

Bu usul bilan sarfni o'lchashda trubali o'tkazgichga toraytiruvchi qurilma o'rnatiladi. Toraytirish qurilmasi teshigidan o'lchanayotgan oqim o'tganda, toraytirish qurilmasigacha va undan keyin oqim sarfi o'zgarganda bosimlar farqi o'zgaradi.

$$\Delta P = P_1 - P_2$$


Toraytirish qurilmasining chiqish signalini membranali difrensial manometr qabul qiladi. Menbranaga xar xil tarafdin ta'sir qilayotgan P_1 va P_2 bosimlar membranada N_1 va N_2 kuchga aylanadi. $\Delta N = N_1 - N_2$ kuchlar farqi richakka ta'sir qilib ularda mamentni hosil qiladi, yoki bu kuchlar farqi richagning surilishiga olib keladi. O'z novbatida bu surilishni o'zgartirsak ya'ni maxsus o'zgartirgichlar orqali o'zgartirsak o'z o'zidan o'lchovchi pribor kelib chiqadi.

Boshqarish obekti haqida tushuncha.

Hozirgi rivojlangan axborot zamonida barcha ishlab chiqarish korxonalarida zamonaviy ishlab chiqarishni boshqarib turuvchi programniy paketlar qo'llaniladi. Bu baracha programniy paketlar asosi bir maqsad: ishlab chiqarish sifatini yaxshilashdir. Ishlab chiqarish sifatini yaxshilash uchun asosiy o'zgaruvchi parametrlarni optimal tarzda ushlab turishimiz zarur va shartdir. Har bir ishlab chiqarish agregatida o'zinig reglamenti mavjud bo'lib shu reglament asosida biz barcha parametrlarni reglamentda ko'rsatilgan qiymatda saqlab turishimiz kerak

bo‘ladi. Shu parametrlar tarkiga sarf ham kiradi. Sarf - bu trubaprovoddan vaqt birligida oqib o‘tgan maxsulot miqdoriga aytiladi. Sarf yuqorida aytganimizdek ishlab chiqarishni eng asosiy parametri bo‘lib hisoblanadi. Uni roslash natijasida biz maxsulotning sifatini va eng asosiysi ishlab chiqarish kompleksini avariya holatidan saqlashimiz mumkin. Misol tariqasida qaraganda obektning kirishiga 5 t/s maxsulot kirishi kerak, obektning xarakteristikasiga qarab sarf o‘rnatilgan qiymatdan 1 t/s ga oshsa darhol signalizatsiya berishi 1.2 t/s ga oshsa blakirovka qilinsin degan shart qo‘yilgan bo‘lsin. Agar sistemada blakirovka ketsa bu butun ishlab chiqarishni to‘xtatishga olib keladi. Bu misoldan ko‘rinib turibdiki sarf sistemaning asosiy parametri hisoblanar ekan.

Berilgan sistemada sarfni roslaganimizdan so‘ng uni turg‘unlikka tekshirishimiz kerak. Sistemani turg‘unlikka tekshirish uchun maxsus programni paketlar mavjud bo‘lib shulardan biri MATLAB programmasidan foydalanamiz.



10.2-rasm. Avtomatik rostlashning struktur sxemasi.

Sistemani MATLAB programmasida turg‘unlikka tekshirish uchun yuqoridagi struktur sxemani programmaga qurishdan boshlaymiz.

Bu yerda:

TQ – taqqoslovchi qurulma,

AR – avtomatik rostlagich,

IM – ijro etuvchi mexanizm (klapn),

BO – boshqarish obekti,

O‘Q – o‘lchovchi qurilma (datchik).

Bu barcha bloklarni uzatish funksiyalarini o‘rni quyib MATLABda o‘tkinchi jarayon xarakteristikasini olamiz. Bu olingan o‘tkinchi jarayon xarakteristikasidan sistemani turg‘unligini aniqlash mumkin.

Sistemani turg‘unligini Gurvits me‘zoni orqali aniqlashga harakat qilamiz. Buning uchun umumiy sistemaning uzatish funksiyasini topib, undagi xarakteristik tenglamani aniqlab va shu xarakteristik tenglamadagi Gurvits aniqlovchilarini noldan kattaligiga tekshiramiz.

3. Ish bajarishning tartibi.

- 1) Barcha bloklarni uzatish funksiyasini keltirib chiqarish.
- 2) MATLAB programmasida strukturani tuzish.
- 3) Tuzilgan strukturadan o‘tkinchi jarayon xarakteristikasini olish va uni turg‘unlikka tekshirish.
- 4) Sistemani xarakteristik tenglamasini keltirib chiqarish va Gurivets me‘zoni orqali turg‘unlikka tekshirish.
- 5) Olingan barcha natijalarni A4 formatda hisobot tayyorlash.

11-tajriba mashg'uloti. Mexatron sistemalarda uzluksiz rostlagichlarni raqamli analoglariga o'zgartirish.

1. **Ishning maqsadi:** Avtomatikada asosiy parametrlardan hisoblanadigan sathni avtomatik rostlash tizimini o'rganish va uni turg'unlik me'zonlari buyicha tekshirish, kompyuterda madelini qurish.
2. **Kerakli jihozlar:** Kompouyuter, zarur dasturiy ta'minot(Matlab) va uslubiy ko'rsatma.
3. **Tajriba ishiga oid nazariy ma'lumotlar:**

Ishlab chiqarish jarayonida sathni roslash va reglament keltirilgan optimal qiymatda ushlab turish muhim ahamiyat kasb etadi. Sath asosan aralashtirgichlarda, pechlarda, rezervuarlar kabi boshqarish obektlarida ko'proq rostlash talab qilinadi. Sathni rostlash uchun eng avvalo sathni o'lchovchi datchiklar bilan tanishishimiz kerak bo'ladi. Sath o'lchash datchiklarini bir necha turlari mavjud bo'lib, shulardan gidrostatik sath o'lchovchini ko'rib chiqamiz. Gidrostatik sath o'lchovchining ishlash prinsipi sath o'zgarganda hosil bo'ladigan gidrostatik bosim yoki bosimlar farqini o'lchashga asoslangan qurilma. Sathni o'lchash va uni uzoq masofaga pnevmatik uzatib berish uchun membranali differensial manometr qo'llaniladi.

O'lchanayotgan obektda sath o'zgarsa, gidrostatik bosim o'zgaradi va quyidagi tenglama orqali aniqlanadi.

$$P_z = \rho gh$$

va shunday bosim bilan menbrananing yuzasiga ta'sir ko'rsatadi. Bu ta'sir natijasida kuch hosil bo'ladi va quyidagicha belgilaniladi.

$$N_z = P_z * S_m$$

Xuddi shunday menbrananig ikkinchi tomonidan reglamentda ko'rsatilgan sothdagi gidrostatik bosim va uning ta'sir etuvchi kuchi qo'yiladi.

$$N_0 = P_0 * S_m \quad P_0 = \rho gh_0$$

Bu yerda h_0 reglamentda keltirilgan sathning qiymati. Bu ikkita kuch membranada taqqoslanadi va ΔN farq asosida ishlaydi.

Boshqarish obekti haqida tushuncha:

Aralashtirish jarayoni ishlab chiqarishda reaksiya ketadigan holatlarda asosan ko'p ishlatiladi. Bunda ikki va undan ortiq kirish maxsulotlarni bitta apparatda aralashtirib ularni ma'lum balandlikda ushlab turish, ishlab chiqaradigan maxsulotning sifati va soni oshadi. Sathni ushlab turish har jihatdan umumiy sistemani turg'unligiga ta'sir etadi. Sath masalan rezervuarlarda sathni ma'lum qiymatdan oshmasligi va ma'lum qimatdan pasaymasligi kerak. Bunining uchun signalizasiya va blakirovka qiymatlari beriladi. Agar sistemada sath oshib ketsa unga keladigan manba klapni yopiladi, aks holda ochilish ro'y beradi.

Sitemani turg'unlikka tekshirish:

Turg'unlikka tekshirish ikki usulda amalga oshiramiz: MATLAB programmasidan foydalangan holda va Mixaylov me'zoniga asosan.


Sitemani turg'unlikka tekshirish uchun undagi ishtirok etgan barcha elementlarni uzatish funksiyalarini aniqlashimiz va 1- tajriba ishida keltirilgan struktur sxemaga qo'yib sistemani turg'unligini tekshiramiz.

Turg'unlikni Mixaylov me'zoniga asosan tekshirish:

Mixaylovning turg'unlik mezoni o'zining mohiyati jixatdan argumentlar prinsipining geometrik tasviridir.

Agar chastota $0 < \omega < \infty$ o'zgarganda Mixaylov godografi haqiqiy musbat o'qdan boshlab koordinata boshi atrofida musbat (soat strelkasiga qarshi) yo'nalishda $n \frac{\pi}{2}$ burchakka burilsa, u holda sistema turg'un bo'ladi (bu yerda «n» xarakteristik tenglamaning darajasi).

1-rasmda turg'unlik shartlari uchun Mixaylov gadograflarining ko'rinishlari keltirilgan.



10.1-rasm. a) sistemaning turg'unlik shartlari; b) sistemaning noturg'unlik shartlari; v) sistemaning turg'unlik chegaralari shartlari uchun Mixaylov gadograflarining ko'rinishlari.

4. Ish bajarishning tartibi.

- 1) Barcha bloklarni uzatish funksiyasini keltirib chiqarish.
- 2) MATLAB programmasida strukturani tuzish va o'tkinchi jarayon xarakteristikasini olish, uni turg'unlikka tekshirish.
- 3) Sistemani Mixaylov me'zoni bo'yicha tekshirish.
- 4) Olingan barcha natijalarni A4 formatda hisobot tayyorlash.

12-tajriba mashg'uloti. Mexatron sistemaning impulsli zvenosini dinamik tavsiflari.

1. Ishdan maqsad:

Ushbu tajriba ishidan maqsad impulsli avtomatik boshqarish sistemasining struktur sxemasini shakl almashtirish va ularning turg'unligini EHM yordamida taxlil qilish usullarini o'rganishdan iborat.

2. Kerakli jihozlar: Kompouyuter, zarur dasturiy ta'minot(Matlab) va uslubiy ko'rsatma.

3.Tajriba ishiga oid nazariy ma'lumotlar:

Impulsli sistemalarning turg'unligini taxlil loyihalanayotgan boshqarish sistemalarining ishlash qobiliyatini aniqlashga yordam beradi.

Malumki impulsli sistemaning dinamikasi umumiy holda ayirma tenglama orqali yoziladi.

$$a_0 x[n+m] + a_1 x[n+m-1] + \dots + a_m x[n] = b_0 y[n+k] + b_1 y[n+k-1] + \dots + b_k y[n] \quad (1)$$

bu yerda $a_j, j=0, m; b_j, j=0, k$ - impulsli sistema dinamikasini xarakterlovchi o'zgaras koeffitsientlar.

$x[nT]$ - boshqariluvchi kattalikning diskret qiymati.

$y[nT]$ - boshqariluvchi signalning diskret qiymati.

Boshqaruvchi kattalik $x[nT]$ ning vaqt bo'yicha o'zgarishi sistema erkin xarakatini ifodalovchi umumiy yechim $x_y[nT]$ va sistema majburiy xarakatini ifodalovchi xususiy yechim $x_x[nT]$ lar yig'indisidan iborat.

$$x[nT] = x_y[nT] + x_x[nT] \quad (2)$$

Bundan tashqari $x_y[nT]$ sistemadagi o'tkinchi jarayonni, quyidagi tenglamani yechish orqali topiladi:

$$a_0 x_y[n+m] + a_1 x_y[n+m-1] + \dots + a_m x_y[n] = 0 \quad (3)$$

Bu tenglamani Z- tasviri quyidagi ko'rinishga ega bo'ladi:

$$(a_0 z^m + a_1 z^{m-1} + \dots + a_m) \cdot x_y(z) = 0 \quad (4)$$

(3) tenglamani yechish uchun xarakteristik tenglamaning yechimlaridan foydalaniladi:

$$a_0 z^n + a_1 z^{n-1} + \dots + a_{m-1} z + a_m = 0 \quad (5)$$

u xolda (3) tenglamaning yechimini quyidagicha yozish mumkin

$$x_y[n] = \sum_{i=0}^m a_i z_i^n$$

yoki

$$x_y[n] = a_0 z_0^n + a_1 z_1^n + \dots + a_m z_m^n \quad (6)$$

Bu yerda $x_y[0T] = a_0 z_0^n$, $x_y[1T] = a_1 z_1^n$ va xokazo.

Agar o'tkinchi jarayon vaqt davomida so'nsa, ya'ni

$$\lim_{n \rightarrow \infty} x_y[nT] \rightarrow 0 \quad (7)$$

u holda tekshirilayotgan sistema turg'un bo'ladi.

(7) - shart bajarilishi uchun sistema xarakteristik tenglamasi (5) ning barcha ildizlari modul bo'yicha birdan kichik bo'lishi zarur va yetarli:


$$\text{mod } Z_i = |Z_i| < 1, \quad i = \overline{1, n} \quad (8)$$

Tekshirilayotgan sistema turg'unligini aniqlash uchun shu sistema xarakteristik tenglamasini yechish talab qilinadi.

Agar tenglamanin tartibi uchdan kattta bo'lsa, u holda har-xil mezonlardan foydalanish mumkin (Gurvits, Mixaylov, Naykvist mezonlaridan).


Sistemaning turg'unligini baholashda qay bir mezonidan foydalanilmaydim (Naykvist mezonidan foydalanilmaydim), avvalo taxlil qilinayotgan sistemaning umumiy uzluksiz uzatish funksiyasini aniqlash lozim bo'ladi. Agar sistema strukturasi uncha murakkab bo'lmasa, u holda bu masala qiyinchiliklarsiz xal qilinishi mumkin, aks holda ushbu masalani yechishda Z - o'zgarishinining algebrasidan va diskret sistemalarning strukturaviy sxemalarini shakl almashtirish usulidan foydalanish kerak bo'ladi. Quyida diskret sistemalarning struktur sxemalarini shakl almashtirishning ba'zi bir, ko'p qo'llaniladigan usullari keltirilgan.

1.




$$W(z) = Z\{W_1(p)\} \cdot Z\{W_2(p)\} = W_1(z) \cdot W_2(z)$$

2.




$$W(z) = Z\{W_1(p) \cdot W_2(p)\}$$

3.




$$W(z) = \frac{Z\{W_1(p) \cdot W_2(p)\}}{1 + Z\{W_1(p) \cdot W_2(p)\}}$$

4.




$$W(z) = \frac{Z\{W_1(p) \cdot W_2(p)\}}{1 + Z\{W_1(p) \cdot W_2(p)\} \cdot Z\{W_3(p)\}}$$

5.




$$W(z) = \frac{Z\{W_1(p)\} \cdot Z\{W_2(p)\}}{1 + Z\{W_1(p)\} \cdot Z\{W_2(p) \cdot W_3(p)\}}$$

Misol: Quyidagi siruktur sxemaga ega bo'lgan avtomatik boshqarish sistemasining turg'unligini aniqlang.



Ushbu struktur sxemani shakl amashtirsak



Bundan sxemadagi 3 ta uzatish funksiyani Matlab ga kiritamiz

Diskretlash doimiysi

Z-almashtirish qilinayotgan funksiya

Uzatish funksiyasini kiritish uchun komanda

Ikkinchi zvenoning uzatish funksiyasini kiritish komandasi

Ikkinchi zvenoning uzatish funksiyasi

Uzatish funksiyaning Z-almashtirish komandasi

Z ko'rinishdagi uzatish funksiya

```

MATLAB
File Edit View Web Window Help
Current Directory:
Workspace
Name      Size
s         1x1
w1        1x1
w2        1x1
w3        1x1
wz2       1x1
Command Window
>> s=tf('s');
>> w2=1/(2*s+1)
Transfer function:
1
-----
2 s + 1
>> wz2=c2d(w2,1)
Transfer function:
0.3935
-----
z - 0.6065
Sampling time: 1
>>
Command History
%-- 3/26/07 2:15 PM
s=tf('s');
w1=1/s
w2=1/(2*s+1)
w3=1/(s+1)
wz2=c2d(w2,1)

```

```
>> s=tf('s');
>> w1=1/s

Transfer function:
1
-
s

>> w2=1/(2*s+1)

Transfer function:
1
-----
2 s + 1

>> w3=1/(s+1)

Transfer function:
1
-----
s + 1
```

Endi quyidagi hisoblashlarni amalga oshiramiz.

```
>> wz2=c2d(w2,1);
>> wz2

Transfer function:
0.3935
-----
z - 0.6065

Sampling time: 1
>>
```

```
>> wz=c2d(w1*w3,1);
>> wz

Transfer function:
0.3679 z + 0.2642
-----
z^2 - 1.368 z + 0.3679

Sampling time: 1
>>
```

```
>> wz1=c2d(w1,1);
>> wz1

Transfer function:
1
-----
z - 1

Sampling time: 1
>>
```

```
>> Wzumumiy=wz1*wz2/(1+wz*wz2)

Transfer function:
0.3935 z^3 - 0.7769 z^2 + 0.4712 z - 0.08779
-----
z^5 - 3.581 z^4 + 5.121 z^3 - 3.473 z^2 + 1.006 z - 0.07227

Sampling time: 1
>>
```

$$Z\{W_2\}=Z\left\{\frac{1}{2p+1}\right\}=Z\left\{\frac{1/2}{p+1/2}\right\}=1/2 \cdot Z\left\{\frac{1}{p+1/2}\right\}=1/2 \cdot \frac{e^{-0,5T}}{z-e^{-0,5T}}=1/2 \cdot \frac{e^{-0,5}}{z-e^{-0,5}}=$$

$$\frac{0.3935}{z-0.6065}$$

$$Z\{W_1W_3\}=\frac{0.3679z+0.2642}{z^2-1.368z+0.3679}$$


$$Z\{W_1\}=\frac{1}{z-1}$$

$$Z\{W_{um}\} = \frac{Z\{W_1\} \cdot Z\{W_2\}}{1 + Z\{W_1 \cdot W_3\} \cdot Z\{W_2\}} =$$

$$\frac{0.3935z^3 - 0.7769z^2 + 0.4712z - 0.089779}{z^5 - 3.581z^4 + 5.121z^3 - 3.473z^2 + 1.006z - 0.07227}$$


$$z^5 - 3.581z^4 + 5.121z^3 - 3.473z^2 + 1.006z - 0.07227$$

$z^5 - 3.581z^4 + 5.121z^3 - 3.473z^2 + 1.006z - 0.07227$ - xarakteristik tenglama ildizlari qutblar deyiladi.



Olingan natijalardan ko‘rinib turibdiki sistema noturg‘un ekan.

Tajriba ishida taxlil qilinadigan sistemaning umumiy struktur sxemasi quyidagi ko‘rinishga ega:



Bu yerda $W_i(p) = \frac{K}{p + b}$

Agar jadvalda $K=b=0$ bo‘lsa va $T_0 \neq 0$, u xolda W_i uzatish funksiyasi impulsli element bilan almashtiriladi.

№	W ₁			W ₂			W ₃			W ₄			W ₅			W ₆			W ₇			W ₈		
	K	b	T ₀	K	b	T ₀	K	b	T ₀	K	b	T ₀	K	b	T ₀	K	b	T ₀	K	b	T ₀	K	b	T ₀
1	0	0	0,5	1	1	0	0	0	1	2	0	0	0	0	0	0	0	1	1	0,5	0	1	0	0
2	2	0,5	0	0	0	1	3	0,7	0	0	0	0	0	0	0	2	0	0	0	0	0,5	2	0,3	0
3	0	0	1	2	0,7	0	0,7	0,5	0	0	0	0	0,5	0	0	3	0,7	0	0	0	1	1	0	0
4	1	0	0	1	0,5	0	0	0	0,5	1	0	0	0	0	0	1	0	0	1	0,7	0	0	0	0
5	0	0	0,5	2	1,2	0	0	0	1	1	0,6	0	0	0	0	3	0,9	0	0	0	0	0	0	0
6	0,5	1,1	0	0	0	1	1	1	0	1	0	0	2	0,6	0	0	0	0	0	0	1	2	0,7	0
7	0,9	0,4	0	0	0	0,5	1	0	0	0,5	0,2	0	1	0	0	0	0	1	1	0	0	0	0	0
8	2	0	0	0	0	1	0,7	0,5	0	2	0	0	0	0	0	1	1	0	0	0	0	0	0	0
9	0	0	0,5	2	0,7	0	2	1	0	0	0	0	1	0	0	2	0	0	0	0	1	1	1	0
10	1	0	0	1	1	0	0	0	1	2	0,5	0	1	0	0	0	0	1	1	0	0	2	1	0
11	0	0	0,5	2	2	0	0	0	1	2	0	0	0	0	0	0	0	1	1	0,5	0	1	0	0
12	2	0,5	0	0	0	1	3	0,7	0	0	0	0	0	0	0	2	0	0	0	0	0,5	2	0,3	0
13	0	0	1	2	0,7	0	0,7	0,5	0	0	0	0	0,5	0	0	3	0,7	0	0	0	1	1	0	0
14	1	0	0	1	0,5	0	0	0	0,5	1	0	0	0	0	0	1	0	0	1	0,7	0	0	0	0
15	0	0	0,5	2	1,2	0	0	0	1	1	0,6	0	0	0	0	3	0,9	0	0	0	0	0	0	0

16	0,5	1,1	0	0	0	1	1	1	0	1	0	0	2	0,6	0	0	0	0	0	0	1	2	0,7	0
17	0,9	0,4	0	0	0	0,5	1	0	0	0,5	0,2	0	1	0	0	0	0	1	1	0	0	0	0	0
18	2	0	0	0	0	1	0,7	0,5	0	2	0	0	0	0	0	1	1	0	0	0	0	0	0	0
19	0	0	0,5	2	0,7	0	2	1	0	0	0	0	1	0	0	2	0	0	0	0	1	1	1	0
20	0	0	1	1	1	0	0	0	1	2	0,5	0	1	0	0	0	0	1	0	0	1	2	1	0

4. Ishni bajarish tartibi

1. Ishni nazariy qismi bilan tanishib chiqing.
2. Variant bo'yicha berilgan struktur sxema bo'yicha zvenolarning uzatish funksiyalarini Matlab dasturiga komanda yordamida kiriting.
3. Sistemaning umumiy uzatish funksiyaning Z-almashtirishini toping.
4. Umumiy uzatish funksiyaning qutb va nollarini toping.
5. Qutb va nollarni kompleks tekisligiga joylashtiring.
6. Sistemaning turg'unligi bo'yicha xulosa chiqaring.

5. Laboratoriya ishida quyidagilar keltirilishi lozim:

1. Tahlil qilinayot sistemaning struktur sxemasi va uning uzlukli uzatish funksiyasi va xarakteristik tenglama.
2. Matlab dasturida o'tkazilgan tajriba, xisob-kitob natijalari,
3. Umumiy xulosalar.

**O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY VA O`RTA MAXSUS TA`LIM VAZIRLIGI**

NAMANGAN MUHANDISLIK-TEXNOLOGIYA INSTITUTI

«TJABIT» kafedrasi

**«MEXATRONIKA»
fanidan**

GLOSSARIY

Namangan-2021

Texnologik parametrlari - har qanday texnologik jarayon va ob`ekt turli fizik kattaliklar: harorat, bosim, tezlik, taranglik, namlik, sath va boshqalar kabi ko`rsatkichlari bilan ifodalanadi.

Rostlanuvchi parametr - rostlanishi, o`zgarmas qilib ushlab turilishi yoki berilgan dastur bo`yicha o`zgartirilishi talab qilinadigan parametr. **Boshqarish ob`ekti** - parametrlari rostlanayotgan texnologik mashina.

Boshqarish - har qanday jarayonni qo`yilgan maqsad sari yo`naltirish.

Rostlagich - boshqarish ob`ektining rostlanuvchi parametrini berilgan qiymat bo`yicha ushlab turish uchun xizmat qiluvchi va boshqarish ob`ektiga boshqarish signali ishlab chiquvchi qurilma.

Avtomatik rostlash systemsini - rostlanuvchi ob`ekt va rostlagich majmui.

Avtomatik boshqarish - ob`ektning ishlashi va undan kutilgan natija – ma`lum miqdorli, sifatli mahsulot, jarayon olish uchun avtomatik boshqarish qurilmalari orqali boshqarish maqsadida, ya`ni ma`lum dastur asosida ko`rsatiladigan ta`sirlar to`plami.

Aprior axborot - dastlabki yoki tizim ishlashidan oldin boshqariladigan jarayon va boshqarish tizimi haqida ixtiyorimizda bo`lgan ma`lumotlar.

Ishchi axborot - tizim ishlayotgan vaqtda olinadigan axborot.

Algoritm - dastlabki ma`lumotlarni izlangan natijaga o`tkazish yo`l-yo`rig`i mazmunini va ketma – ketlik operatsiyasini belgilab beradigan yo`l – yo`riq.

Yopiq boshqaruv tizimi - boshqarishning oxirgi ikki turi boshqaruv ob`ektining kirishiga teskari bog`lanish zanjirlari orqali axborot berilishi.

**Bosh teskari bog`lanish** - avtomat rostlash tizimini hech bo`lmaganda rostlanadigan koordinatani haqiqiy va berilgan (topshiriq) qiymatlarini solishtirish uchun xizmat qiladigan bitta teskari bog`lanishga ega bo`lishi.

Kuzatuvchi tizimlarni baholaydigan narsa – bu chiqish koordinatasining o`zgarish qonuni vaqtning tasodifiy funksiyasi bo`lishidir.

Dasturli boshqariladigan tizimlar rostlanadigan koordinatani oldindan o`rnatilgan ma`lum dastur deb ataluvchi qonunga binoan vaqt bo`yicha o`zgartirishga mo`ljallangan.

Uzluksiz boshqariladigan tizimda boshqaruvchi signal vaqt bo`yicha uzluksiz funksiyani tashkil etadi

Statik xarakteristika – rostlanadigan koordinataning yuklamaga bog`liqligi bo`lib, u berilgan topshiriq ta`sirning o`zgarmas qiymatida olinadi.

Davriy signallar $f(x)=f(t+T)$ shartini bajaradigan vaqt funksiyasi tasviriga ega bo`lib, unda  $T$ -davr deb nomlanadigan ma`lum o`zgarmas qiymatdir.

Nodavriy deb, vaqt funksiyasi ko`rinishida berilgan chekli ( $t_1 \leq t \leq t_2$ ) chegarada yoki yarim chekli ( $t_1 \leq t \leq +\infty$ ) vaqt oralig`i-dagi muntazam signallarga aytiladi, bu vaqtlardan tashqarida esa u aynan nolga teng bo`ladi.

Tasodifiy signalni esa oldindan berilgan vaqt funksiyasi bilan ifodalab bo`lmaydi. Tasodifiy signallar matematik tavsirlash uchun ehtimollik nazariyasi va statistik dinamika uslublaridan foydalaniladi.

Diskret signallar sath bo`yicha yoki ham sath, ham vaqt bo`yicha diskret bo`lishlari mumkin.

**Pog`onali signal** eng sodda ko`rinishli signallardan biri bo`lib, ABT o`tkinchi jarayonlarni hisoblashda ishlatiladi. U vaqt funksiyasi bo`lib,  $t=0$  paytda  $A=\text{const}$  qiymatiga erishadi va kelgusida o`zgarmasdan qoladi. $t<0$ bo`lganda esa $x(t)=0$.

Garmonik (sinusoidal yoki kosinusoidal) signal avtomat boshqaruv tizimini va uni elementlarini chastotali xususiyatlarini tadqiqot qilishda keng qo`llaniladi. U vaqt

funksiyali bo`lib,  $x(t)=A\sin(\omega t+\varphi)$  ko`rinishda bo`ladi va garmonik signalni Laplas bo`yicha o`zgartirilishi:

**Chiziqli o`svuchi signal** odatda kuzatuvchi tizimlar dinamikasini tadqiqot qilganda ko`proq qo`llaniladi. U vaqt bo`yicha chiziqli funksiya ko`rinishida ifodalaniladi:

Tizimning dinamik xarakteristikalar deb, har xil ta`sirlar tufayli hosil bo`ladigan o`tkinchi jarayonlarga aytiladi. Ular tizimni uzatish funksiyasi asosida olinishi mumkin.

Amplituda va faza chastota xarakteristikasi (AFChX) kompleksli ifodalarning nisbatidan iborat:

$$F(j\omega) = \frac{y(t)}{x(t)}$$

Zvenoning statik xarakteristikasi deb, o`rnatilgan xolatdagi chiqish va kirish qiymatlarning bog`lanishiga aytiladi. Dinamik zvenolarning statik xarakteristikasi analitik (ya`ni tenglama ko`rinishida) yoki grafik $y_{ch}=f(x_k)$ funksiya ko`rinishida, nochiziq zvenolarning esa ko`proq grafik ko`rinishda taqdim etiladi.

Inersiyasiz zveno deb, har onda chiqish u_{ch} va kirish x_k qiymatlari orasida proporsionallik bo`lgan zvenoga aytiladi.

$$u_{ch}=kx_k; \quad W(p)=\frac{y_q}{x_k}=k,$$

**Birinchi darajali inersiyali (nodavriy, reaksiyali, aperiodik, bir sig`imli) zveno** deb, chiqish qiymati vaqt bo`yicha eksponensial qonun bo`yicha o`zgaradigan zvenoga aytiladi.

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
NAMANGAN MUHANDISLIK – TEXNOLOGIYA INSTITUTI

“Tasdiqlayman”

O'quv ishlari bo'yicha prorektor

_____ dots.U.Meliboyev

«_____» _____ 2021 yil

MEXATRONIKA FANINING

ISHCHI O`QUV DASTURI

Bilim sohasi: 300 000 Ishlab chiqarish-texnik soha

Ta'lim sohasi: 310 000 Muhandislik ishi

Ta'lim yo'nalishi: 5311000 Texnologik jarayonlar va ishlab chiqarishni avtomatlashtirish va boshqarish (paxta, to'qimachilik va yengil sanoat)

Umumiy o`quv soati – 292 soat

Shu jumladan:

Ma`ruza – 84 soat (7 semestr – 42 soat; 8 semestr – 42 soat)

Amaliy mashg`ulot – 56 soat (7 semestr – 28 soat; 8 semestr – 28 soat)

Tajriba – 28 soat (7 semestr – 14 soat; 8 semestr – 14 soat)

Mustaqil ta`lim soati – 124 soat (7 semestr – 62 soat; 8 semestr – 62 soat)

NAMANGAN – 2021 YIL

Fanning ishchi o`quv dasturi O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 20____ yil _____dagi _____-sonli buyruq bilan tasdiqlangan "Mexatronika" fani dasturi asosida tuzildi.

Fanning ishchi o`quv dasturi Namangan muhandislik – texnologiya instituti Kengashining 2021 yil "____" _____dagi "____" – sonli bayoni bilan tasdiqlangan.

Tuzuvchilar:

Qodirov D.T. – NamMTI, "TJABIT" kafedrası katta o'qituvchisi.

Ismanov.M.A – NamMTI, "TJABIT" kafedrası assistenti.

Taqrizchilar:

G.Gulyamov – NamMQI, «Fizika» kafedrası professori, fizika-matematika fanlari doktori

H.Abdullayev – NamMTI, «Texnologik jarayonlarni avtomatlashtirish va boshqarish va informatsion texnologiyalar» kafedrası dotsenti, fizika-matematika fanlari nomzodi

NamMTI
Avtomatika va Energetika
fakul'teti dekani:

2021 yil "____" _____ dots. A.A.Mamaxonov
(imzo)

"TJABIT"
kafedrası mudiri:

2021 yil "____" _____ f.-m.f.d. U.I.Erkaboyev
(imzo)

1. O'quv fani o'qitilishi bo'yicha uslubiy ko'rsatmalar

O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risidagi Qonuni» va «Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi» mazmunida barkamol shaxs va malakali mutaxassisni tarbiyalab voyaga yetkazish jarayonining mohiyati to'laqonli ochib berilgan. Malakali kadrlar tayyorlash jarayonining har bir bosqichi o'zida ta'lim jarayonini samarali tashkil etish, uni yuqori bosqichga ko'tarish shu bilan birga jahon ta'limi darajasiga yetkazish borasida muayyan vazifalarini amalga oshirishi lozim. «Mexatronika» fanini o'qitishdan maqsad – talabalarga mexatronika fanidan nazariy va amaliy jihatdan puxta tayyorlab, ishlab chiqarishda qo'llaniladigan mexatron va elektromexanik sistemalarning ishlash prinsipi, ularni to'g'ri tanlash, elektromexanik sistemalarning strukturasi, ularning elementlari, asosiy xarakteristikalarini, elektr yuritmalarning vazifasi, ularga qo'yiladigan talablar asosida elektromexanik sistema turini, uning strukturaviy tuzilishini, hamda mavjud sistemalarning kamchiliklarini va ishlash prinsiplarini tahlil qilish ko'nikmalarini shakllantirish va o'rgatishdan iboratdir. Ushbu maqsadga erishish uchun talabalarga elektromexanik va mexatron sistemalarning tuzilishi, elektromexanik va mexatron sistemalarning ishlash prinsipi, asosiy xarakteristikalarini va parametrlarini hamda ulardan samarali foydalanish usullarini o'rgatish hamda ularning dunyoqarashini shakllantirish vazifalarini bajaradi.

Fan bo'yicha talabalarning bilim, ko'nikma va malakalariga quydagi talablar qo'yiladi. Talaba:

- avtomatlashtirilgan elektromexanik sistemalar, mexatron sistemalarni boshqarishning zamonaviy usullari, elektr yuritmalarning vazifasi va ularga qo'yiladigan talablar asosida elektromexanik sistema turini va uning strukturaviy tuzilishi to'g'risida **tasavvurga ega bo'lishi**;
- mexatron sistemalarni texnologik mashinalarni yaratish jarayoniga va ularni boshqarishni kompyuter orqali bajarishni, ishchi mexanizmlarning samaradorligini takomillashtirish maqsadida ishga tushirish va ximoya vositalarini to'g'ri tanlashni, elektromexanik sistemalarning kamchiliklarini va ishlash prinsiplarini tahlil qilishni **bilishi va undan foydalana olishi**;
- prinsipial sxemalarni tuzishda yarim o'tkazgichli asboblarni qo'llash, elektr yuritmalar quvvatini aniqlash va asosiy elementlarini tanlash, elektromexanik va mexatron sistemalarning strukturasi, ularning elementlari va asosiy tavsiflarini aniqlash **ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak**.

2. Ma'ruza mashg'ulotlari

№	Ma'ruzalar mavzulari	Dars soati hajmi
	7 - semestr	
1	«Mexatronika» faniga kirish. Elektromexanik sistemalarning elementlari. «Mexatronika» fanining maqsad va vazifalari, elektromexanik sistemalar	2
2	Elektromagnit kuch. Elektromagnit kuchlar va ularni Avtomatlashtirish va boshqaruvda ishlatiladigan elektromexanik sistemalar to'g'risida umumiy ma'lumotlar.	2
3	Ishlab chiqarishda elektromexanika. Ishlab chiqarishda elektromexanika sohasidagi respublikamizdagi ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar natijalari, hududiy muammolar va fan, texnika va texnologiya yutuqlari.	2
4	O'zgarmas tok ijro dvigatellari. O'zgarmas tok ijro dvigatellari. Konstruksiya va ishlash prinsipi. Afzallik va kamchiliklari. Ishlatilish sohalari.	2
5	O'zgarmas tok dvigatelini boshqarish. O'zgarmas tok dvigatelini boshqarishda ishlatiladigan element va qurilmalar. Boshqarish diagrammalari. Tezlikni boshqarish	2
6	O'zgarmas tok dvigatelini mexanik xarakteristikasi. Kontaktsiz o'zgarmas tok dvigateli. Sxemasi va ishlash prinsipi.	2
7	Asinxron ijro dvigatellari ularning konstruksiyalari va ishlash prinsipi. Ulash sxemalari va boshqarish usullari. Asinxron ijro dvigateli xarakteristikalarini.	2

8	Elektromexanik sistemalar o'lov elementlari. Sinflanishi. Raqamli, chiziqli va burchak holat datchiklari. Selsinlar, o'lov hash sxemalari, konstruksiyasi.	2
9	Aylanma transformatorlar, ularning sxemalari, ishlash prinsiplari va tuzilishi. Aylanma transformatorni ishlatilish sohalari va ishchi xarakteristikasi	2
10	Taxogeneratorlar, sinflanish, ishlash prinsiplari va ishlatilish sohalari Ochiq boshqarish sxemali elektr yuritmalari va umumiy xarakteristikalari.	2
11	Elektr yuritma energetikasida uchraydigan kamchiliklar va afzalliklar. Elektr yuritmaning yuklanish diagrammalari	
12	Elektr yuritmalarni boshqarish sxemalari. O'zgaras tok elektr yuritmalarning boshqarish sxemalari. Asinxron dvigatelli elektr yuritmasining boshqarish sxemalari.	2
13	Elektr yuritmalariig berk boshqarish sxemalari. Berk boshqarish sxemalarning umumiy xarakteristikalari. O'zgaras tok, Asinxron va Sinxron dvigatelli elektr yuritma berk boshqarish sxemasi.	2
14	Taqlidli elektr yuritmalar. Adaptiv boshqarishli elektr yuritmalar. Ishlab chiqarishni avtomatlashtirish sistemalarida elektr yuritmalar qo'llanilishning istiqbollari.	2
15	Elektr yuritmalarning tezliklarini rostlash to'g'risida umumiy ma'lumotlar. Tezliklarni rostlashning asosiy ko'rsatkichlari.	2
16	Elektr yuritma dinamikasi to'g'risida umumiy ma'lumotlar. Elektr yuritmaning xarakat tenglamasi va uning taxlili.	2
17	Elektr yuritmalarda o'tkinchi jarayonlar. Elektr motorlarning qizish va sovish normalari. Qizish doimiysi va uni aniqlash usullari.	2
18	Elektr yuritmalarni tanlash, boshqarish jihozlari va avtomatik boshqarish. Yuritmalar yuklanish diagrammasi. Elektr motorlar quvvatini tanlash va xisoblashning umumiy xolatlari.	2
19	Elektr yuritmalarni tanlash va boshqarish. Atrof muhit sharoitlariga qarab mator tanlash. Elektr yuritmalarni boshqarish jixozlarining klassifikatsiyasi. Qo'lda va avtomatik boshqarish jihozlari.	2
20	Elektr yuritmalarni himoya qurilmalari. Avtomatik o'chirgichlarni quvvat, tok va kuchlanish bo'yicha tanlash. Eruvchan saqlagichlar va ularni tanlash.	2
21	Elektr yuritmalarni boshqarish prinsiplari. Elektr yuritmalarni avtomatik boshqarish prinsiplari. Elektr motorlarni boshqarishning tipik sxemalari.	2
	JAMI	42
	8-semestr	
22	Mexatronika – zamonaviy fan va texnikaning yangi yo'nalishi Mexatronika to'g'risidagi asosiy tushunchalar. Mexatron sistemalarning yangi funksional masalalari.	2
23	Mexatronikaning ta'rifi va terminlari. Mexatronika va robotshunoslik sohalari. Mexatron modullarning sinflanishi.	4
24	Mexatronikada yangi texnologiyalar. Mexatronikaning strukturaviy va texnologik bazislari.	2
25	Mexatron modullar va sistemalarni qurish usullari. Oraliq o'zgartirgichlar va interfeyslarni yo'qotish usuli. Mexatron sistemalarni loyihalash asoslari.	4
